

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

SANOAT IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI

*fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun
uslubiy qo'llanma*

Toshkent – 2018

Tuzuvchilar: Umarova D., Taraxtieva G.K., Gulomova N.X., Ibragimova K.S. "Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun uslubiy qo'llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2018. 160 b.

Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kursi bo'yicha tayyorlangan mazkur uslubiy qo'llanma tarmoq korxonalari amaliyotida qo'llaniladigan asosiy va aylanma fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari, tannarxning shakllanishi, foyda va rentabellikni aniqlash kabi korxona iqtisodiyotining muhim mavzulari berilgan. Bu uslubiy qo'llanma sanoat iqtisodiyoti bo'yicha muayyan bilimlarni egallashga yordamlashadi.

*Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga
asosan chop etildi*

Taqribchilar: Muminov N.G. O'zMU "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedras
mudiri, i.f.n dots;

Xusayinov R-ToshDTU "Korporativ boshqaruv" kafedras, i.f.n dots.

KIRISH

“Harakatlar strategiyasi”da mujassam etilgan eng muhim jihatlar o‘z mazmuniga asosan, dunyoda keskin o‘zgarishlar yuz berayotgan hozirgi zamonda davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar va tinchlik-tarvonlik, osoyishta hayot, xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha beshita ustuvor yo‘nalishda aniq muddatga mo‘ljallangan to‘rtinchi manodagi dastur hisoblanadi. Takidlash kerakki, ayni shu yo‘nalishlar bugungi globallashuv jarayoni, tobora chuqurlashib borayotgan murakkab geosiyosiy vaziyat, ayniqsa, xalqaro maydonda ba‘zi bir mamlakatlarning faqatgina o‘z manfaatlari nuqtai nazaridan turib siyosat yuritishi, insoniyat har qadamda duch kelayotgan terrorizmining global xarakteri, narkotrafik va uyushgan jinoyatchilik insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solib turgan murakkab zamonda O‘zbekiston manfaatli, demak xalqimiz manfaatli uchun dolzarb ahamiyatga ega.

U besh bosqichda, kelgusi besh yilda yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi.

“Harakatlar strategiyasi”ning dastlabki yo‘nalishi “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”, deb nomlangan bo‘lib, unda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish belgilangan.

O‘zbekistonda rivojlangan ko‘ppartiyaviylik tizimi vujudga kelganligini, yoki bo‘lmasa siyosiy madaniyatga ega bo‘lgan saylovchilarning shakllanganligini ham ta‘kidlash o‘rinli. Jamoatchilikning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortib borib, amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarda daxldorlik tuyg‘usi paydo bo‘lib, mana shunday muhim islohotlarning ishtirokchisiga aylanib bormoqda. Men nima uchun buni shu o‘rinda takidlab o‘tayapman. Sababi, mana shu “Harakatlar strategiyasi”ni muhokama qilish jarayonida ham siyosiy partiyalar vakillari, faollari faol ishtirok etishdi. Jamiyatda ko‘ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi va bevosita fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biriga aylangan siyosiy partiyalar orqali xalqimizning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki ko‘lami kengayib bormoqda. Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridan boshlab, bosqichma-

Tuzuvchilar: Umarova D., Taraxtieva G.K., Gulomova N.X., Ibragimova K.S. "Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun uslubiy qo'llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2018. 160 b.

Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kursi bo'yicha tayyorlangan mazkur uslubiy qo'llanma tarmoq korxonalari amaliyotida qo'llaniladigan asosiy va aylanma fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari, tannarxning shakllanishi, foyda va rentabellikni aniqlash kabi korxona iqtisodiyotining muhim mavzulari berilgan. Bu uslubiy qo'llanma sanoat iqtisodiyoti bo'yicha muayyan bilimlarni egallashga yordamlashadi.

*Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga
asosan chop etildi*

Taqrizchilar: Muminov N.G. O'zMU "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası mudiri, i.f.n dots;

Xusayinov R-ToshDTU "Korporativ boshqaruv" kafedrası, i.f.n dots.

KIRISH

“Harakatlar strategiyasi”da mujassam etilgan eng muhim jihatlar o‘z mazmuniga asosan, dunyoda keskin o‘zgarishlar yuz berayotgan hozirgi zamonda davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar va tinchlik-farovonlik, osoyishta hayot, xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha beshita ustuvor yo‘nalishda aniq muddatga mo‘ljallangan to‘m manodagi dastur hisoblanadi. Takidlash kerakki, ayni shu yo‘nalishlar bugungi globallashtirish jarayoni, tobora chuqurlashib borayotgan murakkab geosiyosiy vaziyat, ayniqsa, xalqaro maydonda ba‘zi bir mamlakatlarning faqatgina o‘z manfa‘tlari nuqtai nazaridan turib siyosat yuritishi, insoniyat har qadamda duch kelayotgan terrorizmining global xarakteri, narkotrafik va uyushgan jinoyatchilik insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solib turgan murakkab zamonda O‘zbekiston manfa‘ti, demak xalqimiz manfa‘ti uchun dolzarb ahamiyatga ega.

U besh bosqichda, kelgusi besh yilda yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi.

“Harakatlar strategiyasi”ning dastlabki yo‘nalishi “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”, deb nomlangan bo‘lib, unda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish belgilangan.

O‘zbekistonda rivojlangan ko‘ppartiyaviylik tizimi vujudga kelganligini, yoki bo‘lmasa siyosiy madaniyatga ega bo‘lgan saylovchilarning shakllanganligini ham ta‘kidlash o‘rinli. Jamoatchilikning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortib borib, amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarda daxldorlik tuyg‘usi paydo bo‘lib, mana shunday muhim islohotlarning ishtirokchisiga aylanib bormoqda. Men nima uchun buni shu o‘rinda takidlab o‘tayapman. Sababi, mana shu “Harakatlar strategiyasi”ni muhokama qilish jarayonida ham siyosiy partiyalar vakillari, faollari faol ishtirok etishdi. Jamiyatda ko‘ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi va bevosita fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biriga aylangan siyosiy partiyalar orqali xalqimizning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki ko‘lami kengayib bormoqda. Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridan boshlab, bosqichma-

bosqich amalga oshirilayotgan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida siyosiy partiyalarga juda katta vakolat va imkoniyatlar berilmoqda. Masalaga qonunchilikda belgilab berilgan mana shu vakolat nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, tabiiyki, bugun fuqarolik jamiyati institutlari orasida, ayniqsa, eng ta'sirchan institutlardan biri bo'lgan siyosiy partiyalar oldida juda katta masuliyat turganligini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Bunday o'ta muhim vazifani ado etish, o'z-o'zidan yoki osonlik bilan kechadigan jarayon bo'lmay, balki siyosiy partiyalar xalqning ilg'or qismi sifatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan yanada mukammal harakat dasturiga va hayotiy tashabbuslariga ega bo'lishi lozim.

Bozor islohotlarining huquqiy negizi tobora mustahkamlanib bormoqda. Bunday sharoit sanoat iqtisodiyoti va menejmenti fani oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chukurlashtirish va shu asosda jamiyat azolarining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoatning mavqei alohida o'rin egallaydi. Ana shu juda muhim soha iqtisodiy asoslarining ham nazariy, ham amaliy mohiyati va ahamiyatini tushunadigan, bu boradagi barcha yangiliklar va tashkiliy o'zgarishlarni his eta oladigan iqtisodchilarni tayyorlashda "Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" fani alohida ahamiyat kasb etadi.

Korxonalar barqarorligi ko'p jihatdan iqtisodiy faoliyatning holatiga, ya'ni ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etish va boshqarish usullari, mehnatga haq to'lash, bozor talablariga o'z vaqtida javob berish, texnik va investitsion qaror qabul qilishda yangilashmaslik va hokazolarga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishda bu masalalarni hal etish nechog'lik to'g'ri va samarali amalga oshirilishiga korxona va uning har bir xodimi hamda butun davlatning ravnaqi va gullab - yashnashi ham bog'liq bo'ladi.

Fanning asosiy maqsadi ilm toliblarda zamonaviy iqtisodiy fikrlashni, mamlakat milliy ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish tizimida sanoat majmuining omilini tavsiflash, milliy iqtisodiyot va aholining sanoat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroqqondirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruriyati to'g'risidagi umumlashgan tasavvurni shakllantirishdan iborat.

"Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" fani talabalarga nafaqat muayyan axborot, ma'lumotlar, bilim va ilm berishi, balki ularni o'z

yo'nalishlarini to'g'ri tanlab olishga, murakkab iqtisodiy muammolar yechimini topa bilishga o'rgatishi kerak.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirish va shu asosda jamiyat azolarining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda sanoatning mavqei alohida o'rin egallaydi. Ana shu juda muhim soha iqtisodiy asoslariningham nazariy, ham amaliy mohiyati va ahamiyatini tushunadigan, bu boradagi barcha yangiliklar va tashkiliy o'zgarishlarni his eta oladigan iqtisodchilarni tayyorlashda **"Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti"** fanining roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning bu fan bo'yicha bilim va malakalarini shakllantirishning asosini ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlar, ilmiy-tadqiqotlardagi ishtiroki tashkil etadi.

1-mavzu. "SANOAT IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI" FANINING MAZMUNI VA VAZIFASI

Har bir mamlakatning sanoat quvvati hamda fan-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotni modernizatsiyalash Ko'rsatkichlarini birinchi o'rinda yirik korxonalar belgilab beradi. Shu sababli "kichik" iqtisodiyotni rivojlantirish, ya'ni kichik va yirik korxona hamda mikrofirmalarga keng yo'l ochib berishda yirik korxonalarning o'rni va rolini unutmaslik darkor. Chunki bu korxonalarda ishlovchi xodimlar soni katta bo'lishdan tashqari, fan-texnika yutuqlarini hayotga tatbiq etish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mehnatni rag'batlantirish hamda do'stona, sherikchilik aloqalarini (jumladan, xorijiy korxona va firmalar bilan) rivojlantirishga keng imkoniyatlar mavjud. Shu sababli yirik, kichik korxonalarning optimalligi umumiy ishlab chiqarish talablari va milliy iqtisodiyotning rivojlanishi istiqbollari kelib chiqqan holda fan va xo'jalik amaliyotining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to'g'ri-dan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar qanchalik yaxshi, samarali va rentabelli ishlasa, butun iqtisodiyotning, jumladan, ularning o'zlarining ham ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va rentabellikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga keng imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyoti sharoitlarida barcha korxonalar ham raqobatchilikni yengib, samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda ololmaydi. Natijada minglab korxonalar tashkil qilinib, xo'jalik faoliyati doirasiga qo'shiladi va deyarli shunchasi turli sabablarga ko'ra tugatiladi.

«Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti» fani izlanish va uslubiy vazifalarni bajaradi hamda jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlarida qabul qilinuvchi amaliy qarorlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

«Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti» fani tarkibiga *tarmoqlar* (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va hokazo), *funksional* («Mehnat sotsiologiyasi va iqtisodiyoti», «Iqtisodiy statistika», «Moliya va kredit», «Narxni shakllantirish» va hokazo) kabi *turli fan* («Iqtisodiy geografiya», «Demografiya», «Iqtisodiyot tarixi» va boshqalar) tarmoqlari tizimi kiradi. «Iqtisodiyot» fanining bu va boshqa yo'nalishlarida chuqur bilimga ega bo'lish insonlarning ijtimoiy faolligini oshirish,

oqilona xo'jalik yuritish, kadrlarni yangi iqtisodiy fikrlash ruhida tarbiyalashga katta turtki bo'ladi.

«Ishlab chiqarishni tashkil etish» – bu, jonli mehnat jarayoni bilan ishlab chiqarish elementlari (mashina-mehanizmlar, asbob-uskunalar hamda boshqa mehnat qurilmalari) dan foydalanish jarayonini samarali va oqilona tashkil etishdir. Ishlab chiqarishni tashkil etishdan maqsad korxona uchun ajratilgan moddiy, mehnat va moliyaviy imkoniyatlardan mumkin qadar yaxshiroq foydalanish, reja topshiriqlarini eng yaxshi ko'rsatkichlar bilan boshqarishdir.

«Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti» xuddi boshqa fanlar kabi birinchi o'rinda o'rganish funksiyasini bajaradi. Uning mahsulot ishlab chiqarish moddiy-texnika resurslarini sarf qilishni talab qilishi bilan, xodimlar mehnati ularga haq to'lash va rag'batlantirishning boshqa shakllari bilan, daromad hajmi esa xarajatlar miqdori va narxni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shma korxonalarda sodir etiluvchi hodisa va jarayonlarni o'rganishi va izohlashi mo'ljallangan. Bunda gap qandaydir omillarni oddiy tarzda konstatatsiya qilish haqidagina emas, balki korxonalar iqtisodiy hayotining mohiyatini anglash, ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash yo'llarini tanlash, narxlash va tahlil qilish, eng muhim iqtisodiy jarayonlarni prognozlashtirish va modellashtirish haqida ham boradi.

"Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" fani ham o'z obyektiga ega. Uning obyekti umuman sanoat, xususan, O'zbekiston sanoati hisoblanadi.

"Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" fanining predmeti deganda jamiyatning ob'ektiv iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalarining shu sohada namoyon bo'lish shakllarini, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish jarayonida jonli va buyumlashgan mehnatning eng optimal harajatlari asosida eng yaxshi natijalarga erishishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar va omillarni o'rganish tushuniladi. "Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" fanining vazifalari respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ob'ektiv sharoitlari, davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari va unga binoan amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

– mustaqil va qudratli davlat iqtisodiy siyosatining mohiyati va maqsadini tushungan holda sanoat ishlab chiqarishi hamda uning bo'g'inlarida bu siyosatni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlarini tola anglash;

– sanoat ishlab chiqarishining xolati va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, tahlil etish va uning istiqbolini belgilash haqida fikrlash;

– sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish, boshqarish, samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash bo'yicha bilim va ko'nikma berish;

– sanoat resurslari, ishlab chiqarish fondlari va quvvatlaridan bekamu ko'st, oqilona foydalanish;

– fan-texnika taraqqiyoti va innovatsiyaning iqtisodiy ahamiyati va mohiyatini anglash, sanoat mahsulotlarining sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarishning foydalilik darajasini oshira borish sanadini egallashga ko'maklashuvi bo'yicha bilim va ko'nikma berish;

– sanoat sohasidagi tashqi iqtisodiy faoliyatning mohiyati, ahamiyati va mazmunini hamda bu boradagi o'zaro hamkorlik va iqtisodiy integratsiyaning rolini tushuntirib berishdan iborat.

Ushbu fanning yana bir eng muhim vazifasi – bu sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan harajatlar tizimi, mahsulot tannarxi, narxlarning shakllanishi, foyda va rentabellik, moliyalash va kreditlash masalalari bo'yicha bilim, ilm va ko'nikmalar berishdan iborat.

Menejment – *bu inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'atida berilgan tarifga binoan u:*

– boshqaruv hokimiyati va san'ati;

– resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar.

Menejment obyekti bu:

– bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq, voqelik, moddiy dunyo, mavjudot;

– kishi faoliyati, diqqat-e'tibori qaratilgan hodisa, narsa, shaxs;

– xo'jalik yoki mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan korxona, qurilish, ayrim uchastka.

Obyekt tushunchasi mikro voqelikdan (kishi va uning faoliyatidan) tortib, to makro voqelik (moddiy dunyo, jamiyat) darajasigacha bo'lishi mumkin.

Boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning rahbarlari menejmentning subyekti, ya'ni boshqaruv organlari yoki menejerlar - boshqaruvchilar bo'lib hisoblanadi.

Menejer – bu maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini puxta egallagan malakali mutaxassisdir.

Menejerlar boshqaruv pog'onasiga binoan uch toifaga bo'linadi:

– yuqori pog'ona menejerlari;

- oʻrta pogʻona menejerlari;
- quyi pogʻona menejerlari.

Yuqori pogʻona menejerlari firma istiqbolini belgilash, uning kelajagi uchun ahamiyatli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan shugʻullanadi. Firma rejasini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi.

Oʻrta pogʻona menejerlari firma faoliyatining ayrim tomonlarini, ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, narx belgilash, moliya faoliyati, yangi tovarlarni oʻzlashtirish, texnologiyani qoʻllash, mehnatni tashkil etish kabi boshqarish bilan shugʻullanadi.

Quyi pogʻona menejerlari quyi boʻgʻinda, seh, boʻlim, brigada doirasida ishni tashkil etish, kundalik, haftalik, oylik ish topshiriqlarining bajarilishini boshqarib boradi.

Qonun – bu davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy boʻlgan, ijtimoiy huquqiy norma va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida. Masalan, Konstitutsiya Oʻzbekistonning asosiy qonunidir. Toʻqqiz yillik majburiy taʼlim haqida qonun va h.k.

Qonun – bu bajarilishi shart majburiy boʻlgan norma, qoida tusiga kirgan talab, topshiriq va shu kabilar, yaʼni jamiyatda ijtimoiy guruh va shu kabilarda qabul qilingan odat tusiga kirgan qoida, rasm, odat.

Tamoyil – mayl, moyillik, tendentsiya.

Prinsip – *soʻzi lotin tilidan olingan boʻlib*, asos, dastlabki, yaʼni hatti-harakat yoki faoliyatning asosiy qoidasi rahbar gʻoya maʼnolarini bildiradi. Prinsiplarni menejment fani va amaliyotining poydevori deyish mumkin.

Maqsad – bu muddao, murod, yaʼni u yoki bu niyatga erishmoq uchun koʻzda tutilgan mushtarak orzu. Aynan, shu maqsad kishi faoliyatini, oʻz orzularini ushalishga yoʻnaltiradi.

Oʻz-oʻzini tekshirish uchun savollar

1. «Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti» fanining obyekti va predmeti deganda nimalarni tushunasiz?
2. «Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti» fanining vazifalarini sanang.
3. Raqobatchilik korxona faoliyatiga qay tarzda taʼsir oʻtkazadi?
4. Menejment deganda nimani tushunasiz?
5. Menejerlar kim va boshqaruv pogʻonasiga qanday toifalarga boʻlinadi?

2-mavzu. KORXONA-MUSTAQIL XO'JALIK FAOLIYATINI YURITUVCHI BOZOR SUBYEKTI SIFATIDA

Korxona – ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh bo'g'ini bo'lib, unda ilmiy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy masalalari hal etiladi.

Mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish muayyan texnologik jarayonlar, mehnat qurollari materiallari, odamlarning bilimi va ko'nikmalari ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashga asoslangan holda mustaqil amalga oshiriladigan tizimga aytiladi.

Korxona faoliyatining samaradorli ishlab chiqarishni quyidagicha tashkil etish shakllariga ega:

- konsentratsiyalash, bir joyga jamlash;
- ixtisoslashtirish;
- kooperatsiyalash;
- ishlab chiqarishni murakkablashtirish kabi usullardan foydalanishga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, **korxona** bu – *huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.*

Korxona – ijtimoiy talahlarni qondiruvchi va sof foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi iqtisodiyot subyektidir.

Zamonaviy korxona-mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek davlatning o'zigagina tegishli bo'lmaydi. Shu sababli korxonalar *mulkchilik shakliga* ko'ra, davlat va nodavlat, *tarmoq belgilariga* ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va hokazolar, *ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga* ko'ra, yirik, mikrofirma va kichik, *faoliyat yuritish muddatiga* ko'ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalarga bo'linadi.

Biroq ushbu belgilardan qat'iy nazar, deyarli har bir korxona **Nizom** asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organning nomi, Nizom jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxona rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatlari, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokazolar ko'rsatilgan bo'ladi.

Korxonani turli belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin:

– ishlab - chiqarish va texnika munosabatlarida korxona – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;

– ijtimoiy munosabatlarda korxona – bu, turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar ;

– tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxona huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;

– moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxona – bu, tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Korxona o'ziga xos bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega:

birinchidan, korxona o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchligini ta'minlaydi;

ikkinchidan, korxona kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berishi xususiyatiga ega bo'ladi;

uchinchidan, korxona xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xom ashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

to'rtinchidan, korxona qonunchilikka asosan sudda davogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

beshinchidan, korxona mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

oltinchidan, korxona o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar **faoliyatining asosiy yo'nalishlari** quyidagilar hisoblanadi:

– bozor va uning rivojlanish istiqbollarini kompleks ravishda o'rganish yordamida, xaridorlarning mahsulot va xizmat turlariga mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talablarini aniqlash;

– mahsulotning yangi modellari va namunalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish;

– xaridorlar talablariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarish;

– ishlab chiqarishni rejalashtirish, dasturlash, muvofiqlashtirish va moliyalashtirish;

– mahsulotni taqsimlash va sotish tizimini tashkil qilish va uni mukammallashtirish;

– korxonaning barcha faoliyatini, jumladan, ishlab chiqarish, sotish, reklama, texnik xizmat ko'rsatish va hokazolarni boshqarish.

Biroq, yuqorida aytib o'tilganlardan qat'iy nazar, xo'jalik rivojlanishining har bir bosqichida korxonalar faoliyati quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilishi zarur:

– korxona egasining daromad olishi;

– istemolchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta'minlash;

– xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash;

– korxonaga yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari yaratish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish;

– korxona faoliyatida to'xtab qolishga yo'l qo'ymaslik;

– ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini mukammallashtirish;

– ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.

Korxonalarning eng muhim xususiyatlari ularning qaysi tarmoqqa qarashliligi; hajmi; ishlab chiqarishning turli jabhalarini qamrab olganligi; ixtisoslashtirish darajasi va bir tipdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish miqyosi; ishlab chiqarishni tashkillashtirish usuli hamda uni mehanizatsiyalash va avtomatlashtirish; tashkiliy-huquqiy shakllarini prognozlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Qaysi tarmoqqa qarashliligiga ko'ra korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko'mir qazib chiqarish, sug'urta va hokazo) sohalariga mansub bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko'rinishiga ko'ra, korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo'linadi.

Texnologik umumiyligiga ko'ra, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz va diskret ravishda, kimyoviy yoki mehanik jarayonlarning ustunligi asosida yurituvchilarga bo'linadi.

Tayyor mahsulotning maqsadluriga ko'ra, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

Foydalaniluvchi xom ashyo turiga ko'ra, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga taqsimlanadi.

Yil davomida ishlash muddatiga ko'ra, korxonalar mavsumiy va yil bo'yi faoliyat yurituvchilarga bo'linadi.

Hajmiga ko'ra, korxonalar yirik, mikrofirma va kichik korxonalarga taqsimlanadi.

Kichik korxona hisoblanadi:

- yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida 100 kishigacha ishlaydigan;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 50 kishigacha ishlaydigan;

- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida 25 kishigacha ishlaydigan korxonalar.

Ixtisoslashuv darajasiga ko'ra, korxonalar ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalarga bo'linadi. Ixtisoslashgan korxonalar qatoriga nomenklaturasi cheklangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, universal korxonalar qatoriga turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, aralash korxonalar tarkibiga esa ixtisoslashgan va universal korxonalar o'rtasidagi oraliq guruhni tashkil qiluvchi korxonalar kiritiladi.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish usullariga ko'ra, korxonalar ishlab chiqarishning oqim, partiyali va donalab ishlab chiqarish usullari ustuvor turuvchi korxonalarga bo'linishi mumkin.

Ishlab chiqarishni mehanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasiga ko'ra, korxonalar to'liq va qisman avtomatlashtirilgan yoki mehanizatsiyalashtirilgan, qo'l-mashina va faqat qo'l mehnatiga asoslangan korxonalarga bo'linadi.

Korxonalarning qonun hujjatlari va boshqa xo'jalik huquqi normalarida ko'zda tutilgan mulkchilik shakli, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va hajmi, kapitalning shakllanishi, turli xil firmalararo uyushmalarga a'zo bo'lish usullari va olib boruvchi raqobatchilik kurashlari bilan farq qiluvchi faoliyat tavsifi va mazmuniga bog'liq bo'lgan strukturaviy

uzilishining usul va ko'rinishlari **xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shaklini** ifodalaydi.

Hozirgi zamon sharoitlarida davlat, munitsipal, jamoa, individual (oilaviy, xususiy) turdagi korxonalar mavjud bo'lib, ular o'zlariga birlashtirib qo'yilgan mulk tavsifi yoki tezkor (operativ) boshqaruv huquqiga ko'ra ham tasniflanadi.

Konsern umumiy manfaatlarga ega hamda shartnomalar, kapital va qo'shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarning yirik birlashuvini aks ettiradi.

Konsorsium kompaniya va banklarning vaqtinchalik birlashuvi natijasida, yirik kapital talab qiluvchi loyihalarni amalga oshirish yoki mablag'ni birgalikda joylashtirish maqsadlari uchun umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladi. Konsorsium buyurtmachilar oldidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanadi.

Xo'jalik assotsiatsiyasi jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o'zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko'ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi subyektlar o'z mustaqilligini saqlab qoladilar.

Korporatsiyalar umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy subyekt – huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig'indisini tavsiflaydi. Ko'pincha ular aksiyadorlik (hissadorlik) jamiyatlari shaklida tashkil qilinadi.

Korxonalarning konsentratsiya asosida birlashuvi kartel, sindikat, xolding va moliya-sanoat guruhlarida ko'rinishida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi **kartellar** ishlab chiqarish masalalari, narxlar, tovarlarni sotish, ishchi kuchini yollash va shu kabi masalalar bo'yicha kelishuvga asoslanib faoliyat yuritadi.

Integratsiyaning bu shaklida korxonalar mustaqillikni saqlab qolgan holda kooperatsiya asosida birlashadilar.

Sindikat – tijorat faoliyatini (ta'minot, sotish, narxning paydo bo'lishi) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan birlashmadir. Sindikat tarkibiga kiruvchi korxonalar huquqiy hamda xo'jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladilar.

Trestlar yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo'qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

Xoldinglar ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vaizifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shaklini ifodalaydi.

Korxonani tashkil qilish tamoyillari

Yangi korxonani tashkil qilish quyidagi tashkiliy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- korxonani tashkil qilish fikrining paydo bo'lishi;
- korxona ta'sischilarini tanlash;
- taklif qilinayotgan mahsulotga bozordagi talabni o'rganish;
- korxona nizom jamg'armasini tuzish uchun moliya manbalarini aniqlash;

- korxonaning ta'sis hujjatlari va biznes-rejasini tayyorlash;
- davlat ro'yxatidan o'tish;
- muxr, shtamp va boshqa rekvizitlarni tayyorlash;
- soliq idoralarida ro'yxatdan o'tish.

Yangi korxona tashkil qilishdan asosan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- iste'molchilar talab qilayotgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni sotishdan foyda olish;

– ishlab chiqarishga ish bilan band bo'lmagan aholini jalb qilish va shu orqali ish bilan ta'minlashdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish;

- ishlab chiqarishga mavjud qo'shimcha resurslarni jalb qilish;
- fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;

– yakka tarzda yoki hamkorlikda faoliyat yuritish uchun kichik korxona tashkil qiluvchi aloxida fuqarolar yoki shaxslar guruhi azolarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish;

- ishlab chiqarishni mustahkamlash va rivojlantirish hamda bozor muhitini kengaytirish.

Tahsis hujjatlarini tayyorlash korxonani tashkil etish va keyingi faoliyat yuritish jarayonidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ta'sis hujjatlari faoliyat yurituvchi korxonalarning huquq va majburiyatlarini hamda sharoitlarini ifodalaydi.

Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil ta'sis hujjatlari belgilab berilgan:

1. Korxona nizomi;
2. Ta'sis shartnomasi.

Korxonalar to'g'risida"gi qonunga asosan quyidagilar korxona mulkini shakllantirishning manbalari hisoblanadi:

- ta'sischilarning pul va moddiy ko'rinishdagi badallari;

– mahsulot sotishdan va boshqa turdagi faoliyatdan olingan daromadlar;

– qimmatbaho qog‘ozlardan olingan daromadlar;

– banklar va boshqa kreditorlardan olingan kreditlar;

– byudjetdan olinuvchi mablag‘lar (dotatsiya), kapital qo‘yilmalar;

– korxona, tashkilot va fuqarolarning beg‘araz va hayriya badallari, shuningdek,

– almashish, meros va sovg‘a tariqasida olinuvchi mulk;

– qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Huquqiy shaxslar birlashmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun quyidagi 5 ta hujjat talab etiladi:

– davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida ariza va belgilangan shaklda to‘ldirilgan ro‘yxatga olish kartasi;

– birlashma nizomi va ta‘sis shartnomasini tasdiqlash to‘g‘risidagi ta‘sis yig‘ilishi (konferensiyasi) bayonnomasi;

– birlashma nizomi va ta‘sis shartnomasining notarial tasdiqlangan nusxasi;

– birlashma pochta manzilini tasdiqlovchi hujjat;

– ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imi to‘langanligini tasdiqlovchi bank to‘lov hujjati.

Korxonani tugatish va qayta tashkil etish (birlashtirish, bo‘shish, bo‘lib yuborish, ajratish, qaytadan tuzish), korxona mol-mulki egasining yoki shunday korxonalarni tuzishga vakolatli bo‘lgan idoralar qaroriga binoan, yoxud sud yoki xo‘jalik sudining qaroriga binoan amalga oshiriladi. Singan korxonalarni tugatish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.


1. Korxona olti oy mobaynida moliyaviy - xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmagan da tugatiladi va soliq organlari taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining Adliya Vazirligi hamda joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar ro‘yxatidan chiqariladi.

2. Korxonani qayta tashkil etish va tugatish chog‘ida ishdan bo‘shatilayotgan xodimlarga O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ularning huquqlari va manfa‘tlariga rioya etilishiga kafolat beriladi.

3. Korxona davlat ro‘yxati reestridan chiqarib yuborilgan paytdan boshlab qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan hisoblanadi.

4. Korxona boshqa korxona bilan qo‘shilgan taqdirda mazkur korxonalarning har biriga taalluqli barcha mulkiy huquqlar va majburiyatlar

qo'shilishi natijasida vujudga kelgan korxonaga o'tadi. Bir korxonaning boshqa bir korxonaga bo'shilishi chog'ida uning barcha mulkiy huquqlari va majburiyatlari qo'shib olgan korxonaga o'tadi.



2.1 - rasm. Bankrot korxonaga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlar o'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

5. Korxona bo'lib yuborilgan taqdirda qaytadan tashkil etilgan korxonaning mulkiy huquqlari va majburiyatlari ana shu bo'lib yuborish natijasida vujudga kelgan yangi korxonalarga bo'lib yuborish hujjatlari (balansi)ga muvofiq tegishli qismlarda o'tadi. Korxonadan bitta yoki bir nechta yangi korxonani ajratib chiqarish chog'ida qaytadan tashkil etilgan korxonaning mulkiy huquqlari, majburiyatlari bo'lib yuborish hujjati (balansi)ga muvofiq tegishli qismlarda ularning har biriga o'tadi.

6. Bir korxonani boshqa korxona qilib o'zgartirish chog'ida avvalgi korxonaning barcha mulkiy huquqlari va majburiyatlari qaytadan tashkil etilgan korxonaga o'tadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Yangi korxonani tashkil qilish tamoyillari.
2. Korxonani tashkil qilishdan bo'zlangan maqsad nima ?
3. Korxona faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarning qanday turlarini bilasiz ?
4. Korxona mulki nimalar hisobiga shakllanadi?
5. Korxonani yagona davlat reestridan o'tkazish uchun qanday hujjatlar talab qilinadi?

6. Korxona faoliyatini tugatish yoki qayta tashkil qilish deganda nimanı tushunasiz?

7. Korxonani tugatish sabablari qaysilar?

8. Sanoat korxonalariga xos bo'lgan belgilar.

9. Sanoat korxonalarining vazifalari va bajaradigan ishlari.

10. O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi qonuni va uning mazmuni.

11. Korxonaning davlat ro'yxatidan o'tish uchun qanday hujjatlar talab qilinadi?

12. Sanoat korxonalarining tasnifi.

13. Korxonalarni tavsiflashda ishlatiluvchi mezonlar.

14. Korxonalarning umumiy va ishlab chiqarish tuzilmasi tushunchalari.

15. Korxona tuzilmasini belgilab beruvchi omillar.

16. Korxona tuzilmasini mukammallashtirish yo'llari.

3-mavzu. SANOAT KORXONALARINING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQARISH QUUVATLARI

Mehnat vositalari – inson mehnat buyumlariga ta'sir qiladigan va ularni o'zgartiradigan moddiy vositalar majmui. Ishlab chiqarish jarayonida inson moddiy boylik yaratish maqsadida ta'sir qiladigan barcha narsalar mehnat buyumlaridir.

Mehnat vositalari – asosiy fondlarni, mehnat buyumlari esa aylanma fondlarni tashkil etadi.

Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb, ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar amortizatsiya ajratmalari deb ataladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda korxonaning ishlab chiqarish apparati deb ataladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan vazifasiga qarab aktiv va passiv fondlarga bo'linadi. Sust fondlar ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi, lekin ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim vazifani bajaradi, mehnatkashlarning mehnat qilishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beradi (binolar, inshootlar, jihozlar va h.k.).

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxona asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, o'z qiymatini

tayyor mahsulotga o'tkazmaydi. Bularga korxona balansida turuvchi turar joy, oshxona, profilaktoriy, klub, bolalar bog'chasi va yashilar, sport-sog'lomlashtirish markazlari va h.k. kiradi.

Asosiy va aylanma fondlarning sifat ta'rifi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Asosiy va aylanma fondlarning sifat ta'rifi

1- jadval

Farglovchi belgilar	Asosiy fondlar	Aylanma fondlar
1. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashish turi	Mehnat vositasi sifatida	Mehnat buyumlari sifatida
2. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashish xususiyati	Ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta qatnashadi	Ishlab chiqarishning har bir yangi siklida to'la iste'mol qilinadi (bir marta qatnashadi)
3. Tayyor mahsulotga qiymatini o'tkazish usuli	Tayyor mahsulotga butun xizmat muddati davomida yemirilgan qiymatini ayrim qismlarga bo'lib o'tkazadi	Tayyor mahsulotga o'z qiymatini to'la va bir yo'la o'tkazadi
4. Natural shaklining o'zgarishi	Xizmat muddatining oxirigacha o'z natural shaklini saqlab qoladi	Natural shaklini saqlab qolmaydi. O'zining jismoniy shaklini, ko'pincha moddiy tarkibini ham bir yo'la o'zgartiradi

Iqtisodiy maqsadlariga ko'ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlariga quyidagilar kiradi:

– ishlab chiqarish binolari (sehlarning ishlab chiqarish korpuslari, depolar, garajlar, omborxonalar, ishlab chiqarish xonalari va laboratoriyalar);

– inshootlar (nasos stansiyalar, tunnellar, ko'priklar va h.k.);

– har xil energiya, suyuq va gazsimon moddalar uzatadigan uzatuvchi uskunalar;

– mashinalar va asbob-uskunalar (energiyani, suyuq va gazsimon moddalarni ishlash va almashtirishga mo'ljallangan kuch mashinalari, generatorlar va gazogeneratorlar, elektrogeneratorlar, bug' qozonlari, havo kompressorlari);

– ishchi mashinalar va uskunalar (dastgohlar, presslar, konveyerlar va boshqa turli yordamchi asbob-uskunalar);

– o'lov va tartibga soluvchi asboblari (laboratoriya asboblari, hisoblash mashinalari, kompyuterlar);

– transport vositalari;

– foydalanish muddati bir yildan kam bo'lmagan va qonunchilikda belgilab qo'yilgan qiymatlardagi asbob va ishlab chiqarish inventarlari.

Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlari aktiv qismi ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo'ladi.

Asosiy fondlarni baholashning quyidagi usullari mavjud:

– boshlang'ich qiymatga

– asosiy vositalarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar, yetkazib berish, o'rnatish kabi pul xarajatlarning jami kiradi.

Dastlabki baho asosiy fondlarning foydalanishga topshirgan paytda hisobga olingan dastlabki muvozanat narxini ko'rsatadi. Misol. Generator 15000000 so'm ga sotib olindi. Uni korxonaga yetkazib berish uchun 100000 so'm, o'rnatish uchun 200000 so'm sarflandi. Generatorlarning dastlabki to'la narxi – 15300000 so'm ga teng.

$$15000000 + 100000 + 200000 = 15300000 \text{ so'm}$$

Tiklangan qiymati – asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini (binolar, qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish uskunolari) hozirgi paytdagi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash. Baholashning bu usuli obyektning bugungi kunda qancha turishini ko'rsatadi. Misol: Transformator 2015 - yilda 300000 so'm ga sotib olingan, xuddi shunday transformator 2017 - yil yanvar oyida 270000 so'm ga sotib olindi. Ikkita transformator muvozanat qiymati 570000 so'm ni tashkil qiladi. 2017 - yil yanvar oyida ikkala transformator tiklangan narxi 540000 so'm, chunki shu transformatorning bahosi 270000 so'm ni tashkil qilgan edi. Bu baho asosiy fondlarning ma'naviy eskirganligini va yeyilganligini hisobga olmaydi.

Qoldiq qiymat – asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farqdir.

Misol: Transformatorning narxi 500000 so'm, ishlash davri 8 yil u 5 yil ishlab chiqarishda bo'lgan.

Transformatorning qoldiq qiymati – 187500 so'm ni tashkil qiladi. Transformatorning amortizatsiya ajratmasi $500000/8 = 62500$ so'm. 5 yil davomida 31250 so'm lik qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazgan

$62500 \cdot 5 = 312500$ so'm. Qoldiq qiymat $500000 - 312500 = 187500$ so'm.

Asosiy vositalarning korxona balans va hisobotlarida aks ettiriluvchi, hisobga olish qiymati balans qiymati deb ataladi. Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalar balans qiymatidan eskirish summasini ayirib topish mumkin. Asosiy fondlarning tugatilish qiymati bu – ishlab chiqarishdan chiqarilgan (tugatilgan, yo'q qilingan, lom) qiymatidir. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati hisoblanadi.

$$F_{or} = F_{y.b} + \frac{F_k \cdot n_1 - F_{ch} \cdot n_2}{12}$$

Bu yerda:

F_{or} – asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati;

$F_{y.b}$ – asosiy fondlarning yil boshiga qiymati (balans);

F_k – kiritilgan asosiy fondlar qiymati;

F_{ch} – fondlarning tugatilish, ishlab chiqarishdan chiqarilish qiymati;

n_1 – ishlab chiqarishga kiritilgan asosiy fondlarni kiritilgandan boshlab foydalanilgan oylar soni;

n_2 – ishlab chiqarishdan chiqarilgan asosiy fondlarni chiqarilgandan oydan boshlab foydalanilmagan oylar soni.

Asosiy fondlar jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Jismoniy (moddiy) eskirish – asosiy fondlarning birlamchi hislatlarini ishlab chiqarishda qatnashishi natijasida yo'qotishi va tabiiy eskirishida yuzaga keladi.

Ma'naviy eskirish – asosiy fondlarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo'qotishidir. Ma'naviy eskirish 2 xil ko'rinishga ega:

-asosiy fondlar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlanadi;

-asosiy fondlar fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida yanada samaraliroq fondlarning paydo bo'lishi natijasida qadrsizlanadi.

Asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish, ya'ni jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlarning o'rnini iqtisodiy to'ldirish uchun korxona bu vositalar qiymatidan amortizatsion ajratmalarni ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar keyinchalik xarajatlar sifatida mahsulot tan-narxiga kiritiladi.

$$N_{aj} = \frac{F_k - F_{y.b}}{T_{aj} \cdot F_k} \cdot 100$$

Bu yerda:

N_a – to'liq qayta tiklash uchun yillik amortizatsiya me'yori, %;

F_b – asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati, so'm;

T_a – asosiy fondlarning me'yoriy xizmat vaqti, yil.

Yillik amortizatsiya ajratmalari (A_a) miqdori quyidagicha aniqlanadi.

$$A_a = \frac{F_a + F_b + M - F_k}{T_a}$$

Bu yerda:

T_k – xizmat muddati davomida kapital tamirlashga sarflangan xarajatlar;

M – modernizatsiya qilishga sarflangan xarajatlar.

Amortizatsiya mablag'lari asosiy fondlarni to'liq qayta tiklash (renovatsiya), kapital ta'mirlash va uskunalarni modernizatsiya qilish uchun alohida ravishda yo'naltiriladi. Shu sababli, amortizatsiya me'yori ikki qismdan - fondlarni renovatsiya qilish (N_{rt}) hamda kapital tamirlash va modernizatsiya qilish (N_{kt}) dan iborat.

Birinci holda:

$$N_{rt} = \frac{F_k - F_{rtb}}{T_a \cdot F_b} \cdot 100\%$$

Bu yerda:

T_b – asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qilish vaqti, yil.

Ikkinchi holda:

$$N_{kt} = \frac{T_k + M}{T_b \cdot F_b} \cdot 100\%$$

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli ularning ish qobiliyatini tamirlash orqali tiklash zaruriyati tug'iladi. Asosiy fondlarni tamirlash kapital, o'rta va joriy turlarga bo'linadi. Bino va inshootlarni ta'mirlash o'z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag'lariga ko'ra mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi.

Mashina va uskunalarni kapital tamirlashda ular to'liq qismlarga bo'linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi.

Uskunalarni ikki marta kapital ta'mirlash orasidagi muddat tamirlash sikli deb ataladi. Mashina va uskunalar maxsus zavodlarda ta'mirlanadi.

O'rtacha ta'mirlash - texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyligiga ko'ra kapital ta'mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag', vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab qiladi. Bu jarayon korxonaning o'zida amalga oshiriladi.

Joriy ta'mirlashda, asosan, asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, ya'ni uskunalarining foydalanishga doimiy tayyorligi ta'minlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning ikki guruhi mavjud:

Birinchi guruh - umumlashtiruvchi va qiymat ko'rsatkichlari bo'lib, ular asosiy fondlarning turli guruhlarini dinamika va statikada baholash, tahlil qilish, zahiralarini aniqlash va bashorat qilish imkonini beradi. Bunday ko'rsatkichlarga fond sig'imi, fond qaytimi, fond rentabelligi va boshqalar kiradi.

Ikkinchi guruh - xususiy va natural ko'rsatkichlar bo'lib, ko'proq, asosiy ishlab chiqarish fondlarining faol qismi - ishchilar, mashina va asbob-uskunalaridan foydalanish bilan bog'liq.

Ko'rsatkichlarning bu guruhi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar)dan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti, ulardan vaqt bo'yicha foydalanish darajasi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar)dan intensiv foydalanish koeffitsiyenti, ulardan quvvat bo'yicha foydalanish darajasi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish koeffitsiyenti, barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanish.

Ekstensiv koeffitsiyent-dastgohlarning bir davr ichida (oy, yil) haqiqiy ishlagan vaqtining rejalashtirilgan vaqtga nisbati bilan aniqlanadi.

$$K_{ek} = \frac{t_{haq}}{t_{rej}}$$

Bu yerda:

t_{haq} – haqiqiy foydalanilgan vaqt; soat

t_{rej} – rejaga asosan foydalanish muddati; soat

Asbob-uskunalarining ekstensiv ko'rsatkichini yaxshilash uchun ularning smenali koeffitsiyentini oshirish, smenalar orasida bekor turib qolishlarga barham berish, dastgohlarni tamirlash vaqtini qisqartirish, mehnat intizomini mustahkamlash va boshqa tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Uskunalarining smenalik koeffitsiyenti - sutka davomida mashina-smenalarning o'rnatilgan uskunalar umumiy soni yoki ishchi o'rinlariga nisbatidir. U quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{sm} = \frac{MS}{A_n}$$

Bu yerda:

M_{Σ} – sutka davomida haqiqiy ishlagan mashina-smenalar yig'indisi;

A_{Σ} – o'rnatilgan asbob-uskunalarining umumiy soni.

Uskunalarining smenalilik ko'effitsiyentini aniqlashning yana bir yo'li bo'lib, unga ko'ra korxonalarning bir emas, ikki yoki uch smenada ishlashi va bunda uskunalarining barchasidan ham to'liq foydalanilmasligi ko'zda tutiladi. Masalan: t sehda 300 dona uskuna o'rnatilgan bo'lib, birinchi smenada 270 tasi, ikkinchi smenada esa 220 tasi ishlagan. Uskunalarining smenali ko'effitsiyenti $1,63 (270+220) / (300)$ ni tashkil qiladi.

Intensiv ko'effitsiyent – ma'lum bir vaqt ichida haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini bildiradi. U haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatini rejalashtirilgan mahsulot qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$K_{\text{int}} = \frac{ICH_{\text{haq}}}{ICH_{\text{rej}}}$$

Bu yerda:

ICH_{haq} – haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori;

ICH_{rej} – mahsulot ishlab chiqarish rejasi.

Dastgohlardan integral foylalanish ko'effitsiyenti uskunadan intensiv va ekstensiv foydalanish ko'effitsiyentlarining ko'paytmasi orqaliq aniqlanib, uning vaqt va quvvat bo'yicha band bo'lishini majmuaviy tavsiflaydi.

$$K_{\text{integr}} = K_{\text{ekst}} \cdot K_{\text{int}}$$

Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- smena davomida uskunalar bekor turib qolishini qisqartirish va uning oldini olish;
- uskunalarining smenalik ko'effitsiyentini oshirish;
- bekor turuvchi uskunalarni qisqartirish va tugatish;
- ta'mirlash va profilaktika tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli ravishda amalga oshirish;
- uskunalarni ekspluatatsiya qiluvchi xodimlar malakasini oshirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va resurslar bilan ta'minlashni yaxshilash.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilaydi.

Ishlab chiqarish quvvati ma'lum bir vaqt davomida ilg'or texnologiyalardan foydalanib, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarning darajasidir.

Ishlab chiqarish quvvati ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda xizmat ko'rsatish doirasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ishlab chiqarish quvvati sifatli mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha salohiyat imkoniyatlarini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish quvvati bir qator omillarga bog'liq:

- ishlab chiqarish dasturining mehnat sig'imiga;
- xo'jalik subyektining ish vaqtiga;
- asbob-uskunalarining ishlash vaqtiga;
- mahsulot ishlab chiqarilayotgan xom-ashyo va materiallar tarkibi va sifatiga;
- ishlatilayotgan texnika va texnologiyalarning darajasiga;
- ishchilarning malakasiga.

Ishlab chiqarish quvvatining ko'rsatkichlari uzoq muddatli strategiya ishlab chiqishda muhim hisoblanadi. Quvvatning loyiha, kiruvchi, chiquvchi va o'rtacha yillik turlari mavjud. Loyiha quvvati qurilish loyihasida ko'zda tutilgan bo'ladi. Qayta tiklash, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish natijasida loyiha quvvati kattalashtirilishi mumkin.

Kiruvchi quvvat - bu rejalashtirilgan davr boshidagi quvvat, buxgalteriya hisob-kitoblari asosida aniqlanadi.

Chiqish quvvati - bu hisobot davri ohiridagi quvvat. U hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

$$M_{ox} = M_b + M_{ya} - M_{ch}$$

Bu yerda:

M_{ox} – ohirgi hisobotga asoslangan quvvat;

M_b – boshlang'ich quvvat;

M_{ya} – yangi kurilish (kengaytirish, ta'mirlash) natijasidagi quvvat;

M_{ch} – ekspluatatsiyadan chiqqan quvvat.

O'rtacha yillik quvvat - o'rta arifmetik hisob-kitobga tayangan, yil davomida ishga tushirilgan yoki to'xtatilayotgan quvvatdir. Yil davomida korxona ega bo'lgan o'rtacha quvvat, bir yillik o'rtacha quvvat deyiladi va u quyidagicha topiladi.

$$M_{oy} = M_b + \frac{M_k \cdot n_k + M_{ch} \cdot n_{ch}}{12}$$

Bu yerda:

M_b – yil boshidagi quvvat;

M_k – yil mobaynida kiritilgan quvvat;

M_{ch} – yil mobaynida ishlab chiqarishdan chiqarilgan quvvat;

n – ekspluatatsiya vaqtidagi oylar soni;

n – ekspluatatsiyadan chiqqan muddatdan hisob-kitob muddatigacha bo'lgan oylar soni. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish fondlari hozirgi vaqtdagi holatini tahlil etish.

Asosiy vosita - bu ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, ular mehnat vositalariga to'liq kiritilgan bo'ladi. Uzoq muddat mobaynida natural shaklini saqlab qoladi, qiymatini qisman mahsulot qiymatiga o'tkazib boradi va faqat bir qancha ishlab chiqarish jarayonidan keyingina qoplanadi.

Asosiy vositalarning umumini o'rganish asosida mahsulot ishlab chiqarishda ularning samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlarining omilli tahlili asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini yoki fondlar samarasini oshirish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi o'rganiladi va tahlil yakunida korxonada asosiy fondlardan foydalanishga va ularning samaradorligini oshirish yuzasidan muhim iqtisodiy yo'nalishlar belgilanadi. Korxona asosiy vositalari, ularning holati, harakati va samarasiga iqtisodiy tashxis beriladi.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar asosiy vositalar harakati to'g'risidagi 3-moliyaviy hisobot shaklidan va moliyaviy hisobotga ilova sifatida berilgan manbalardan olinadi. Shuningdek, asosiy vositalar (01), ularning eskirishi (02), nomoddiy aktivlar (04), nomoddiy aktivlar eskirish (05), uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar (03) schyotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Asosiy vositalarning tasnifi:

1. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga asosan: aktiv asosiy vositalar; passiv asosiy vositalar;

2. Tarmoq bo'ysunuviga qarab: sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari; boshqa tarmoq asosiy vositalari; noishlab chiqarish asosiy vositalari;

3. Foydalanishga qarab: foydalanishdagi asosiy vositalar; foydalanishdan olib qo'yilgan asosiy vositalar.

4. Turi bo'yicha; binolar, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, transport vositalari, asbob-uskunalar, xo'jalik inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik ekinlar va boshqa asosiy vositalar.

5. Mulkiy egaligiga qarab; o'ziga tegishli asosiy vositalar, ijaraga olingan asosiy vositalar.

Asosiy vositalarning dinamikasi deganda ularning yillar bo'yicha o'zgarishlari tushuniladi.

Dinamik o'zgarishlar asosida korxonada asosiy vositalarning yillar bo'yicha mutloq va nisbiy o'zgarishlariga **baho** beriladi.

Quyidagi 2-jadval ma'lumotlari asosida asosiy vositalarning tarkibiy o'zgarishlariga baho berish mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish vositalari tarkibining tahlili

2-jadval

Ko'rsatkichlari	Yil boshiga		Yil oxiriga		Yil boshiga nisbatan uzgarishi	
	Mln. so'm	%	Mln. so'm	%	Mln. so'm	%
1	2	3	4	5	6	7
1.Binolar	227	33	217	31	-	95
2.Inshootlar	195	2	1950	2	-	-
3.Uzatkich jihozlar	287	4	287	4	-	-
4.Mashina	354	52	383	55	+284	108
5.Transport	4401	6,5	4730	6,8	+329	107,4
6.Inventarlar	483	0	404	0	-79	83
Jami asosiy ishlab chiqarish fondlari	67937	100	69991	100	+2054	+103

Keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, firmada jami asosiy vositalar 71 mln. 49 ming so'm ni tashkil qilgan. Yil boshiga nisbatan 1 mln. 567 ming so'm ga yoki 2,2% ga o'sgan. Sanoat asosiy ishlab chiqarish vositalarining salmog'i esa 3% ga yoki 2 mln. 054 ming so'm ga ko'paygan, boshqa tarmoqlarning asosiy ishlab chiqarish fondlari esa 487 ming so'm ga kamaygan. Noishlab chiqarish fondlari umuman o'zgarmagan. Korxonada boshqa tarmoqlarning asosiy ishlab chiqarish fondlari kamayishi korxonada ish sharoitining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Asosiy vositalarning barcha turlarini kerakli nisbatda va tarkibda bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Korxonada jami sanoat ishlab chiqarish fondlari yil oxirida, yil boshiga nisbatan 2 mln. 054 ming so'm ga yoki 103%ga ko'paygan.

Shundan mashina va uskunalar 2 mln. 848 ming so'm ga ko'paygan. Binolar esa **hisobot** yilining boshiga nisbatan 1 mln. 044 ming so'm ga, inventarlar 79 ming so'm ga kamaygan. Inshootlar va uzatkich jihozlar umuman o'zgarmagan. Asosiy **fondlar** aktiv qismining salmog'i 52,2% dan yil oxiriga **kelib, bu** ko'rsatkich 55% ni ko'rsatgan.

Qanday maqsadga mo'ljallanganidan **qat'iy** nazar asosiy vositalar ishlab chiqarish va asosiy noishlab chiqarish vositalariga bo'linadi. Asosiy ishlab chiqarish vositalariga ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadigan (mashinalar, dastgohlar, qo'rilmalar va h.k.) yoki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadigan (ishlab chiqarish binolari, uzoq, masofaga tortilgan quvurlar va h.k.) vositalar kiradi. Asosiy noishlab chiqarish vositalari maishiy, xizmat obyektlari, tibbiy muassasalar va h.k.

Hisob va rejalashtirish uchun asosiy vositalar turli xizmat muddati va ishlab chiqarishda qanday maqsadga mo'ljallanganligiga ko'ra guruhlariga bo'linadi.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlariga qarab asosiy vositalar sanoat, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, qurilish, transport, savdo va boshqa sohalarning asosiy ishlab chiqarish vositalariga bo'linadi.

Asosiy vositalar o'z turlariga ko'ra hozirda quyidagi guruhlariga ajratilgan:

1. Binolar. Asosiy, yordamchi jarayonlar o'tadigan bino; ma'muriy binolar; xo'jalik qurilmalari. Bu obyektlarning qiymatiga qurilish qiymatidan tashqari, isitish, suv, elektr sistemalari va ventilyatsiya qurilmalari qiymati va boshqalar kiradi.

2. Inshootlar. Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiruvchi muhandislik-qurilish obyektlari: yo'llar, estakada, tunnel, ko'priklar va boshqalar.

3. Uzatish xo'jaliklari. Turli energiya mashina-dvigatellaridan ish mashinalariga uzatib beruvchi **issiqlik** tarmog'i, bug' yo'llari, suv yo'llari va elektr tarmoqlari.

4. Mashina va jihozlar:

- hamma turdagi energetik agregatlar va dvigatellarni o'z ichiga oluvchi kuch mashinalari va jihozlari;

- mehnat predmeti bevosita ta'sir etuvchi ishchi mashina va jihozlar;

- o'lchovchi va tartibga soluvchi, boshqaruvchi priborlar va qurilmalar, laboratoriya jihozlari;

- hisoblash texnikasi: elektron hisoblash-texnikasi, ishlab chiqarish va texnologik jarayonni boshqaruvchi mashina va qurilmalar.

- keltirilgan ro'yxatda ko'rsatilmagan boshqa mashina va jihozlar.

5. Transport vositalari. Korxonaga tegishli bo'lgan temir yo'l tarkibi,

suv va avtomobil transporti vositalari: avtokranlar, aravacha va boshqalar.

6. Asbob va uskunalar. Hamma turdagi asboblilar.

7. Ishlab chiqarish inventarlari. Materiallarni, asbob-uskunalarni saqlash uchun mo'ljallangan verstaklar, stollar, konteynerlar va boshqalar.

8. Xo'jalik inventarlari. Idora va xo'jalik predmetlari (mebel yoki shkaflar, ko'paytirish apparatlari, yong'inga qarshi predmetlar va boshqalar).

9. Ishchi va mahsulot beruvchi jonivorlar.

10. Ko'p yillik o'simliklar.

11. Yerni yaxshilashga mo'ljallangan kapital xarajatlar (qurilmalarsiz).

Asosiy vositalarning tarkibiy tuzilishi va o'sishining tahlili

3-jadval

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		Yil boshiga nisbatan o'zgarish	
	mln so'm	%	mln so'm	%	mln so'm	%
1. Sanoat asosiy ishlab chiqarish vositalari	67937	97,7	69991	98,5	+2054	103
2. Boshqa tarmoqlarning asosiy ishlab chiqarish vositalari	1536	2,2	1049	1,5	-487	68,3
3. Noishlab chiqarish vositalari	9	0,01	9	0,01		
Jami asosiy vositalar	69482	100	71049	100	1567	102,2

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi formula yordamida taqqoslang:

$$I_{zn(mch)} = \frac{I_{zn2} - I_{zd1}}{I_{zd2}} * 100\%$$

Bu yerda,

I_{zd1} - amaldagi asosiy vositalarning ishlab chiqarish xarajatlari (so'm);

I_{zd2} - Yangi asosiy ishlab chiqarish xarajatlari (so'm).

Asosiy vositalar amortizatsiyasi

«Amortizatsiya» atamasi umuman olganda asosiy vositalarning eskirishini qoplanishini, tiklanishini bildiradi.

Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning eskirishini pul mablag'larini jamg'arish orqali qoplash amortizatsiya deyiladi. Binobarin, **amortizatsiya fondi** – eskirishni (yeyilishni) qoplash uchun mo'ljallangan pul fondidir. U amortizatsiyaga ajratilgan mablag'lar hisobidan tarkib topadi. **Amortizatsiya** - mehnat vositalarining eskirishini qisman qoplash uchun mablag' ajratishdir.

Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalar yemiriladi, eskiradi, asta-sekinlik bilan o'zining texnik xususiyatini, iste'mol qiymatini yo'qotib boradi, ularning qiymati esa ishlab chiqarilayotgan tovarga o'tkazilib boriladi.

Mashina, uskuna, asboblar yeyiladi, arzonlashadi. Asosiy vositalar qiymatining eskirish summasi amortizatsiya fondiga borib tushadi.

Amortizatsiya fondidan vositalarning ma'lum qismini kapital ta'mirlash davomida ularni qisman tiklash maqsadida foydalaniladi. Bu sharoitda yo'qotilgan qiymatni qisman qoplash sodir bo'ladi. Asosiy vositalarning xizmat muddati tugagandan keyin ular butunlay eskiradi, istemol qiymatini yo'qotadi, jamg'arilgan amortizatsiya fondi yangi Mehnat vositalarini sotib olish imkonini beradi.

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida asosiy vositalar ma'naviy jihatdan juda tez eskiradi, jismoniy eskirishi bilan, iste'mol qiymatini yo'qotib boradi.

Binobarin, har bir xo'jalikda amortizatsiya fondi ajratiladi. Aytib o'tilganidek, asosiy vositalar o'z qiymatini tayyorlangan mahsulotga o'z-o'z o'tkazib boradi.

Mahsulot sotilganidan so'ng bu qiymat xo'jalikka pul shaklida qaytadi va amortizatsiya uchun o'tkaziladi. Bu mablag'lar kapital remont va eskirgan asosiy vositalarni to'la tiklash uchun sarflanadi. Har yillik amortizatsiya ajratmalarining miqdoridan amortizatsiya me'yorlariga binoan asosiy vositalarning balans qiymatidan foizlar ajratiladi.

Asosiy vositalarning eskirishi qanchalik ko'p bo'lsa, ularning qoldiq qiymati shunchalik kam bo'ladi va aksincha, asosiy vositalarning eskirish summasiga qarab korxonadagi mavjud asosiy vositalarning yangi yoki eskiligiga baho berish mumkin.

Eskirish summasini hisoblashni aniqlashtirish uchun yillik amortizatsiya summasi asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan foiz hisobida aniqlab olinadi. Buning uchun yillik amortizatsiya summasini

asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga bo'lib, yuzga ko'paytirish kerak. Shu yo'l bilan topilgan raqam asosiy vositalarning amortizatsiya me'yori deyiladi. Asosiy vositalarni to'la tiklash va kapital tamirlash uchun alohida amortizatsiya me'yorlari belgilanadi.

Har oyda ishlab chiqarish xarajatlari o'tkazib turiladigan oylik amortizatsiya summasi yillik amortizatsiya summasini o'n ikki oyga bo'lish yo'li bilan topiladi. Amortizatsiya ajratmalari har oyda oldingi oy uchun hisoblangan amortizatsiya ajratmalari miqdorida belgilanadi.

Asosiy vositalar o'z balans qiymatini ishlab chiqarish va muomala xarajatlari to'liq o'tkazmasdan hisobdan chiqariladigan bo'lsa, farqi korxona tasarrufida qolgan foyda hisobidan qoplanadi. Amortizatsiya fondining ajratmalari mahsulot sotishdan tushgan pul mablag'i tarkibida xo'jalikning hisob-kitob raqamiga tushadi. Bu mablag'lar faqat kapital xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash uchun sarflanadi. To'la tiklash uchun ajratiladigan asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiritiladi:

- asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi;
- asosiy vositalarning eskirish darajasi;
- yaroqlilik darajasi asosiy vositalarning qoldiq qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali;
- eskirish darajasi asosiy vositalarning eskirish qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga qarab, ularning texnikasiga baho beriladi va ularni tartiblash bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Asosiy vositalarning holatini o'rganishda korxona amortizatsiya siyosati, asosiy vositalarning ma'naviy eskirganlik darajasiga, foydalanishdan olib qo'yilgan asosiy vosita holatiga muhim e'tibor qaratiladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning har bir turi bo'yicha o'rganiladi.

Asosiy vositalarning texnik holati yangilanganlik ko'rsatkichlarini o'rganish bilan to'ldiriladi.

Korxonada jami asosiy vositalarning yangilanish darajasi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 1% ga (7,6-6,6) o'sgan.

Sanoatda asosiy ishlab chiqarish vositalarining yangilanish darajasi esa hisobot yilida 6,9%ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2,3% ga (6,9-4,6) o'sgan. Korxonada jami asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymati o'tgan yilda 69 mln. 482 ming so'm ni tashkil etib, bu ko'rsatkich hisobot yilida 1 mln. 567 ming so'm ga ko'paygan.

Asosiy vositalar yangilanish darajasining tahlili

4-jadval

Ko'rsatkichlar	Foydalanishga topshirilgan asosiy vositalar	Jami vositalarning yil qiymati	Asosiy vositalarning yangilanish darajasi
O'tgan yil:			
Jami asosiy vositalar	4620	69482	6,6
Sanoat asosiy ishlab chiqarish vositalari	3156	67937	4,6
Hisobot yili:			
Jami asosiy vositalar	5440	71049	7,6
Sanoat asosiy ishlab chiqarish vositalari	4869	69991	6,9

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi hisobot yilining boshida 44,3% ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yil oxiriga kelib, 37,3 % ni ko'rsatgan. Ya'ni 7% ga pasaygan. Bu ko'rsatkichning past bo'lishiga uning tarkibida eskirgan asosiy vositalar mavjudligidan dalolat beradi. Korxonada asosiy vositalarning qoldiq qiymati hisobot yilining boshida 30 ming so'm ni, yil oxirida bu ko'rsatkich 26 mln. 501 ming so'm ni tashkil qilgan.

Asosiy vositalarning yaroqliligi 37 % ni tashkil etishi korxona rahbarlarini o'ylantiradigan holdir, chunki asosiy vositalar tarkibini vaqtida yangilash choralari ko'rilmasa, texnologiya eskirib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi keskin kamayishi mumkin. Natijada korxonaning moliyaviy holati yomonlasha boradi:

Asosiy vositalar yaroqlilik darajasining tahlili

5-jadval

No	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.	Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	69482	71049
2.	Asosiy vositalarning eskirish summasi	38698	44548
3.	Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	30784	26501
4.	Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi	44,3	37,3

Yuqoridagi 5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, asosiy vositalar-ni-ning eskirish darajasining yuqori bo'lishi jami asosiy vositalar tarkibida eski bino, inshoot, mashina va uskunalar salmog'i yuqori ekanligini ko'rsatadi. Asosiy vositalarning eskirish summasi yil boshida 38 mln. 698 ming so'm ni tashkil qilgan, bu ko'rsatkich yil oxiriga kelib, 5 mln. 850 ming so'm ga ko'paygan. Bunda asosiy vositalarning eskirish dara-jasi yil boshida 55.6% ni, yil oxiriga kelib, bu ko'rsatkich 62.7% ni tashkil qilgan.

Asosiy vositalardan foydalanish va ularning samaradorligiga baho berish iqtisodiy tahlilning zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Masalalar:

Bu mustaqil ishi bir necha korxonalarning asosiy fondlariga bog'liq holda ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi korrelyatsion munosabatni topish, shu bilan birgalikda asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymatini topish, asosiy fondlarning samaradorligini hamda asosiy fondlarning dinamik ko'rsatkichlari yangilanish va chiqish koeffitsiyentlarini topish-ni talab qiladi.

Bunda quyidagilar talab qilinadi:

T/r	Yil boshidagi qiymat	F kiritilgan as.fondlar qiymati	F chiqarilgan as.fondlar qiymati	F yillik o'rtacha qiymat	Q i/eh hajmi (Y)	dx	dy	F_{yil}	K_{yil}	K_{yil}	R_{yil} skor skor
1	a_1	b_1^{m1}	c_1^{n1}		v_1						
2	a_2	b_2^{m2}	c_2^{n2}		v_2						
3	a_3	b_3^{m3}	c_3^{n3}		v_3						
4	a_4	b_4^{m4}	c_4^{n4}		v_4						
5	a_5	b_5^{m5}	c_5^{n5}		v_5						
6	a_6	b_6^{m6}	c_6^{n6}		v_6						

Bu yerda,

$a_1 - a_6$ lar har bir korxonaning asosiy fondlarini yil boshidagi qiymati (ming so'm);

$b_1^{m1} - b_6^{m6}$ - har bir korxonaga yilning aniq bir m1-m6 oyida kiritilgan asosiy fondlar qiymati (ming so'm);

$c_1^{n1} - c_6^{n6}$ - har bir korxonadan yilning aniqbir n1-n6 oyida chiqarilgan asosiy fondlar qiymati (ming so'm);

$V_1 - V_6$ - har bir korxonaning yil davomida ishlab chiqarilgan mahsuloti hajmi (ming so'm).

Bu ko'rsatkichlar alohida variantlarda, aniq sonlar bilan berilgan. Berilgan mustaqil ishini yechishda, avvalo, asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymatini topamiz. Har bir korxona uchun asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati quyidagi formula bilan topiladi:

$$F_{o'rt} = F_{y.b.} + \frac{F_k \cdot m_1 - F_{ch} \cdot n_1}{12}$$

$F_{o'rt}$ – asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati;

$F_{y.b.}$ – yil boshiga qiymati (balans);

F_k – kiritilgan asosiy fondlar qiymati;

F_{ch} – fondlarning tugatilish, ishlab chiqarishdan chiqarilish qiymati;

m_1 – asosiy fondlarni kiritilgandan boshlab oylar soni;

n_1 – asosiy fondlarni chiqarilgandan boshlab oylar soni.

Masalan: avgustda kiritilgan bo'lsa, avgust, sentyabr, oktyabr, noyabr, dekabr, ya'ni 5 oy ishlagan bo'ladi. Kiritilgan oy ham hisoblanadi.

Asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati hisoblangandan so'ng uni "x" deb belgilaymiz. Berilgan mahsulot hajmini esa "u" deb belgilanadi.

Har bir qilingan ishlarni, ya'ni hisoblangan u ko'rsatkichlari jadvalda yozib, uni to'ldirib boriladi.

Jadvalning 7 va 8-ustunlaridagi dx va du ko'rsatkichlar x va ularning o'rtacha farqini ifodalaydi.

Ular quyidagi topiladi:

$$dx = x_i - x;$$

$$dy = y_i - y$$

Bu yerda,

x_i, y_i – har bir korxona asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati va mahsulot hajmi;

x – barcha asosiy fondlarning yillik o'rtachalari yig'indisining korxona soniga nisbati, ya'ni o'rtachasi;

u – barcha korxonalar ishlab chiqargan mahsulot yig'indisining korxona soniga nisbati

Jadvalning 9-ustunida asosiy fondlarning samaradorlik ko'rsatkichi berilgan.

Fond samaradorligi – korxonaning yiliga bir so'm ga to'g'ri keladigan asosiy fondlari qiymatiga chiqarilgan mahsulotning qancha so'm lik qiymati to'g'ri kelishini ko'rsatadigan ko'rsatkich.

Uni topish formulası quyidagicha:

$$F_{sam} = Q / F_{yil o'rt}$$

Bu yerda,

Q - ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (u);

F - yillik o'rtacha (x);

Bu formula quyidagicha yozilishi mumkin:

$$F_{\text{sam}} = u / x$$

Endi jadvalning 10 va 11-ustunida asosiy fondlarning dinamik ko'rsatkichlari topiladi.

Ular quyidagilar:

$$K_{\text{yang}} = F_{\text{kir}} / F_{\text{y.o.}}$$

$$F_{\text{y.o.}} = F_{\text{y.b.}} + F_{\text{kir}} - F_{\text{chiq}}$$

$$K_{\text{chiq}} = F_{\text{chiq}} / F_{\text{y.b.}}$$

Mustaqil ishning asosiy maqsadi korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlash edi. Endi shu ishni amalga oshirish uchun, avvalo, koeffitsientni topish formulasi ko'rib chiqiladi:

$$r_{xy} = \frac{\sum (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum (x_i - \bar{x})^2 \sum (y_i - \bar{y})^2}}$$

Bu yerda quyidagilarni topish zarur bo'ladi:

$$(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y}) = dx \cdot dy$$

$$(x_i - \bar{x})^2 = dx^2$$

$$(y_i - \bar{y})^2 = dy^2$$

Ularning yig'indisini hisoblashda quyidagi jadval to'ldiriladi:

dx · dy	(dx) ²	(dy) ²
1		
2		
3		
4		
5		
6		

Jadvaldan yig'indilar topiladi va formulaga qo'yiladi. Formuladagi r_{xy} - to'g'ri **chiziqli** korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'lib, u [0;1] oralig'ida chiqadi. r ning 1 ga yaqinlashish darajasi u yoki bu ko'rinishdagi bog'lanish turini aniqlab beradi.

VARIANT №1

T/r	Yil boshidagi qiyamat	F kiritilgan as.fondlar qiyamati	F chiqarilgan as.fondlar qiyamati	F yillik o'rtacha qiyamat	Q i/ch hajmi (Y)	dx	dy	F san	K vanga	K chiq	R _{yx} korx. kor
1	800	400 ^{mart}	300 ^{avgust}		1600						
2	900	600 ^{iyul}	500 ^{sentabr}		1800						
3	700	300 ^{may}	400 ^{noyabr}		1300						
4	800	300 ^{fevral}	600 ^{dekabr}		1700						
5	1000	600 ^{yun}	300 ^{avgust}		2000						
6	1200	800 ^{may}	600 ^{oktabr}		2500						

VARIANT №2

T/r	Yil boshidagi qiyamat	F kiritilgan as.fondlar qiyamati	F chiqarilgan as.fondlar qiyamati	F yillik o'rtacha qiyamat	Q i/ch hajmi (Y)	dx	dy	F san	K vanga	K chiq	R _{yx} korx. kor
1	810	410 ^{mart}	310 ^{avgust}		1600						
2	910	610 ^{iyul}	510 ^{sentabr}		1800						
3	710	310 ^{may}	410 ^{noyabr}		1300						
4	810	310 ^{fevral}	610 ^{dekabr}		1700						
5	1010	610 ^{yun}	310 ^{avgust}		2000						
6	1210	810 ^{may}	610 ^{oktabr}		2500						

VARIANT №3

T/r	Yil boshidagi qiymat	F kiritilgan asfondlar qiymati	F chiqarilgan asfondlar qiymati	F yillik o'rtacha qiymat	Q i/ch hajmi (Y)	dx	dy	F san	K yang	K chiq	R _y skor skat
1	820	420 ^{mart}	320 ^{avgust}		1600						
2	920	620 ^{mart}	520 ^{sentabr}		1800						
3	720	320 ^{may}	420 ^{noyabr}		1300						
4	820	320 ^{fevral}	620 ^{dekabr}		1700						
5	1020	620 ^{iyun}	320 ^{avgust}		2000						
6	1220	820 ^{may}	620 ^{oktabr}		2500						

VARIANT №4

T/r	Yil boshidagi qiymat	F kiritilgan asfondlar qiymati	F chiqarilgan asfondlar qiymati	F yillik o'rtacha qiymat	Q i/ch hajmi (Y)	dx	dy	F san	K yang	K chiq	R _y skor skat
1	830	430 ^{mart}	330 ^{avgust}		1600						
2	930	630 ^{iyul}	530 ^{sentabr}		1800						
3	730	330 ^{may}	430 ^{noyabr}		1300						
4	830	330 ^{fevral}	630 ^{dekabr}		1700						
5	1030	630 ^{iyun}	330 ^{avgust}		2000						
6	1230	830 ^{may}	630 ^{oktabr}		2500						

VARIANT №5

T/r	Yil boshidagi qiyamat	F kiritilgan asfondlar qiymati	F chiqarilgan asfondlar qiymati	F yillik o'rtacha qiyamat	Q i/ch hajmi (Y)	dx	dy	F san	K yang	K chiq	R _y skor skor
1	840	440 ^{mart}	340 ^{avgust}		1600						
2	940	640 ^{iyul}	540 ^{sentyabr}		1800						
3	740	340 ^{may}	440 ^{noyabr}		1300						
4	840	340 ^{fevral}	640 ^{dekabr}		1700						
5	1040	640 ^{fevral}	340 ^{avgust}		2000						
6	1240	840 ^{may}	640 ^{oktabr}		2500						

VARIANT №6

T/r	Yil boshidagi qiyamat	F kiritilgan asfondlar qiymati	F chiqarilgan asfondlar qiymati	F yillik o'rtacha qiyamat	Q i/ch hajmi (Y)	dx	dy	F san	K yang	K chiq	R _y skor skor
1	850	450 ^{mart}	350 ^{avgust}		1600						
2	950	650 ^{iyul}	550 ^{sentyabr}		1800						
3	750	350 ^{may}	450 ^{noyabr}		1300						
4	850	350 ^{fevral}	650 ^{dekabr}		1700						
5	1050	650 ^{fevral}	350 ^{avgust}		2000						
6	1250	850 ^{may}	650 ^{oktabr}		2500						

VARIANT №7

T/r	Yil boshidagi qiymat	F kiritilgan asfondlar qiymati	F chiqarilgan asfondlar qiymati	F yillik o'rtacha qiymat	Q i/ch hajmi (Y)	dx	dy	F san	K yang	K chiq	R _v skor skor
1	860	460 ^{mart}	360 ^{avgust}		1600						
2	960	660 ^{iyul}	560 ^{sentabr}		1800						
3	760	360 ^{may}	460 ^{novabr}		1300						
4	860	360 ^{fevral}	660 ^{dekabr}		1700						
5	1060	660 ^{iyun}	360 ^{avgust}		2000						
6	1260	860 ^{may}	660 ^{oktabr}		2500						

VARIANT №8

T/r	Yil boshidagi qiymat	F kiritilgan asfondlar qiymati	F chiqarilgan asfondlar qiymati	F yillik o'rtacha qiymat	Q i/ch hajmi (Y)	dx	dy	F san	K yang	K chiq	R _y skor skor
1	870	470 ^{mart}	370 ^{avgust}		1600						
2	970	670 ^{iyul}	570 ^{sentabr}		1800						
3	770	370 ^{may}	470 ^{novabr}		1300						
4	870	370 ^{fevral}	670 ^{dekabr}		1700						
5	1070	670 ^{iyun}	370 ^{avgust}		2000						
6	1270	870 ^{may}	670 ^{oktabr}		2500						

4.Yangilanish koeffitsiyentini aniqlash:

$$K_{yang\ 1} = F_{kii} / F_{y\ o} = 420 / 920 = 0,46$$

$$K_{yang\ 2} = 620 / 1020 = 0,60$$

$$K_{yang\ 3} = 320 / 620 = 0,51$$

$$K_{yang\ 4} = 320 / 520 = 0,61$$

$$K_{yang\ 5} = 620 / 1320 = 0,47$$

$$K_{yang\ 6} = 820 / 2040 = 0,57$$

5.Chiqarilish koeffitsiyentini aniqlash:

$$K_{chiq\ 1} = F_{chiq} / F_{y\ b} = 320 / 820 = 0,39$$

$$K_{chiq\ 2} = 520 / 920 = 0,56$$

$$K_{chiq\ 3} = 420 / 720 = 0,58$$

$$K_{chiq\ 4} = 620 / 820 = 0,75$$

$$K_{chiq\ 5} = 320 / 1020 = 0,31$$

$$K_{chiq\ 6} = 620 / 1220 = 0,50$$

6.Korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlash:

$$a) (x_i - x)(y_i - y) = dx \cdot dy$$

$$dx_1 \cdot dy_1 = 109,72 \cdot 216,67 = 23773,148$$

$$dx_2 \cdot dy_2 = 89,72 \cdot 16,67 = 1495,37$$

$$dx_3 \cdot dy_3 = 283,05 \cdot 516,67 = 146245,37$$

$$dx_4 \cdot dy_4 = 84,72 \cdot 116,67 = 9884,25$$

$$dx_5 \cdot dy_5 = 101,94 \cdot 183,33 = 18689,81$$

$$dx_6 \cdot dy_6 = 465,27 \cdot 683,33 = 317939,81$$

$$\sum dx \cdot dy = 518027,78$$

$$b) (x_i - x)^2 = dx^2$$

$$dx_1^2 = 109,72^2 = 12038,9$$

$$dx_2^2 = 89,72^2 = 8050,07$$

$$dx_3^2 = 283,05^2 = 80120,48$$

$$dx_4^2 = 84,72^2 = 7177,85$$

$$dx_5^2 = 101,94^2 = 10392,67$$

$$dx_6^2 = 465,27^2 = 216483,41$$

$$\sum dx^2 = 334263,43$$

$$v) (y_i - y)^2 = dy^2$$

$$dy_1^2 = 216,67^2 = 46944,44$$

$$dy_2^2 = 16,67^2 = 277,77$$

$$dy_3^2 = 516,67^2 = 266944,44$$

$$dy_1^2 = 116,67^2 = 13611,11$$

$$dy_2^2 = 183,33^2 = 33611,11$$

$$dy_6^2 = 863,33^2 = 466944,44$$

$$\sum dy^2 = 828333,33$$

$$r_{xy} = \frac{\sum (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum (x_i - \bar{x})^2 \sum (y_i - \bar{y})^2}}$$

$$r_{xy} = \frac{518027,78}{\sqrt{334263,43 \cdot 828333,33}} = 0,984$$

δ_0	$F_{\text{зад}}$ зад.	$F_{\text{зад}} \text{ по плану (с погрешн.)}$	$F_{\text{зад}} \text{ по плану (с погрешн.)}$	$T_{\text{зад}} \text{ (с погрешн.)}$ зад.	$T_{\text{зад}} \text{ (с погрешн.)}$ зад.	$d_{\text{зад}}$	$d_{\text{зад}}$	$T_{\text{зад}}$	$K_{\text{зад}}$	$K_{\text{зад}}$	$R_{\text{зад}}$ зад.
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	820	Март 420	Август 320	1056,67	1600	109,72	246,67	1,54	0,51	0,39	0,39
2	920	Июль 620	Сентябрь 320	1056,67	1800	89,72	16,67	1,7	0,67	0,36	0,36
3	720	Май 320	Ноябрь 420	863,33	1300	283,05	516,67	1,5	0,41	0,58	0,58
4	820	Февраль 320	Декбрь 620	1061,67	1700	84,72	116,67	1,6	0,39	0,75	0,75
5	1020	Июнь 620	Август 320	1248,33	2000	101,94	183,33	1,6	0,6	0,31	0,31
6	1220	Май 820	Октябрь 620	1611,67	2800	465,27	683,33	1,55	0,67	0,5	0,5
Σ	5520	3120	2820	6878,3	10900						

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlari quyidagi koeffitsientlar orqali ifodalanadi va o'rganiladi:

1. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsiyenti;
2. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsiyenti;
3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyenti;
4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti;
5. Asosiy fondlarning safini to'ldirish koeffitsiyenti;
6. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti;

Asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisoboti" ma'lumotlari asosida hisoblaymiz. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan.

**Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risidagi
2016 yil ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlanjich qiymati, mln.so'm			Eskirishi, mln.so'm			Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kiritim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino, inshoot, uzatish moslamasi	707,4	229,6	23,3	913,7	229,0	265,0	478,4	648,7
2.Mashina va jihozlar	275,0	49,8	32,3	292,5	119,8	112,0	155,2	180,5
3.Transport vositalari	74,4	51,3	2,5	123,2	27,4	29,2	47,0	94,0
4.Ishchi va maxsuldor chorva mollaollari	1373,7	1027,5	453,9	1947,3	-	-	1373,7	1947,3
5.Boshqa asosiy fondlar	64,6	1,4	2,8	63,4	20,2	19,3	44,4	44,1
Jami	2495,1	1359,6	514,8	3340,1	396,4	425,5	2098,7	2914,6

Ushbu jadval ma'lumotlaridan (asosiy fondlarning balansidan) foydalanib, asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblash tartibini bo'rib chiqamiz.

Asosiy fondlarning mutloq o'sishi yil oxirida yil boshiga nisbatan 845 mln. so'm ni tashkil qilgan:

$$3340,1 - 2495,1 = + 845 \text{ mln. so'm}$$

1. Asosiy fondlarning o'sish koeffitsiyenti:

$$K_{o'fpy} = \frac{3340,1}{2495,1} \cdot 100 = 133,9 \%$$

Demak, o'sish koeffitsiyenti 133,9% ni tashkil qilgan.

2. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish koeffitsiyenti. Bu ko'rsatkich ikki xil usul bilan aniqlanadi:

$$1) K_{o'fky} = \frac{845}{2495,1} \cdot 100 = 33,9 \%$$

$$2) \text{ёку } 133,9 - 100 = 33,9 \%$$

Demak, asosiy fondlar hajmi yil oxirida yil boshiga nisbatan 3,9 ga oshgan.

3. Asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyenti:

$$\text{Yil boshida: } K_{epo} = \frac{396,4}{2495,1} \cdot 100 = 15,9 \%$$

$$\text{Yil oxirida: } K_{epo} = \frac{425,5}{3340,1} \cdot 100 = 12,7 \%$$

Birlashma bo'yicha asosiy fondlarning eskirish darajasi 3,2 foizga kamaygan, demak fondlar ahvoli yaxshilangan, yaroqlilik darajasi oshgan.

4. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti:

$$\text{Yil boshida: } K_{yopu} = \frac{2098,7}{2495,1} \cdot 100 = 84,1 \%$$

$$\text{ёку } 100 - 15,9 = 84,1 \%$$

$$\text{Yil oxirida: } K_{yopu} = \frac{2914,6}{3340,1} \cdot 100 = 87,3 \%$$

$$\text{ёку } 100 - 12,7 = 87,3 \%$$

Asosiy fondlarning yaroqlilik darajasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 3,2 foizga oshgan.

5. *Asosiy fondlar safini to'ldirish koeffitsienti:*

$$K_{afpo} = \frac{1359,6}{3340,1} \cdot 100 = 40,7\%$$

Demak, asosiy fondlar safi har xil yo'llar bilan 40,7 foizga kengaytirilgan.

6. *Asosiy fondlarni hisobdan chiqarish koeffitsienti:*

$$J_{afpo} = \frac{514,8}{2495,1} \cdot 100 = 20,6\%$$

Yil davrida har xil yo'llar bilan xo'jalik hisobidan chiqib ketgan fondlar hajmi 20,6 foizni tashkil qiladi.

3. Masalalar

1- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln. so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino. In-shoot, uzatish moslamasi	717,4	239,6	24,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	265,0	49,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	74,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	65,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

2- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino,inshoot, uzatish moslamasi	747,4	229,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	235,0	49,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	73,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	44,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

3- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino, inshoot, uzatish moslamasi	757,4	229,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	255,0	49,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	75,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	54,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

4- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino, inshoot, uzatish moslamasi	767,4	229,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	265,0	49,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	84,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	64,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

5- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino, inshoot, uzatish moslamasi	807,4	229,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	375,0	49,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	84,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	64,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

6- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino, inshoot, uzatish moslamasi	907,4	229,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	275,0	59,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	94,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	84,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

7- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino, inshoot, uzatish moslamasi	907,4	229,6	23,3		329,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	475,0	49,8	32,3		219,8	112,0		
3.Transport vositalari	64,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	84,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

8- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino, inshoot, uzatish moslamasi	797,4	269,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	475,0	69,8	32,3		119,8	112,0		
3.Transport vositalari	94,4	61,3	2,5		27,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	94,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

9- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil Oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino,inshoot, uzatish moslamasi	767,4	269,6	26,3		239,0	235,0		
2.Mashina va jihozlar	375,0	39,8	32,3		139,8	132,0		
3.Transport vositalari	84,4	51,3	2,5		27,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	54,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

10- masala. Asosiy vositalarning holati va harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlarning nomi	Boshlang'ich qiymati, mln.so'm				Eskirishi, mln.so'm		Qoldiq qiymati, mln.so'm	
	Yil boshiga qoldiq	Kirim	Chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Bino, inshoot, uzatish moslamasi	607,4	229,6	23,3		229,0	265,0		
2.Mashina va jihozlar	375,0	49,8	32,3		129,8	142,0		
3.Transport vositalari	84,4	51,3	2,5		28,4	29,2		
4.Boshqa asosiy fondlar	84,6	1,4	2,8		20,2	19,3		
Jami								

11-masala. Asosiy vositalarning harakati va takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblang.

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	O'zgarishi	
			(+ ; -)	%
1.Asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'mda	2495,1	3339,9		
2.Kirim qilingan asosiy vositalar, ming so'mda	1359,6	1436,5		
3. Chiqim qilingan asosiy vositalar, ming so'mda	514,8	620,4		
4. Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da				
5. Asosiy vositalarning eskirish qiymati, ming so'm da	396,4	425,5		
6. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so'm da				
6. Asosiy vositalarning safini to'ldirish koeffitsiyenti				

7. Asosiy vositalarning safdan chiqarish koeffitsiyenti			
8. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti			
9. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti			

12-masala. Asosiy vositalarning harakati va takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblang.

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	O'zgarishi	
			(+, -)	%
1. Asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da	2595,1	3529,9		
2. Kirim qilingan asosiy vositalar, ming so'm da	1459,6	1536,5		
3. Chiqim qilingan asosiy vositalar, ming so'm da	524,8	630,4		
4. Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da				
5. Asosiy vositalarning eskirish qiymati, ming so'm da	406,4	435,5		
6. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so'm da				
6. Asosiy vositalarning kafini to'ldirish koeffitsiyenti				
7. Asosiy vositalarning safdan chiqarish koeffitsiyenti				
8. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti				
9. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti				

13-masala. Asosiy vositalarning harakati va takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblang.

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	O'zgarishi	
			(+, -)	%
1. Asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da	2695,1	3719,9		
2. Kirim qilingan asosiy vositalar, ming so'm da	1559,6	1636,5		
3. Chiqim qilingan asosiy vositalar, ming so'm da	534,8	640,4		
4. Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da				
5. Asosiy vositalarning eskirish qiymati, ming so'm da	416,4	445,5		

6. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so'm da				
6. Asosiy vositalarning safini to'ldirish koeffitsiyenti				
7. Asosiy vositalarning safdan chiqarish koeffitsiyenti				
8. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti				
9. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti				

14-masala. Asosiy vositalarning harakati va takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblang.

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	O'zgarishi	
			(+;-)	%
1. Asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da	2795,1	3909,9		
2. Kirim qilingan asosiy vositalar, ming so'm da	1659,6	1736,5		
3. Chiqim qilingan asosiy vositalar, ming so'm da	544,8	650,4		
4. Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da				
5. Asosiy vositalarning eskirish qiymati, ming so'm da	426,4	465,5		
6. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so'm da				
6. Asosiy vositalarning safini to'ldirish koeffitsiyenti				
7. Asosiy vositalarning safdan chiqarish koeffitsiyenti				
8. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti				
9. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti				

15-masala. Asosiy vositalarning harakati va takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblang.

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	O'zgarishi	
			(+;-)	%
1. Asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da	2895,1	4099,9		
2. Kirim qilingan asosiy vositalar, ming so'm da	1759,6	1836,5		
3. Chiqim qilingan asosiy vositalar, ming so'm da	554,8	660,4		

4. Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'mda				
5. Asosiy vositalarning eskirish qiymati, ming so'mda	436,4	475,5		
6. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so'mda				
6. Asosiy vositalarning safini to'ldirish ko'effitsiyenti				
7. Asosiy vositalarning safdan chiqarish ko'effitsiyenti				
8. Asosiy vositalarning eskirish ko'effitsiyenti				
9. Asosiy vositalarning yaroqlilik ko'effitsiyenti				

16-masala. Asosiy vositalarning harakati va takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblang.

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	O'zgarishi	
			(+;-)	%
1. Asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'mda	2995,1	4289,9		
2. Kirim qilingan asosiy vositalar, ming so'mda	1859,6	1936,5		
3. Chiqim qilingan asosiy vositalar, ming so'mda	564,8	670,4		
4. Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'mda				
5. Asosiy vositalarning eskirish qiymati, ming so'mda	446,4	485,5		
6. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so'mda				
6. Asosiy vositalarning safini to'ldirish ko'effitsiyenti				
7. Asosiy vositalarning safdan chiqarish ko'effitsiyenti				
8. Asosiy vositalarning eskirish ko'effitsiyenti				
9. Asosiy vositalarning yaroqlilik ko'effitsiyenti				

17-masala. Asosiy vositalarning harakati va takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblang

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	O'zgarishi	
			(+;-)	%
1.Asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'mda	3095,1	4479,9		
2.Kirim qilingan asosiy vositalar, ming so'mda	1959,6	2036,5		
3. Chiqim qilingan asosiy vositalar, ming so'm da	574,8	680,4		
4.Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'mda				
5.Asosiy vositalarning eskirish qiymati, ming so'mda	456,4	495,5		
6.Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so'mda				
6.Asosiy vositalarning safini to'ldirish koeffitsiyenti				
7.Asosiy vositalarning safdan chiqarish koeffitsiyenti				
8.Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti				
9.Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti				

18-masala. Asosiy vositalarning harakati va takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblang

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	O'zgarishi	
			(+;-)	%
1.Asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da	3195,1	4669,9		
2.Kirim qilingan asosiy vositalar, ming so'mda	2059,6	2036,5		
3.Chiqim qilingan asosiy vositalar, ming so'mda	584,8	690,4		
4. Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich (tiklash) qiymati, ming so'm da				
5.Asosiy vositalarning eskirish qiymati, ming so'mda	466,4	505,5		
6.Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so'mda				
6.Asosiy vositalarning safini to'ldirish koeffitsiyenti				
7.Asosiy vositalarning safdan chiqarish koeffitsiyenti				
8.Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti				
9. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti				

Xo'jalikning ishlab chiqarish holati vaziyati: mashinasozlik korxonalari majmuini joylashtirish hududini aniqlash.

Berilgan ma'lumotlar:

Iqtisodiy tahlil orqali beshta hududda texnologik moslamalarga bo'lgan talabni qondirish uchun yangi korxonalarni qurish kerakligi aniqlandi.

Mahsulot istemolchiga tayyor holatda yetkaziladi.

Tarmoq korxonalari majmuini ishlab chiqarishi hajmini variantlari 1- ilovada keltirilgan.

Tarmoq kompleksining qurilishi korxona dasturi asosida hisoblanadi. Ma'lumki, 1 ming komplekt texnologik moslamalar uchun 0,5 mln. so'm ajratiladi. Kapital quyilmalarining hajmidan 42,4% qurilish montaj ishlariga sarflanadi.

Mahalliy sharoitlarni e'tiborga olgan holda har bir joylashtirilgan variantda turli xarajatlar mavjud (2-ilova).

Birinchi, ikkinchi, to'rtinchi va beshinchi variantlarda kapital qo'yilmalar maqsadli ishlatiladi va smetaga urilish-montaj ishlari sifatida kiradi. V uchinchi variantda kapital quyilmalar va 40% uskunalarini sotib olish uchun ishlatiladi.

Korxona va qurilish joylarida qurilish-montaj va ish haqi ko'effitsiyentlari mavjud. Ular birinchi jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Variantlar nomeri	Joylashtirish punktleri	Hududiy ko'effitsiyentlar
1	Shaxar A	1,09
2	Shaxar B	1,00
3	Shaxar D	1,02
4	Shaxar E	1,8
5	Shaxar F	1,1

Mahsulot tannarxiga kiritilgan xarajatlar tanlangan joylatirish varianti bilan bog'liq. Bu xarajatlarga asosiy va yordamchi materiallar; komplektlash buyumlari va yarimfabrikatlar; texnologik talablar uchun yoqilg'i; asosiy fondlarning amortizatsiyasi va ish haqi; tayyor mahsulotni istemolchiga yetkazish xarajatlari kiradi.

Material xarajatlar tarkibiga kiruvchi yoqilg'i va ish haqining o'rtacha sarfi harajatlari 2- ilovadan olinadi.

Materiallarni ishlab chiqarilgan joylaridan keltirish xarajatlari 7-jadvalda ko'rsatilgan.

7-jadval

Variantlar r nomeri	Rangli metallar ming/so'm	Plastmassalar ming/so'm	Butlovchi mahsulotlar so'm / 1000 komplekt	Yoqilg'i ming/so'm	Qora metall va prokat, ming/so'm	
					Metallurgiya zavodlari	
					№1	№2
1	60	95	140	35	20	25
2	80	105	145	30	15	10

Har bir metallurgiya korxonasi qurilayotgan kompleksni qora metall va prokat bilan to'liq ta'minlaydi.

Quriladigan kompleks o'z mahsuloti bilan beshta iqtisodiy rayonni ta'minlaydi.

Har bir iqtisodiy rayon ishlab chiqargan texnologik jihozlar iste'moli ishlab chiqarish hajmidan (foizda) olinadi: 1) –15%, 2) –25%, 3) –20%, 4) –30%, 5) –10%.

Iqtisodiy rayonning markazgacha bo'lgan masofasi 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Joylashish variantlari	Iqtisodiy rayonlar				
	Masofa, km.				
A	850	950	1100	750	650
B	1350	1050	780	920	980
V	550	800	820	500	750
G	680	850	470	900	600

Hisob natijalaridan foydalanib mashinasozlik kompleksini joylashtirishning eng samarali (iqtisodiy) variantini aniqlang.

Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi bog'liqlik grafik orqali ko'rsatiladi.

Amaliy qismini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar

Mashinasozlik kompleksini qurish uchun kapital qo'yilmalar hajmi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{um} = N \cdot k_{sol} \quad (1)$$

bu yerda,

K_{um} – kapital qo'yilmalarning umumiy hajmi, mln.so'm;

N – mashinasozlik kompleksi ishlab chiqaradigan mahsulotning yillik dasturi, dona;

k_{sol} – bir dona mahsulotni ishlab chiqarish uchun solishtirma kapital xarajatlari.

Qurilish montaj ishlari uchun kapital qo'yilmalarni hisoblash

$$K_{qur} = (K \cdot \beta / 100 + K_{som}) \cdot k_m \quad (2)$$

Bu yerda,

K_{qur} – qurilish-montaj ishlari uchun kapital qo'yilmalarning foizdagi nisbati (42,4%) ga teng;

K_{som} – variantdagi qo'shimcha kapital xarajatlari hajmi;

k_m – variantdagi qurilish montaj ishlarining rayon koeffitsiyenti.

Uskunani sotib olish uchun kapital qo'yilmalarni hisoblash

$$K_{ayl} = \frac{K_{um} - \beta_{ayl}}{100} \quad (3)$$

Bu yerda,

β_{ayl} – uskunalarni sotib olishning kapital qo'yilmalarni foizlardagi nisbati.

$$\beta_{ayl} = 100 \cdot \beta_{qur} \quad (4)$$

Texnologik jihoz tannarxini aniqlash.

Texnologik jihoz tannarxini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$S_i = M_i + Q_i + A_i + D_i \quad (5)$$

Bu yerda, S_i - i-variantdagi tayyor mahsulot tannarxi, ming. so'm;

M_i – asosiy va yordamchi materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar texnologik ehtiyojlar uchun yoqilg'i xarajatlari, so'm;

Q_1 – ish haqi xarajatlari, so'm;

A_1 – asosiy fondalar amortizatsiya xarajatlari, so'm;

D_1 – istemol rayonlariga tayyor mahsulotni yetkazib berish xarajatlari, so'm.

Asosiy va yordamchi materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar texnologik ehtiyojlar uchun yoqilg'i xarajatlarini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$M_i = q_{ac} + q_{ya} + T \quad (6)$$

Bu erda,

q_{ac} – asosiy materiallar uchun ketgan xarajatlar, so'm;

q_{ya} – butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar uchun ketgan xarajatlar, so'm ;

T – texnologik ehtiyojlar uchun yoqilg'i xarajatlari, so'm .

a) berilgan topshiriq shartidan kelib chiqqan holda asosiy materiallar uchun ketgan xarajatlarni quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$q_{ac} = (P_{qm} + P_{lp}) \cdot N \cdot C_1 + P_{rm} \cdot N \cdot C_2 + P_n \cdot N \cdot C_3 = [(P_{qm} + P_{lp}) \cdot C_1 + P_{rm} \cdot C_2 + P_n \cdot C_3] \cdot N \quad (7)$$

Bu yerda,

P_{qm}, P_{lp} – bir komplekt texnologik jihoz uchun qora metall va prokatning me'yoriy sarfi, tonna;

C_1 – qora metall va prokatning qiymati, ming so'm;

P_{rm} – bir komplekt texnologik jihoz uchun rangli metall me'yoriy sarfi, tonna;

S_2 – rangli metallning qiymati, ming so'm;

R_p – bir komplekt texnologik jihoz uchun plastmassaning me'yoriy sarfi, tonna;

S_3 – plastmassa qiymati, ming so'm ;

b) butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar qiymatini hisoblash:

$$q_{ya} = K_{buyum} \cdot N \cdot C_i \quad (8)$$

Bu yerda,

K_{buyum} – bir komplekt texnologik jihoz uchun butlovchi buyumning me'yoriy sarfi, komplekt;

C_i – variantdagi komplekt qiymati, so'm/1000 komr.

d) texnologik ehtiyojlar uchun yoqilg'i xarajatlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$T = m_{shart} \cdot S \cdot N \quad (9)$$

Bu yerda, m_{shart} – bir komplekt texnologik jihoz uchun shartli yoqilg'ining me'yoriy sarfi, tonna;

S - variandagi 1 tonna yoqilg'ining qiymati, so'm.

Ish haqi xarajatlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Q_{asi} = (Q_{as} + Q_k) \cdot N \cdot k_{ni} \quad (10)$$

Bu yerda,

Q_{as} – bir komplekt texnologik jihoz uchun asosiy ish haqi;

Q_k – bir komplekt texnologik jihoz uchun qo'shimcha ish haqi, so'm;

k_{ni} – i - variantdagi hududiy koeffitsiyentlar.

Ijtimoiy sug'urta xarajatlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\frac{Q_{as} \cdot \beta}{Q_{ijt}} = 100 \quad (11)$$

Bu yerda,

β – Ijtimoiy sug'urta xarajatlari (ish haqi miqdorining 25% ini tashkil etadi), so'm.

Asosiy fondlarning o'rtacha yillik amortizatsiya ajratmalarini hisoblash:

Bu hisobni amalga oshirish uchun asosiy fondlarning qiymatini aniqlaymiz:

a) bino va inshootlar qiymatini qurilish-inontaj ishlari uchun ketgan kapital xarajatlar hajmiga teng qilib olamiz:

Bino va inshootlar uchun amortizatsiya xarajatlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\frac{K_{as} \cdot \beta}{A_b} = 100 \quad (12)$$

Bu yerda,

A_b – i - variantdagi bino va inshootlar uchun amortizatsiya ajratmalari, so'm;

β – bino va inshootlar uchun amortizatsiya me'yori (4%).

b) uskunalar qiymatini uskunalar sotib olish uchun ketgan kapital xarajatlarga teng miqdorda kabul qilamiz, ya'ni (K_{ayti}). Shunda uskunalar uchun amortizatsiya ajratmalari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$A_{ayti} = \frac{K_{ayti} \cdot \beta}{100} \quad (13)$$

Bu yerda,

A_{ayti} – variantdagi uskunalar uchun amortizatsiya ajratmalari, so'm;

β – uskunalar uchun amortizatsiya me'yori (13%).

d) umumiy amortizatsiya ajratmalari qiymati quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$A_i = A_b + A_{ayli} \quad (14)$$

Bu yerda,

A_i - umumiy amortizatsiya ajratmalari, so'm.

e) mashinasozlik kompleksining asosiy fondlari qiymatini kapital xarajatlar qiymatiga **teng** deb qabul qilamiz va u quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$OF_{ik} = K_{qur} + K_{ayh} \quad (15)$$

Bu yerda,

OF_{ik} - i-kompleksdagi asosiy fondlarning qiymati, mln.so'm.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Asosiy fondlarning mohiyati, ahamiyati, tarkibi.
2. Iqtisodiy maqsadiga ko'ra asosiy fondlar.
3. Asosiy fondlarni baholash usullari qanday?
4. Ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati deganda nimani tushunasiz va u qanday hisoblanadi?
5. Asosiy fondlarning eskirish turlari qanday?
6. Amortizatsiya nima? Amortizatsiya ajratmalari deb nimaga aytiladi?
7. Ta'mirlash sikli deb nimaga aytiladi? Asosiy fondlarni tamirlashning qanday turlarini bilasiz?
8. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari qaysilar?
9. Ekstensiv, intensiv va integral ko'rsatkichlar nimani aniqlaydi?
10. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini sanang.
11. O'rtacha yillik quvvatining formulasini ifodalab bering.
12. Ishlab chiqarish quvvati omillarini ta'riflang.

4-mavzu. SANOAT KORXONALARINING AYLANMA MABLAG'LARI VA FONDLARI

4.1. Sanoat korxonalarining aylanma mablag'lari va aylanma fondlari to'g'risida tushuncha, ularning tarkibi va tasnifi

Aylanma mablag'lar ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil qilishga mo'ljallangan pul mablag'laridan

iborat. Aylanma mablag'lar korxonaning hisob raqamida naqd pul ko'rinishida jang'ariladi. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish va uning uzluksizligini ta'minlashning moddiy asosi hisoblanadi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari uch guruhga bo'linadi:

- ishlab chiqarish zahiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar;
- kelgusi davr xarajatlari.

Ishlab chiqarish zahiralari – ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishi uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, xarid qilinuvchi yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, qadoqlash va o'rov materiallari, ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash materiallaridan iborat mehnat predmetlari.

Xomashyo deb, qazib olish yoki ishlab chiqarish uchun ma'lum darajada mehnat sarflangan va shu mehnat natijasida bir qadar o'zgargan mehnat buyumiga aytiladi. Ishlab chiqarish jarayonida xomashyo tayyor mahsulot yoki yarim fabrikat hosil qiladi.

Xomashyo resurslarini xomashyodan farq qilmoq kerak. Xomashyo resurslariga mamlakatdagi foydali qazilma konlari, o'rmon maydonlari, uy hayvonlari va shu kabi tabiiy boyliklar kirsa, ular qazib chiqarilgan yoki ishlab chiqarish uchun mehnat sarflangandagina (Mehnat vositasi yordamida ovlangan xayvonlar, qazib olingan ma'danlar, kesilgan daraxtlar va boshqalar) xomashyoga aylanishi mumkin.

Tugallanmagan ishlab chiqarish – ishlab chiqarish jarayoniga kirgan turli bosqichlarni o'tayotgan hali to'liq mahsulot holiga kelmagan materiallar.

Yarim tayyor mahsulotlar – texnologiya jarayonlarining ayrim bosqichlarini o'tgan, lekin tayyor mahsulotga aylanishi uchun keyingi bitta yoki bir nechta ishlov berish va yig'ish bosqichlarini talab qiluvchi mehnat buyumlari.

Kelgusi davr xarajatlari – ayni paytda ishlab chiqarilayotgan, lekin kelajakdagi mahsulotlarga mansub bo'lgan yangi turdagi mahsulotlarni tayyorlash xarajatlari (asbob-uskunalarni qayta rejalashtirish, mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlashga sarflanuvchi xarajatlar yangi turdagi mahsulotlarni loyihalash, tayyorlash va o'zlashtirish, mutaxassislarni o'qitish va qayta tayyorlash xonalarini ijaraga olish).

Muomala fondlari korxonaning tayyor mahsulot zahirasini yaratish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari, chek va veksellar, aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank va kassalarning hisob

raqamlaridagi mablag'lardan iborat bo'ladi. Muomala fondlari va aylanma fondlari birgalikda korxonaning aylanma mablag'larini tashkil qiladi.

Aylanma mablag'lardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- xomashyo, material, ehtiyot qismlar hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishda zarur bo'lgan mehnat predmetlari sotib olishda;

- ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinuvchi elektr energiyasi, yoqilg'i kabi resurslar uchun haq to'lashda;

- korxonani tashkil etish va faoliyat yuritish davrida oylik ish haqi to'lanishi;

- soliq va boshqa to'lovlarni to'lashda.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari tarkibiy qismlari yoki elementlari o'rtasidagi foizlarda ifodalanuvchi o'zaro munosabatlar aylanma ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini tashkil qiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari o'rtasidagi foizlardagi munosabatlar korxona aylanma mablag'larining tuzilmasi deb ataladi.

Aylanma mablag'larning to'liq aylanishi uch bosqichdan iborat bo'lib, bu jarayonda mahsulot ishlab chiqariladi va sotiladi.

- aylanma mablag'lar pul shaklidan tovar zahiralariga aylanadi ($P-T$);

- ishlab chiqarish, ya'ni mahsulotni tayyorlash jarayoni (T);

- tovar sotiladi va yana pul shaklini oladi ($T-P$).

Aylanma mablag'lar shakllanish manbaiga ko'ra xususiy va qarz mablag'larga bo'linadi.

Xususiy aylanma mablag'lar doimo korxona ixtiyorida bo'lib, xususiy resurslar, foyda hisobiga shakllanadi (ish haqi bo'yicha qarzlar, ta'minotchilar yoki hamkorlar qarzlari, buyurtmachilar to'lagan pullar).

Qarzga olingan aylanma mablag'lar doimo xarakatda bo'lmaydi hamda korxonaning mahsulotlarni sotishdagi qiyinchiliklar, moddiy-tovar boyliklar bilan ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarishni oshirish, vaqtinchalik ehtiyojlarni qoplash uchun foydalaniladi (bank kreditlari, kreditorlik qarzlari).



4.1-rasm. Aylanma mablag'lar tarkibi

4.2. Me'yorlashtiriluvchi va me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'lar

Aylanma mablag'lar me'yorlashtiriluvchi va me'yorlashtirilmaydigan turlarga bo'linadi.

Me'yorlashtiriluvchi aylanma mablag'lar-korxona omborlaridagi ishlab chiqarish zahiraları (xomashyo, materiallar, yoqilg'i), tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va tayyor mahsulotlar.

Me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'lar - xaridorga berib yuborilgan tayyor mahsulotlar, hisob raqamidagi pul mablag'lari.

Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish korxonaning uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan moddiy boylik va boshqa resurslarning minimal, lekin yetarli zahiralarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini aniqlashda ifodalanadi. Aylanma mablag'larning me'yori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$N_{aym} = N_{ichz} + N_{uch} + N_{im} + N_{kdv}$$

Bu yerda:

N_{ichz} - ishlab chiqarish zahiraları;

$N_{t\text{ich}}$ – tugallanmagan ishlab chiqarish;

N_{tm} – tayyor mahsulot;

$N_{k.d.x.}$ – kelgusi davr xarajatlari.

Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish va ayniqsa, moddiy resurslarni sarflash me'yorlarini belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- me'yorlarning progressivligi va dinamikligi;
- me'yorning iqtisodiy va ishlab chiqarish-texnikaviy jihatda asoslanganligi;
- xomashyo, material, yoqilg'i, elektr energiyasi va boshqa resurslar o'lchamini to'g'ri tanlash;
- chiqish va yo'qotishlarning oldini olish;
- eskirgan me'yorlarni qayta ko'rib chiqish hamda ularni fard texnika taraqqiyoti yutuqlariga mos holga keltirish.

Resurslarni me'yorlashtirishda bir nechta usullar qo'llaniladi:

- o'tgan yillar davomida amalda sarflangan resurslar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini o'rganish hamda bir necha yillar davomida ro'bergan pasayishlarni hisoblashga asoslanuvchi statistika-tajriba usuli;
- laboratoriya tajribalariga asosan yaratilgan hamda instrumentlik va yordamchi materiallar sarflanishi me'yorini aniqlashda qo'llanuvchi laboratoriya-texnikaviy usul;
- yuzaga kelgan ishlab chiqarish sharoitlaridan tashqari boshqa korxonalarning ilg'or tajribalari va yutuqlarini ham hisobga olish imkonini beruvchi, moddiy resurslardan foydalanishni me'yorlashtirishning mukammalroq usuli hisoblanuvchi hisob-tahliliy usul.

Aylanma mablag'larni me'yorlashtirish tadbirlari ishlab chiqarish zahiralari me'yorlashtirish, tugallanmagan ishlab chiqarishning optimal kattaligi, tayyor mahsulot qoldiqlari va kelgusi davr xarajatlari aniqlash bilan bog'liq vazifalarni yechishga yordam beradi.

Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish ko'rsatkichi:

- aylanish koeffitsiyenti;
- yuklanish koeffitsiyenti;
- bir marta aylanish davomiyligi.

Aylanish koeffitsiyenti aylanma mablag'larning ma'lum bir vaqt davomida amalga oshiruvchi aylanishini ifodalaydi yoki aylanma mablag'larning har bir so'miga to'g'ri keluvchi sotilgan mahsulotlarni ko'rsatadi.

$$K_a = \frac{S_m}{Q_a}$$

Bu yerda:

K_a - aylanish ko'effitsiyenti

S_m - sotilgan mahsulot hajmi, so'm ;

Q_a - aylanma mablag'larning o'rtacha qoldiq hajmi, so'm .

Korxonaning bir yil mobaynida sotilgan mahsulotlari hajmi 1000000 so'mni tashkil qiladi. Aylanma mablag'lar me'yori 250000 so'm, aylanish ko'effitsiyenti $K_a = 4$.

Aylanma mablag'larning yuklanish ko'effitsiyenti sotilgan har 1 so'm mahsulotga sarflangan aylanma mablag'ni ifodalaydi.

$$K_{av} = \frac{Q_a}{S_m}$$

Bir marta aylanish davomiyligi kunlarda o'lchanadi hamda shu davrdagi kunlar sonini aylanish ko'effitsiyentiga nisbati orqali hisoblanadi.

$$T = \frac{K}{K_a}$$

Bu yerda:

K – kunlar soni (360, 90).

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish, ulardan samarali foydalanish quyidagilarni talab qiladi:

- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng qo'llash;
- ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida ilmiy jihatdan asoslangan me'yor va me'yoriylar tizimini yaratish;
- korxonalarni uzoq muddatli xo'jalik aloqalari yuritishga o'tkazish;
- mahsulotlar, moliyaviy, moddiy va kuch-quvvat resurslarining sifat balansini tuzish;
- boshqarish tizimini tashkil etishning va rag'batlantirishning optimal shakllarini qo'llash;
- texnologik jarayonlarni yaxshilash;
- xom ashyoni kompleks qayta ishlash usullarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish uchun ularni ishlab chiqarish va muomalada bo'lish muddatini qisqartirish kerak. Aylanma mablag'lardan foydalanishni yaxshilash, ularning aylanishini

tezlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

Misol: korxona 10 mln. so'm lik aylanuvchi mablag'ga ega. Bitta aylanish davomiyligi 90 kun. Demak, aylanma mablag'larning aylanish darajasi $K_a = 4$ ga teng.

$$K_a = \frac{360}{90}$$

Aylanma mablag'larning 1 so'miga 4 so'mlik mahsulot ishlab chiqariladi, korxona yil davomida 40 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqaradi. Agar korxona bir aylanish davomiyligini 10 kunga qisqartirsa, ya'ni 1 - bir aylanishning davom etishi 90 kun emas, 80 kun bo'lsa, unda aylanish darajasi $K_a = 4,5$ ga teng.

$$K_a = \frac{360}{80}$$

Korxona yil davomida 45 mln. so'm lik mahsulot ishlab chiqaradi. Agar aylanish darajasi yiliga 4,5 ga teng bo'lganda 40 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lsa, unda kam miqdorda aylanuvchi mablag' talab qilinadi. 40 mln.: 4,5 = 8,888 mln.so'm, ya'ni 1,112 mln.so'm aylanuvchi mablag' bo'shatib olinadi (10 mln.- 8,888 mln.).

Aylanma mablag'lar mutloq va nisbiy ozod qilinadi.

Mutloq ozod qilish korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishni ifodalaydi hamda mavjud resurslardan oqilona foydalanishga oid chora-tadbirlar hisobiga amalga oshiriladi.

Misol: Korxona aylanma mablag'larining o'rtacha miqdori 2016-yilda 20 mln. so'mni tashkil qilgan. 2017-yilda ishlab chiqarish hajmi o'zgarmagan holda 18 mln.so'm miqdorida ehtiyoj rejalashtirilmoqda. Asosiy vositalarning mutloq ozod qilinishi 2 mln.so'mni tashkil etadi.

Nisbiy ozod qilish aylanma mablag'lar hajmining o'zgarishini hamda sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishini aks ettiradi. Uni aniqlash uchun hisobot yilida aylanma mablag'larga ehtiyojni, mahsulotni mazkur davr mobaynida sotish bo'yicha haqiqiy aylanish hamda o'tgan davrdagi aylanishini inobatga olgan holda hisoblash zarur.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Aylanma mablag'lar nima?
2. Korxonaning aylanma mablag'lari qanday fondlarga bo'linadi?

3. Aylanma ishlab chiqarish fondlari necha guruhga bo'linadi?
4. Aylanma mablag'larning to'liq aylanishi necha bosqichdan iborat?
5. Me'yorlashtiriluvchi va me'yorlashtirilmaydigan aylanma mablag'lar.
6. Me'yorlashtirishda qo'llaniladigan usullar.
7. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari nima?
8. Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirish nimalarni talab qiladi?

5-mavzu. SANOAT KORXONALARINING MEHNAT RESURLARI

Zamonaviy korxonalar faoliyatida mehnatqurollari va mehnat predmetlaridan tashqari kadrlar ham katta ahamiyatga ega. Kadrlar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi uch asosiy omilning asosiysi hisoblanadi. **Salohiyat (potensial)** tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib, imkoniyat, kuch-quvvat ma'nosini anglatadi.

Kadrlar salohiyati – mehnat resurslarining umumiy soni va jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbiy ko'nikmalari, korxonaning u yoki bu bo'g'inlarida va jamoatchilik ishlab chiqarishida qatnashishi bilan ifodalanuvchi mehnat resurslari yoki imkoniyatlarini ifodalaydi.

Kadrlar korxonada mehnat bilan band bo'lgan hamda korxona shaxsiy tarkibiga kiruvchi turli kasbiy-malakaviy guruhlardagi xodimlar majmuasidir. Korxonaning mehnat resurslari uning ish kuchini tavsiflaydi. Ish kuchi - insonning mehnat qilishga jismoniy va aqliy qobiliyatlari hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat qobiliyati ish kuchini tovar holiga keltiradi. Uning boshqa tovarlardan farqi:

- o'z qiymatidan ortiq bo'lgan qiymat yaratadi;
- uni jalb qilmasdan biron-bir ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish mumkin emas;
- asosiy fondlar va aylanma mablag'lardan samarali foydalanish darajasi ish kuchiga bog'liq.

Ish kuchidan samarali foydalanishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: xodimlarning moddiy manfaatdorligi, atrof-muhit, aqliy, jismoniy va asablar kuchlanishi, boshqarish usullari va h.k.

Korxona xodimlarining ro'yxat bo'yicha tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sanoat ishlab chiqarish personali (SICHP) - asosiy va yordamchi sehlar, zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari, hisoblash markazi xodimlari;

- noishlab chiqarish personali - uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda, sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar;

- rahbarlar - direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal (MTP);

- xizmatchilar - hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari (agentlar, g'aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hy.k.).

Korxona SICHP ning asosiy va ko'p sonli qismini ishchilar tashkil qilib, ular maysulot ishlab chiqarish, tamirlash va uskunalariga xizmat ko'rsatish da qatnashadilar, mehnat predmetlarini tashish va mahsulot tayyorlashni amalga oshiradilar, qurish-ta'mirlash ishlarini bajaradilar.

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi va tahlil qilinadi:

Ishchilarni ishga qabul qilish bo'yicha aylanish koeffitsiyenti($K_{q,p}$):

$$K_{q,p} = \frac{\text{ishga qabul qilingan personal soni}}{\text{personalning o'rtacha ro'yxat soni}} \quad (1)$$

Ishdan ketish bo'yicha aylanish koeffitsiyenti($K_{k,p}$)

$$K_{k,p} = \frac{\text{ishdan bo'shagan personal soni}}{\text{personalning o'rtacha ro'yxat soni}} \quad (2)$$

Kadrlar oqimi koeffitsiyenti ($K_{k,d}$)

$$K_{k,d} = \frac{\text{o'z xohishiga ko'ra mehnat intizamin buzganlik tushadigan kadrlar soni}}{\text{personalning o'rtacha ro'yxat soni}} \quad (3)$$

Korxona personali tarkibining doimiylik koeffitsiyenti($K_{p,d}$)

$$K_{p,d} = \frac{\text{butunyl davomida ishlagan personal soni}}{\text{personalning o'rtacha ro'yxat soni}} \quad (4)$$

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning kadrlar siyosati.

Korxona ishlab chiqarish faoliyatining joriy va istiqboldagi strategiyasi kadrlar siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ish kuchini yollash, joylashtirish va rejalashtirish;

- xodimlarni o‘qitish, tayyorlash va malakasini oshirish;
- kadrlarni xizmat lavozimlari bo‘yicha yuqori pog‘onaga ko‘tarish;
- yollash shartlari, mehnat va unga haq to‘lash sharoitlari;
- mehnat jamoasida qulay ruhiy muhitni yaratish.

Kadrlar siyosati birinchi o‘rinda insonni ishlab chiqarish va turmushdagi yangi axloqini shakllantirish, ikkinchidan, novatorlik va yuqori mehnat unumdorligiga foydali rivojlantirishi lozim.

Korxonaning kadrlar siyosati amaliyotda fakat ichki vazifa va muammolarni hal qilishdan tashqari, bandlik sohasida davlat siyosatiga tayanadi va quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- fuqarolarning mehnat huquqi va kasb tanlash erkinliklarini amalga oshirishda bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash;

- fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga bandlik sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatining boshqa yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirish orqali ko‘maklashish;

- mehnat faoliyati davrida va nafaqaga chiqqandan so‘ng ham xodimlarning ijtimoiy muhofazasini ta‘minlash;

- aholi bandligi muammolarini yechishda, qo‘shma korxonalar tuzish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirish yo‘li bilan xalqaro hamkorlik yuritish va boshqalar.

Ish haqi – har bir xodimning sarflagan mehnati miqdori va sifatiga mos ravishda taqsimlanuvchi va xodim tasarrufiga pul shaklida kelib tushuvchi milliy daromadning bir qismidir.

Xodimlar mehnatiga haq to‘lash ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan mehnat resurslarining bahosidir. **Ish haqi** – mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining korxona xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun sarflanuvchi qismi.

Ish haqining nominal va real turlari mavjud:

Nominal ish haqi – xodimning ma‘lum bir vaqt mobaynida bajaragan mehnati uchun hisoblangan va to‘langan ish haqidir.

Real ish haqi – nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori: real ish haqi – nominal ish haqining iste‘mol qobiliyatidir.

Korxonalarda ish haqi sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va uni tashkil etishda quyidagi tamoyillarni inobatga olish zarur:

- adolatlilik, ya‘ni bir xil mehnat uchun bir xil haq to‘lash;

– bajarilayotgan ishning murakkabligi va mehnat malakasi darajasini hisobga olish;

– mehnatning zararli sharoitlari va og‘ir jismoniy mehnatni hisobga olish;

– sifatli, siddiqildan mehnat qilishni rag‘batlantirish, yo‘l qo‘yilgan yo‘qotishlar yoki o‘z majburiyatlariga ma‘suliyatsiz yondashishni moddiy jazolash;

– mehnat unumdorligi sur‘atini o‘rtacha ish haqining o‘sish sur‘atlariga nisbatan tezroq o‘stirish;

– ish haqi miqdorini inflyatsiya sur‘atlariga mos ravishda muvofiq-lashtirish;

– mehnatga haq to‘lashning korxona ehtiyojlariga to‘liq javob beruvchi ilg‘or shakl va tizimlarini qo‘llash.

Mehnatga haq to‘lashning ishbay va vaqtbay usullari mavjud.

Mehnatga ishbay haq to‘lash ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat) uchun to‘lanadigan haqni anglatadi.

Korxonalarda faqat ishbay emas, balki ishbay-mukofotli haq to‘lashdan foydalaniladi. **Mehnatga ishbay** – mukofotli haq to‘lashda ishchi bajargan ishga haq olishdan tashqari, mukofotga ham ega bo‘ladi. Mukofot asosan ma‘lum bir ko‘rsatkichlarga erishish - mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish, mahsulot sifatini oshirish, xomashyo va materiallarni tejash va shu kabilar uchun beriladi.

Mehnatga vaqtbay haq to‘lash tarif tizimida ko‘zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt - kalendar vaqt emas, balki me‘yoriy vaqt uchun to‘lanadigan haqni anglatadi. Vaqtbay – mukofotli haq to‘lashda ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma‘lum bir foiz hisobida mukofot ham oladi.

Mehnatga haq to‘lashning akkord usuli ishbay haq to‘lashning bir turi bo‘lib, mohiyatiga ko‘ra, bunda bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar muddatini ko‘rsatgan holda baholash amalga oshiriladi. Quyidagi hol-larda akkord haq to‘lash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishbay haq to‘lash shaklida ishchining ish haqi quyidagi formula bo‘yicha topiladi:

$$I_x = \sum H_m \cdot n_x \quad (5)$$

Bu yerda:

I_x – ishchining ishbay ish haqi;

H_m – mahsulot birligining ishbay narxi, so‘m;

n_s – bajarilgan jarayon va tayyorlangan detal va buyumlar soni;
 t – ish turlarining soni.

Misol : ishchi oy davomida 420ta buyum tayyorladi. Shundan 400 ta buyumning bir donasi 500 so'm dan va 20 ta buyumning bir donasi 3000 so'm dan. Ishchining oylik maoshi 260000 so'm.

$$I_s = (400 \cdot 500) + (20 \cdot 3000) = 260000 \text{ so'm},$$

Ishbay narxni quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$$H_m = \frac{T_s}{Q} \text{ yoki } H_m = \frac{V_{br} \cdot T_s}{60} \quad (6)$$

Bu yerda:

T_s – mazkur razryadli, soatli, oylik tarif stavkasi.

Q – ishlab chiqarilgan mahsulot soni.

V_{br} – mahsulot birligini tayyorlash uchun ketgan vaqt normasi.

Misol: bir soatda 4 dona detal ishlab chiqarilgan. Mazkur ish razryadi uchun bir soatlik tarif stavkasi 2000 so'm belgilangan. Bitta mahsulot uchun ishbay narx 500.

$$H_m = \frac{2000}{4} = 500$$

Misol. Ishlab chiqarish bosqichini bajarish uchun 0,1 soat vaqt normasi belgilangan. 4-razryadli ishchining soatli tarif stavkasi 2000 so'm bosqichning ishbay narxi

$$H_m = V \cdot T_s = 0,1 \cdot 2000 = 200 \text{ so'm}$$

Vaqtbay haq to'lashda ishchining ish haqi quyidagicha aniqlanadi:

$$I_{br} = T_s \cdot V \quad (7)$$

Bu yerda:

V – ishchining ishlab bergan vaqti

Agar ishchining soatli tarif stavkasi 2000 so'm bo'lib, u bir oyda 176 soat ishlab bergan bo'lsa, unda ishchining ish haqi 352000 so'm ni tashkil qiladi.

$$I_s = 176 \cdot 2000 = 352000 \text{ so'm}$$

Topshiriqlar:

1. Quyidagi tasdiqlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang:

- korxona foydasi maksimallashtirganda, bir vaqtning o'zida xarajatlar minimumlashadi;
- resurslar bahosi ularga bo'lgan talab va taklifga bog'liq;

- resurslarga talab hosila talab hisoblanadi;
- chegaraviy mahsulot bu-ortiqcha mahsulotdir;
- mehnat unumdorligining o'sishi faqat fan-texnika taraqqiyotiga bog'liq;
- mehnat intensivligi ishlovchining jismoniy va aqliy energiyasini sarflash darajasidir;
- ish haqi qilingan mehnat uchun to'lanadigan hakdir;
- ish haqi insonning ishlab chiqarish jarayonida sarflangan jismoniy, aqliy, ruhiy kuchlar yig'indisidir;
- tovar va xizmatlarning chakana narxi nominal ish haqiga nisbatan tezrok o'sib borsa, real ish haqi shunchalik kamayib boradi;
- nominal ish haqi bozordagi narx-navoga bevosita bog'liq;
- real ish haqining o'zgarishi bozordagi iste'mol buyumlari narxiga bevosita bog'liq;
- daromad solig'i oshgan sari real ish haqi ham oshib boradi.

2. Quyida mehnat va kapitalning chegaraviy miqdori va uning puldagi ifodasi keltirilgan. Bu ikkala resurs o'zgaruvchandir. Mehnatning bahosi - 2 doll, kapitalniki - 3 doll.

a) korxona 64 birlik, 99 birlik, 122 birlik mahsulot minimal xarajat qilgan holda ishlab chiqarish uchun qancha birlik mehnat va kapital sarflashi zarur;

b) korxona foydani maksimallashtirishi uchun qancha birlik mehnat va kapital sarflashi zarur va o'z mahsulotini qaysi bahoda sotish mumkin;

d) korxona maksimal foyda olish sharoitida mahsulotning umumiy kuchi kerak. Mehnatga talab $D1 = 1000 - 0.2V$ tenglamasi bilan aniqlanadi. Ishga yollash to'g'risidagi e'longa 700 ta kishi javob berdi. Shulardan 200 tasi kuniga 40000 so'm dan, 200 tasi kuniga 25000 so'm dan, 200 tasi kuniga 20000 so'm dan va 100 tasi kuniga 15000 so'mdan ish haqi olishga rozi.

a) qancha ishchi ish bilan band bo'ladi va ish haqi darajasi qancha bo'ladi;

b) davlat tomonidan ish haqining minimal darajasi kuniga 40000 so'm deb qonunlashtirilsa, u holda firma qancha ishchini yollaydi;

Mehnat hajmi	Mehnatning chegaraviy miqdori	Mehnatning chegaraviy miqdorining puldagi ifodasi	Kapital hajmi	Kapitalning chegaraviy miqdori	Kapitalning chegaraviy miqdorining puldagi ifodasi
1	10	5	1	21	10,5
2	8	4	2	18	9
3	6	3	3	15	7,5
4	5	2,5	4	12	6
5	4	2	5	9	4,5
6	3	1,5	6	6	3
7	2	1	7	3	1,5

4. Qanday iqtisodiy sharoitlarda mehnatga talab oshadi? Bizning manilakatda bunday sharoitlar bormi?

5. Talabani 150000 so'm puli bor. U bu pulni sarflash yoki saqlab qo'yish haqida o'y surmoqda. Agar u pullarni bankka qo'ysa, u holda bir yildan so'ng 168000 so'mga ega bo'ladi. Inflyatsiya yiliga 14 % ni tashkil etadi.

Talabaga qanday maslahat berar edingiz?

6. Quyidagi jumalardan tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib, to'g'ri javoblarni toping.

a) Ish kuchiga talab... o'zgarishiga qarab elastik bo'ladi. b)... o'sishi ish kuchiga talabni qisqartiradi. d) ish kuchiga talabning o'zgarishi... o'sishiga ham bog'liq. e) Ishsizlikning asosiy sababi... taraqqiyotidir.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Ish kuchining boshqa tovarlardan farqi nima?
2. Ish kuchidan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillar nimalar?
3. Ishlab chiqarish faoliyatining strategiyasi nimalarni o'z ichiga oladi?
4. Ish haqining qanday turlari mavjud?
5. Ish haqi sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va uni tashkil etishda qanday tamoyillar inobatga olinishi lozim?
6. Mehnatga haq to'lash usullari.
7. Nominal ish haqi va real ish haqi nima?
8. Mehnatga haq to'lashning akkord usuli nima?

6-mavzu. KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Ishlab chiqarish – bu, jamiyat a'zolarining yashashi, mamlakatning rivoji, taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish *jarayonidir*. Ishlab chiqarish jamiyat miqyosida ro'y bergani tufayli uni ijtimoiy ishlab chiqarish deb ataydilar. Ijtimoiy ishlab chiqarish o'zining bir-birini taqozo qiluvchi ikki tomoni ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari bilan ifodalanadi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish prinsiplarining uyg'unlashuvidan kelib chiqib, ishlab chiqarishning 3 ta asosiy turini ajratish mumkin:

- ommaviy
- seriyali
- yakka tartibli.

Ishlab chiqarish turidagi farq birinchi navbatda ish o'rinlarining ta'minlanish xarakterida yoki boshqacha qilib aytganda ularning ixtisoslashganlik darajasida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan barcha ish o'rinlarini 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Bir xil detallar ustida bir xil operatsiyani bajarishga ixtisoslashgan ish o'rinlari.
2. Bir nechta detallar ustida ma'lum bir ketma-ketlikda muntazam ravishda bir nechta doimiy operatsiyalarni bajaradigan ish o'rinlari.
3. Turli detallar ustida turli vaqtda turli xil operatsiyalarni bajaradigan ish o'rinlari.

Birinchi guruhdagi ish o'rinlari ko'proq ommaviy ishlab chiqarishga; ikkinchi guruh ish o'rinlari-seriyali ishlab chiqarishga, uchinchi guruh ish o'rinlari esa, yakka tartibli ishlab chiqarishga xosdir.

Bir korxonada turli xildagi ishlab chiqarish jarayonlari turlari qo'llanilishi mumkin. Ishlab chiqarish tipini belgilovchi belgilardan asosiysi bir turdagi mahsulotni konsentratsiyalash darajasi bo'lganligi sababli, ishlab chiqarish turi va ish o'rnini ta'minlanish ko'effitsiyenti orasida ma'lum bog'lanish mavjud.

Ish o'rining ta'minlash ko'effitsiyenti quyidagiga teng:

$$K = \frac{2850,37}{4080} = 0,258 \quad (\text{yirik seriyali ishlab chiqarish})$$

Shunday qilib korxona ixtisoslashuvi bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish bo'lamini belgilaydi, bu esa ishlab chiqarish turini aniqlaydi. Ommaviy ishlab chiqarishda korxonalar bir turdagi va katta hajmdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi.

Seriyali ishlab chiqarishda mahsulotning ayrim turlari partiyalab ishlab chiqariladi. Partiya miqdoridan kelib chiqib yirik seriyali va kichik seriyali ishlab chiqarishga ajratiladi.

Yakka tartibli (individual) ishlab chiqarishda yirik nomenklaturadagi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish turini xarakterlovchi quyidagi solishtirma jadvalni ko'rib chiqamiz (6.1-jadval).

Ishlab chiqarish turlarining solishtirma jadvali

6.1 - jadval

T/r	Ko'rsatkichlar	Ommaviy ishlab chiqarish	Seriyali ishlab chiqarish	Yakka tartibli ishlab chiqarish
1	Mahsulot turi	Juda kichik	Cheklangan	Keng
2	Ishlab chiqarish sexlari tuzilmasi	Buyumli - yakunlangan yoki buyumli texnologik	Buyumli texnologik yoki texnologik	Texnologik
3	Ishlab chiqarishni tashkil etish usuli	Potoklardan keng foydalanish	Potoklardan foydalangan holda partiyali	Ayrim uchastkalarda partiyali
4	Jihozning ixtisoslashuv darajasi	Mahsulot	Mahsulot universal	Universal
5	Jihozning joylashuvi	Ishlab chiqarish jarayoni yo'nalishida	Aralash	Bir turdagi ji-hozlar turi bo'yicha
6	Maxsus asbob va moslamalarni qo'llash	Keng	Cheklangan	Kam
7	Kadrlarning ixtisoslashuvi	Yuqori malakali, tor	Nisbatan keng	Universal ishlardan keng foydalanish

Ishlab chiqarishning xarakteri va tuzilmasi chiqarilayotgan mahsulotning o'ziga xosliklaridan, ishlab chiqarishning qo'llanilayotgan mehnat vositalaridek mehnat predmetlari va texnologik jarayonlari-

ga bog'liqdir. to'g'ri tashkil qilingan ishlab chiqarish ixtisoslashtirish, proporsionallik, parallellik, uzluksizlik, to'g'ri oqimlilik va ritmlilik kabi asosiy tamoyillariga amal qilib quriladi.

Ishlab chiqarishning ixtisoslashtirilishi – bu konstruktiv va texnik jihatdan o'xshash mahsulotlarini chiqarishni jamlashdir. Konstruktiv va texnologik o'xshashlik keng miqyosda unifikatsiyalashtirish yo'li bilan yaratiladi. Eng umumiy ko'rinishda unifikatsiya - ko'p xillikni unifikatsiyalashtirilayotgan obyektning yaxshilash bilan oqilona bir xillikka keltirishdir.

Proportsionallik – bu ishlab chiqarishning hamma bo'linmalarining ishlab chiqarish quvvatlarini qo'shishdir. U mahsulotni kerakli miqdorda, nomenklatura (ro'yhat) da, assortimentda va butlikda, tadbirkor belgilangan muddatlarda chiqarish imkonini beradi.

Parallellik – ishlab chiqarish jarayonining amallari va bosqichlarini bir vaqtda bajarishdir. Bu tamoyil pirovard mahsulot tayyorlash bo'yicha keng ish fraktini yaratish imkonini beradi.

Uzluksizlik – ishlab chiqarishni shunday tashkil qilishni, bunda bir amal boshqasidan so'ng bir smenada, smenalar o'rtasida, amal ichida va amallar orasidagi tanaffuslarsiz keladi.

To'g'ri oqimlilik – mahsulotning ishlab chiqarish jarayonida harakatlanishini oqilona tashkil qilish bo'lib, u mahsulotning tayyorlashning bir bosqichdan (amaldan) navbatdakisiga eng qisqa yo'l bilan harakatlanishini ta'minlaydi.

Ritmlilik – mahsulotlarni vaqtning teng buloqlari ichida bir xil yoki takrorlanuvchi mahsulotlarni o'sib boruvchi miqdorda chiqarishdir.

Yuqorida aytib o'tilgan tamoyillarga rioya qilishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni ratsional (oqilona tashkil qilingan) hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish asosida samaradorlikni oshirishning eng muhim masalalari:

1. Ishlab chiqarish jarayonlaridagi ayrim jarayonlarni operatsiyalarga ajratish va ularni sex, ishlab chiqarish uchastkalari, ishchi o'rinlarga birlashtirish;

2. Sex va ishlab chiqarish uchastkalari maydonlariga dastgohlarni ishchi o'rinlarga mos holda joylashtirish;

3. Mehnat qurollarini ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalar bo'yicha kuzatish tartibini belgilash hamda ishlab chiqarish jarayonlarining to'liq yoki bir qismi maromini hisoblash;

4. Belgilangan texnologik jarayonlar va ularning o'zaro bog'liqligi, mehnat qurollari harakati maromi va tartibiga qat'iy rioya qilish;

5. Korxona va ularning ishlab chiqarish bo'limlarida ishlab chiqarish jarayonlarining borishini nazorat qilish va operatsion boshqarish;

6. Ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarish jarayonlari maromi buzilgan uchastkalarga tatbiq qilishdan iborat.

Ishlab chiqarishning samaradorligini oshiruvchi amallar bu texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilishdir.

Texnika (mashinalar, mehanizmlar, ishlab chiqarishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi) ishlab chiqarishni mehanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish imkonini beradi.

Qisman va kompleks mehanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni farq qilishga kelishib olingan.

Qisman mehanizatsiyalashtirish—mehanizatsiyalashtirishning boshlang'ich shakli bo'lib, u ishlab chiqarishning ayrim jarayonlarida, ko'proq va asosan asosiy jarayonlarda ko'p mehnatini mashinalar mehanizmlari ishi bilan almashtirish bilan ifodalanadi (xarakterlanadi). Qisman avtomatlashtirilganida ishlab chiqarishning ayrim amallari va jarayonlari avtomatik mashinalar, mehanizmlar va uskunalar bilan, shu sonning ishtirokisiz amalga oshiriladi. Bu mehnat qurollari odatdagi, avtomatlashtirilmagan mashinalar orasida o'zaro harakat qiladigan tizim tashkil qilmasdan ishlaydilar.

Texnologiya – xomashyoni qayta ishlash usullari va usullari to'g'risidagi fan sifatida yirik mashinasozlik sanoatining rivojlanishi munosabati bilan u bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Hozirgi vaqtga kelib, sanoat ishlab chiqarishning texnologiyasi bilimlarning mustaqil tarmog'i darajasigacha o'sdi, juda keng nazariy va amaliy materiallar to'pladi. Ta'riflovchi fandan u vatanimizdagi va ishchilardagi kashfiyot-lar va ixtirolarga, ilg'or tajribaga asoslangan aniq fanga aylandi. Texnologiya ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga og'ir va zerikarli darajada bir xil mehnatni qisqartirishga ta'sir qiladi.

Texnologik jarayon – bu mehnat buyumlari o'zgarishi (shakli, tashqi ko'rinishi, katta-kichikligi, agregatlik holati, tuzilishi va h.k.)ning natijasi bo'lib, tabiiy jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday holda jonli mehnat ishtirok etmaydi (masalan, quritish - quyma, betonning qurishi, material yoki detallar moylangandan so'ng

atmosfera sharoitida qurishi), lekin bu jarayon ma'lum darajada kishilar nazorati ostida olib boriladi.

Mehnat jarayoni – bu jismoniy va aqliy energiyaning sarflanishi bo'lib, iste'mol qiymati yaratishga qaratilgandir.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilishda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- ixtisoslashtirish;
- mutanosiblik;
- parallellik;
- bir tekis, ketma-ket yo'nalish;
- uzluksizlik;
- bir me'yoriylik;
- avtomatlashganlik;
- sinxronlash.

Bu tamoyillarning mohiyati quyidagilardan iborat.

Ixtisoslashtirish tamoyili. Ixtisoslashtirish – bu ijtimoiy mehnat taqsimotining shakli bo'lib, sanoat ishlab chiqarishida rejali ravishda rivojlanadi va sanoat tarmoqlari, korxona sexlari, uchastkalar, liniyalar va ayrim ish joylarining ajralishini shart qilib qo'yadi.

Mutanosiblik tamoyili. Ishlab chiqarish jarayonlarining mutanosibligi shuni bildiradiki, bunda hamma ishlab chiqarish bo'limlari (asosiy va yordamchi tsehlar, bu sexlar **ichidagi** uchastka va liniyalar, uskunalar guruhi va ish joyi)ning ishlash qobiliyati (vaqt birligi ichida mehnat unumdorligining nisbati) bir-biriga o'zaro aniq mos keladi.

Parallellik tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati ishlab chiqarish jarayonining bir necha ayrim qismlarini bir paytda bajarishdan iborat, ya'ni mahsulot tayyorlash bo'yicha amalga oshiriladigan ish keng bo'lamda tashkil qilinadi.

Uzluksizlik tamoyili deganda, ishlab chiqarish jaryonida rejasiz to'xtash, tanaffus bo'lmasligi, ya'ni uzluksiz ishlash tushuniladi.

Bir me'yoriylik tamoyili o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish bo'limlari, bir xil oraliqdagi ish vaqtida berilgan dasturga asosan bir xil hajmdagi ishning bajarilishi bilan tavsiflanadi.

Avtomatlashganlik tamoyill. Bu tamoyil ishlab chiqarish jarayonlarining operatsiyalarini maksimal avtomatik ravishda, ya'ni ishchilarning bevosita qatnashmasligi yoki ularning nazorati ostida bajarilishini talab etadi.

Sinxronlash tamoyili. Ishlab chiqarish jarayonini sinxronlash faqat uzluksiz ishlab chiqarish hamda ko'proq avtomatik ishlab chiqarishning xarakterli xususiyatidir. Ishlab chiqarish jarayonini sinxronlash deganda quyidagilar tushuniladi:

- operatsiyalarni bajarishga ketgan vaqt sarfi (operativ vaqt)ning teng bo'lishi;

- mehnat buyumlarini operatsiyalararo va liniyalararo transportirovka qilish uchun ketgan vaqt sarfining teng bo'lishi;

- ish joyiga xizmat ko'rsatish va ishchilarning dam olishi bo'yicha operativ ishlardagi tanaffuslarning tengligi;

- mehnat buyumlarining potokdagi harakatini tashkil etish paytida operatsiyalar tugashi bilan ularni transportirovka qilish boshlanadigan vaqtining bir-biriga mos kelishi.

Ushbu to'rt shartdan hatto bittasiga rioya qilinmasa ham ishlab chiqarish jarayoni ozmi-ko'pmi sinxronlashmaydi.

Korxonalarni rivojlantirish va joylashtirish masalasining qo'yilishi va yechimi umumiy holda bitta hisob doirasida quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlashga olib keladi:

- yangi korxonalarining joylashishi;

- korxonani ixtisoslashtirish va yiriklashtirish ko'rsatkichlari;

- tarmoqning rivojlanish surhati, shu tarmoq mahsulotibilan milliy iqtisodiyot talabini qondirish darajasi, xomashyo, materiallar, butlovchi va tayyor buyumlar yetkazib beruvchi hamkorlashgan bog'lanishlar sxemasi;

- tarmoqning umumxo'jalik resurslariga bo'lgan ehtiyoj hajmi, shu tarmoq uchun xususiy resurs ehtiyojlari hajmi va boshqa ko'rsatkichlar.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish deb, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida milliy iqtisodiyotning turli tarmoqli korxonalari o'rtasidagi, shuningdek tarmoqlar va korxonalar ichidagi ijtimoiy mehnat taqsimoti shakllariga aytiladi.

U korxonalarda muayyan turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni bir yerga to'plashni ko'zda tutadi.

Ixtisoslashtirishning quyidagi asosiy shakllari mavjud: tarmoq va korxona bo'yicha ixtisoslashtirish; korxona ichida ixtisoslashish; tarmoq bo'yicha ixtisoslashish, bunda korxona yoki bo'limlar shu tarmoqning o'ziga taalluqli bo'lgan tuzilishi, texnologiyasi va materiallari jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi.

Sanoatda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish 4 shaklda rivojlanadi:

– buyum jihatidan ixtisoslashda korxonalar tuzilishi va bajaradigan ishi bir xil bo'lgan cheklangan tayyor mahsulot ishlab chiqaradi. Masalan: traktorlar, avtomobillar, dastgohlar va h.k.;

– detal jihatidan ixtisoslashishda korxonalar tayyor mahsulotning ayrim qismlarini va detallarni ishlab chiqaradi. Masalan: reduktorlar, podshipniklar, tishli g'ildirak va h.k.;

– texnologik jihatdan ixtisoslashishda korxonalar texnologik jarayonning alohida bosqichlarini bajaradi. Masalan: detal quyish, shtamplash va h.k.;

– yordamchi ixtisoslashgan korxonalar. Bular jumlasiga po'lat quyish, temirchilik, asbob-uskuna ishlovchi korxonalar kiradi.

Hamkorlik deb, ma'lum bir murakkab mahsulotni birgalashib tayyorlaydigan maxsus ixtisoslashgan korxonalar o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarining o'rnatilishiga aytiladi. Odatda, hamkorlik bo'yicha yarim fabrikatlar, detallar va komplekt buyum yetkazib beriladi. Korxonaning ixtisoslashtirish darajasi qanchalik tor bo'lsa, uning boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish aloqalari shunchalik keng bo'ladi.

Ishlab chiqarish hamkorligini rivojlantirish mahsulot ishlab chiqaruvchi bosh korxonalar va ularga kerakli narsalarni yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan tuzilgan hamma xo'jalik shartnomalarini to'la - to'kis jiddiy ravishda bajarishga bog'liqdir.

Ishlab chiqarish hamkorligining quyidagi turlari mavjud:

– buyum hamkorligi, bunda bir korxona boshqa korxonaga, tayyor mahsulotni, masalan: samolyot yig'ish uchun akkumulyator, radiator, ovoznigor (priyomnik) yetkazib beradi;

– detal bo'yicha hamkorlik, bunda bosh korxonaga boshqa korxonalar alohida detallarni, yig'ish birikmalarini yetkazib beradilar;

– texnologik hamkorlikda bitta korxona boshqa korxonalar uchun alohida texnologik jarayonni bajaradi yoki tanovar (quyma, upakovka, shtampovka) larni yetkazib beradi.;

– tarmoqlararo hamkorlik. Bunda xar xil sanoat tarmog'iga tegishli ikkita korxona hamkorlik qiladi. Masalan: samolyotsozlik korxonasi ovoznigor korxonasi bilan hamkorlik qiladi;

– tarmoq ichidagi hamkorlik. Bunda bir sanoat tarmog'iga tegishli ikkita korxona o'rtasida hamkorlik o'tkaziladi. Masalan: samolyotsozlik korxonasi samolyotga motor ishlab beruvchi korxona bilan hamkorlikda bo'ladi;

– rayonlararo hamkorlik. Bunda har xil iqtisodiy rayonlarda joylashgan korxonalar oʻzaro hamkorlikda boʻladilar;

– rayon ichidagi hamkorlik. Bunda bitta rayonda joylashgan ikkita korxona orasida hamkorlik oʻrnatiladi.

Ishlab chiqarishni yiriklashtirish deb, bir necha turdagi ishlab chiqarishlarni bir yirik korxonada jamlashga aytiladi. Yiriklashgan korxonalarda asosiy ishlab chiqarish bilan birgalikda yordamchi ishlab chiqarish ham mavjuddir.

Yordamchi ishlab chiqarish asosiy ishlab chiqarish uchun boʻlgan asbob-uskuna, energiya turlari bilan, zarur boʻlganda dastgoxlarni tamirlash va tuzatish uchun xizmat qiladi. Masalan: asbobsozlik, moslama, energiya ishlab chiqarish sexlari hamda mehanik taʼmirlash sexlari kiradi. Ishlab chiqarishni yiriklashtirishning asosiy maqsadi murakkab, juda katta hajmga ega boʻlgan va ishlab chiqarishda uzoq davr hukm surmaydigan mahsulotlarni yetkazib berishdan iborat. Masalan: samolyotsozlik, kemasozlik va h.k.

Yiriklashgan ishlab chiqarishning foydali tomonlari:

– ishlab chiqarish jarayonlarining birgalikda ishlashi bunday korxonalarda har qanday murakkab mahsulotning qisqa vaqt ichida ishlab chiqarilishini taʼminlaydi;

– mavjud asosiy ishlab chiqarish fondlari samarali ishlatiladi. Chunki katta mehnat hajmi ishlab chiqarishda ishni bir kecha-kunduzda bir necha smenada tashkil qilinishiga shart-sharoit yaratadi;

– asosiy materiallar samarali ishlatiladi, chunki asosiy ishlab chiqarishning chiqindisidan xalq uchun keng isteʼmol mollarini ishlab chiqarishga imkoniyat yaratiladi. Ishlab chiqarish yiriklashtirilgani sari ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat koʻrsatish sohasidagi umumiy xarajatlar mahsulot ishlab chiqarishning koʻpayishiga nisbatan kamroq darajada ortadi, bu ularni tejab qolishga olib keladi.

Kamchiliklari:

– yirik korxonalarni loyihalash, qurish, ishga tushirish juda koʻp vaqt talab qiladi;

– bunday korxonalarni qurishga va uni ishga tushirishga sarflanadigan mablagʻlar uzoq vaqtdan keyin oʻzini toʻplaydi.

Kombinatsiyalashtirish deb bir necha korxonalarni bir maydonda joylashib tayyor mahsulot ishlab chiqarishiga aytiladi. Kombinatsiyalashtirish natijasida kombinatlar paydo boʻlib ular 3 xil boʻladi:

– xomashyoga ketma-ket ishlov berib, undan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar. Masalan: metallurgiya kombinati, bunda choʻyan, poʻlat va prokat ishlab chiqarish jarayonlari ketma-ket bajariladi;

– xomashyoni kompleks tarzda qayta ishlash, bu asosan neft, kimyo kombinatlari va rangli metallarni qayta ishlash kombinatlarini tashkil qilishda qoʻllaniladi;

– bir korxonaning ishlab chiqarishdagi chikindilari ikkinchi korxona uchun xomashyo sifatida ishlatiladi. Masalan: yogʻochsozlik korxonalaridan chiqadigan qirindi va qipiqlardan karton va qipiq plitalar ishlab chiqaradigan korxonalar.

Kombinatsiyalashtirish korxonalarning foydali tomoni:

– ular eng yuqori mehnat unumdorligiga ega boʻladi, chunki ularda mehnatni mehanizatsiyalashtirish keng koʻlamda qoʻllaniladi.

– korxonalarning omborlarida xomashyo zahiralari deyarli koʻp boʻlmaydi.

– bunday korxonalarda yuklarni tashish uchun oʻzi yurar transport vositalaridan foydalanishga ehtiyoj boʻlmaydi, chunki barcha mehnat buyumlarini bir ish joyidan boshqa ish joylariga uzatish jarayonlari avtomatik ravishda bajariladi.

Oʻz-oʻzini nazorat qilish uchun savollar

1. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish deb nimaga aytiladi?
2. Ixtisoslashtirishning asosiy shakllari qaysilar?
3. Hamkorlik deb nimaga aytiladi?
4. Ishlab chiqarish hamkorligining qanday turlari mavjud?
5. Ishlab chiqarishni yiriklashtirish deb nimaga aytiladi?
6. Yiriklashtirishning afzalliklari va kamchiliklari?
7. Kombinatsiyalashtirish deb nimaga aytiladi?
8. Kombinatlarda necha xil boʻladi va ularning afzalligi?
9. Ishlab chiqarish jarayoni tushunchasi va mohiyati.
10. Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish tamoyillarini sanang.

Rejalashtirish mo'ljallangan ish yoki ma'lum bir harakatlarni bajarish muddati, tartibi va ketma-ketligini ko'zda tutuvchi chora-tadbirlar tizimi. Rejalatirish tartibga soluvchi jarayon sifatida korxona faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab berishni ifodalaydi.

Bashorat qilish xo'jalik faoliyati yurituvchi subyektning istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni ilmiy asoslagan holda avvaldan ko'ra bilishini ifodalaydi. **Strategik rejalashtirish** – o'rta va uzoq muddatli bashoratlar asosida, joriy rejalashtirish qisqa muddatli bashoratlar asosida ishlab chiqiladi.

Bashoratning maqsadi – bozorga ta'sir qiluvchi omillarni, shu bilan birga, xo'jalikning umumiy ahvoli, tuzilmaviy siljishlar, investitsion faollik, fan-texnika taraqqiyotining iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarga ta'sir ko'rsatishi, ana'naviy mahsulotlardan tashqari korxonani barqarorlik va raqobatbardoshlikka olib keluvchi yangi mahsulot ishlab chiqarish istiqbolida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni belgilashdadir.

Bashorat- korxona, obyekt yoki hodisaning kelajakdagi alivoli va ularni amalga oshirish variantlari va muddati to'g'risidagi ilmiy asoslangan mulohazadir. Bashoratlarni ishlab chiqish jarayoni bashorat qilish, ya'ni kelajakni hozirgi vaqtdan kelib chiqqan holda oldindan ko'ra bilish deb ataladi. Iqtisodiy bashoratlarning asosiy vazifalari: rivojlanish maqsadlarini belgilash, optimal yo'nalishlar va ularga erishish vositalarini izlab topish, resurslarni va qo'yilgan vazifalarni bajarish muddatlarini belgilash, korxona rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan cheklashlarni aniqlash.

Rejalashtirish – balans, me'yoriy, iqtisodiy-matematik, statistik, omillar bo'yicha, ko'p variantli hisob-kitob usullaridan iborat.

Me'yor – belgilangan sifatdagi mahsulot birligi tayyorlash uchun sarflanuvchi xomashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslardan foydalanishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal yoki minimal chegarasidir.

Me'yoriy – nisbiy kattalik bo'lib, asosan foizlar yoki koeffitsiyentlarda aks ettiriladi. U mehnat vositalari va predmetlaridan foydalanish darajasini, ularning xar bir maydon birligi, og'irlik birligi, hajm birligiga sarflaninshini ifodalab beradi.

Me'yor va me'yoriylar quyidagi asosiy guruhlar asosida ishlab chiqiladi:

- tirik mehnat xarajati me'yoriylari;
- moddiy xarajat me'yoriylari;
- ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish me'yoriylari;
- mehnat vositalaridan foydalanish me'yoriylari;
- korxona seh asbob-uskunalarining loyihaquvvatiga chiqish vaqti

me'yoriylari.

Rejalashtirishning asosiy vazifalari quyidagilar:

- maqsadni belgilash;
- korxona faoliyatining turli xil yo'nalishlari, iqtisodiyot va aholi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy ji maqsadga muvofiqligini asoslab berish;
- zarur moddiy-texnika asosini shakllantirish;
- moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- yakuniy natijalarning ijobiy bo'lishiga erishish.

Rejalashtirish tamoyillari:

- ilmiylik tamoyili;
- majmuaviylik tamoyili;
- proporsionallik tamoyili;
- uzluksizlik tamoyili;
- optimallik tamoyili;
- moslashuvchanlik tamoyili.

Rejalashtirish turlari:

- strategik rejalashtirish (10-15);
- uzoq muddatli rejalashtirish (3-5);
- qisqa muddatli rejalashtirish (1-3);
- joriy rejalashtirish (choraklar).

Rejalashtirish boshqarish jarayoni sifatida o'z texnologiyasiga e bo'lib, bu texnologiya korxonaning rejalashtirilayotgan davrd. maqsad va vazifalarini aniqlash, bajaruvchilarga muayyan vazifala belgilash, vazifalarning turi, kattaligi va muddatiga ko'ra aniqlashtiri shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati natijasi - daromad yoki foy olishni o'z ichiga oladi. Bu vazifalarni bajarishda quyidagi omil hisobga olinadi:

- ishlab chiqarish quvvatining mavjudligi va tuzilmasi;
- xodimlar soni, ixtisos tarkibi va malakasi;
- moliyaviy resurslar;

- aylanma mablag‘lar mavjudligi va unga bo‘lgan ehtiyojlar;
- ilmiy-texnik tadqiqotlar tuzilmasi va tayyorlik darajasi;
- mahsulotni sotish kanallari.

Rejalashtirish quyidagi talablarga javob bergan taqdirdagina samarali va ishonchli hisoblanadi:

– rejalashtirishning xar bir elementi va bosqichi qat’iy ravishda asoslab berilishi;

– rejadagi vazifaning aniq va o‘z vaqtida bajarilishi, ya’ni rejaning adretililigi;

– reja bajarilishini doimiy va uzluksiz ravishda hisobga olish, nazorat qilish va unga zarur xollarda o‘zgartirishlar kiritish;

– ichki va tashqi muxitdagi o‘zgarishlarni ijobiy qabul qilish, shuningdek, korxona faoliyatini ro‘y bergan o‘zgarishlarga mos ravishda o‘z vaqtida qayta tashkil qilish;

– fan-texnika taraqqiyoti va xo‘jalik yuritishning ilg‘or tajribalariga tayanish.

Rejalashtirishning xar bir turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, quyidagilardir:

– belgilangan rejalashtirish oraliq‘ining aniqliligi;

– integratsiya va differensiatsiya darajasi, shuningdek, rejalashtirilayotgan ko‘rsatkichlar miqdori;

– ishlab chiqarish xarajatlari va natijalarini hisob-kitob qilish darajasining aniqliligi;

– rejani tayyorlovchilar va amalga oshiruvchilar o‘rtasidagi majburiyatlarni taqsimlash tartibi.

Biznes-rejalarda eng muxim rejalashtirish ko‘rsatkichlari quyidagilar:

– ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va hajmi;

– mahsulot sotish hajmi (pul ko‘rinishida);

– mahsulot birligining tannarxi;

– foyda (daromad);

– kategoriyalar bo‘yicha xodimlar soni;

– mehnatga haq to‘lash fondi va o‘rtacha ish haqi darajasi;

– omborlardagi xomashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zahiralari;

– aylanma vositalar hajmi- umumiy va guruhlar bo‘yicha;


– kapital qo‘yilmalar hajmi, jumladan, qo‘yilma obyektlari va yo‘nalishlari bo‘yicha;

I variant	II variant	III variant	IV variant	V variant
1. Bo'lajak biznesni qisqacha ta'riflash	1. Biznes-rejaga kirish	1. Tanlangan biznes konsepsiyasi	1. Kirish	1. Firma imkoniyatlari (rezюме)
2. Bozor	2. Biznesni identifikatsiyalash	2. Ayni paytdagi vaziyat	2. Korxonani ta'riflash	2. Tovar (xizmat) turlari
3. Xodimlar malakasi va tajribasi,	3. Maqsad	3. Yaratilayotgan korxona	3. Mahsulotni ta'riflash	3. Tovar (xizmat) sotuv bozori
mavjud	4. Biznesni ta'riflash	4. Boshqaruv	4. Marketing rejasi	4. Sotuv bozorida raqobat
moliyaviy vositalar	5. Bozor	5. Bozor tahlili va tadqiqotlari	5. Ishlab chiqarish rejasi	5. Marketing rejasi
4. Taklif qilinayotgan mahsulot ustunliklari	6. Raqobat	6. Marketing harakatlari rejasi	6. Tashkiliy reja va menejment	6. Ishlab chiqarish rejasi
5. Bo'lajak biznesni tashkil qilish	7. Menejment	7. Ishlab chiqarish rejasi	7. Moliyaviy reja	7. Tashkiliy reja
6. Kelajakka nazar	8. Xodimlar	8. Riskni baholash	8. Loyiha samaradorligi	8. Firma faoliyatining huquqiy ta'minoti
7. Moliyaviy vazifalar	9. Joylashuv	9. Moliyaviy reja	9. Ilova	9. Riskni baholash va sug'urtalash
8. Pul mablag'laridan foydalanish	10. Moliyaviy ma'lumotlar			10. Moliyaviy reja
9. Ilova	11. Hisobot			11. Moliyalashtirish strategiyasi
10. Biznes tarixi	12. Qisqacha mazmun			

Keltirilgan variantlardan ko'rinib turibdiki, biznes-rejaning qat'iy tartibga solingan tuzilmasi mavjud emas. Biroq biznes-rejalarning har bir turi uchun xarakterli bo'limlar mavjud bo'lib, ularda tanlangan biznes (ishlab chiqarish) konsepsiyasi, taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning o'ziga xosliklari, marketing va menejment, riskni baholash, moliyaviy ta'minot va natijalar aks ettiriladi.

Yirik yoki o'rta hajmli korxona uchun biznes-reja strukturasi quyidagi sxema shaklida aks ettirish mumkin.

Biznes-rejaning har bir bo'limi o'z mazmuniga, ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisob-kitob qilish usullariga ega bo'ladi.



7.1-rasm. Firmada ichki rejalashtirish

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Rejalashtirish va reja nima?
2. Bashoratning maqsadi nimani belgilaydi?
3. Me'yor va me'yoriy nima?


4. Rejalashtirish turlari.
5. Rejalashtirish tamoyillarini aytib bering.
6. Rejalashtirish qachon samarali va ishonchli sanaladi?
7. Biznes-reja ko'rsatkichlarini sanab ko'rsating.

8- mavzu. SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI, MAHSULOT TAN NARXI VA NARXI

Korxonaning ishlab chiqarish, sotish va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarni quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokiga ko'ra:
 - ishlab chiqarish xarajatlari;
 - noishlab chiqarish xarajatlari.
 2. Ishlab chiqarish resurslarining manbaiga ko'ra:
 - ichki xarajatlar;
 - tashqi xarajatlar.
 3. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga nisbatan:
 - doimiy xarajatlar;
 - o'zgaruvchan xarajatlar.
 4. Mahsulot tannarxiga olib borilishi jihatidan:
 - bevosita xarajatlar;
 - bilvosita xarajatlar.
 5. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan:
 - mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
 - davr xarajatlari;
 - moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
 - favqulodda zararlar.
- Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita ishlab chiqarish jarayoni amalga oshirish bilan bog'liq quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:
- bevosita moddiy xarajatlari;
 - bevosita mehnatga haq to'lash xarajatlari;
 - ishlab chiqarishga taalluqli ustama xarajatlar.
- Bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajat turlari noishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi. Uning tarkibiga:
- mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlar;
 - boshqaruv xarajatlari;

- boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;
- favqulodda zararlar kiradi.
- tashqi xarajatlar, o'z mahsulotini ishlab chiqarish uchun zarur narsalarni o'z ichiga oladi (xomashyo, yoqilg'i, transport, aloqa, soliq to'lovlari).
- ichki xarajatlar, binolar, asbob-uskunalar va boshqa sarflarning hammasini o'z ichiga oladi.



8.1-rasm. Xarajatlarning turkumlanishi

O'zgarmaydigan xarajatlar – doimiy xarajatlardir. Bularga renta to'lovlari, qarz foizi, reklama, ijara haqi, oldindan to'lanishi ko'zda tutilgan maoshlar kiradi.

O'zgaruvchan xarajatlar deb, ishlab chiqarish hajmiga nisbatan to'g'ri proporsional bo'lgan xarajatlarga aytiladi.

Mahsulot tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi guruhlariga taqsimlanadi:

- moddiy xarajatlar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- ish haqi xarajatlari;
- ijtimoiy ehtiyojlarga bo'lgan xarajatlar;

- boshqa xarajatlar.
- moddiy xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:
 - xomashyo va material xarajatlari;
 - yoqilg'i va energiya;
 - sotib olinuvchi butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar;
 - qadoqlash va o'rov materiallari;
 - ehtiyot qismlar;
 - boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;
 - tabiiy xomashyodan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlar;
 - ishlab chiqarishda bekor turib kolish va sifatsizlik tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar;
 - tabiiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo'lmagan holda yuzaga keladigan yo'qotishlar.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklanish) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish), lizing bo'yicha tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar eskirishi xar oyda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi.

Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar elementlar qatoriga quyidagilar kiritilgan:

- amalda bajarilgan ish uchun tarif stavkalari, lavozim maoshlari;
- xodimlarga natural to'lov shaklida beriluvchi mahsulotlar qiymati;
- ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun beriluvchi mukofot va boshqa to'lovlar;
- xar yillik mehnat va o'quv ta'tili uchun amalga oshiriluvchi to'lovlar;

– qonunchilikka asosan baʼzi tarmoqlardagi xodimlarga bepul beriluvchi kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kommunal xizmat va h.k.;

– shtatlar qisqarishi tufayli ishdan boʻshatilgan xodimlarga toʻlanuvchi mablagʻlar.

Ijtimoiy sugʻurtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

– qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar boʻyicha mehnatga haq toʻlash fondiga ijtimoiy majburiy ajratmalar;

– nodavlat pensiya jamgʻarmalariga, ixtiyoriy tibbiy sugʻurtaga, bandlik fondiga ajratmalar.

Mahsulot tannarxidagi boshqa xarajatlar:

– qonunchilikda belgilangan tartibda maxsus no budget fondlarga oʻtkaziluvchi toʻlovlar va soliqlar;

– chikindilar uchun toʻlovlar;

– korxona mulkini majburiy sugʻurtalash;

– ratsionalizatorlik takhiflari uchun mukofotlar;

– mahsulotni sertifikatlashtirish uchun bajarilgan ishlarga haq toʻlash;

– xizmat safariga haq toʻlash;

– yongʻinga qarshi kurash va qoʻriqlash muassasalariga haq toʻlash;

– kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlar tanlovini tashkil qilishga haq toʻlash;

– aloqa xizmati, hisoblash markazlari, bank xizmatiga haq toʻlash;

– asosiy fondlarni ijaraga olganlik uchun haq toʻlash;

– nomoddiy aktivlarning eskirishi va h.k.

Mahsulot tannarxini pasaytirish manbalari va omillari.

Tannarxda korxona ishlab chiqarish faoliyatining sifat koʻrsatkichlari ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish texnologiyasi va mehnatni tashkil etish darajasi, korxonani tejamkorlik bilan va oqilona yuritish omillari, mahsulot ishlab chiqarishni yuksaltirish sharoitlari oʻz aksini topadi.

Mahsulot tannarxini hisoblashdan koʻzda tutilgan asosiy maqsad - uni ishlab chiqarishga sarflangan haqiqiy xarajatlarni tegishli hujjatlarda oʻz vaqtida, toʻliq va ishonchli aks ettirish hamda moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan tejamkorlik asosida, oqilona foydalanish ustidan nazorat oʻrnatishdir.

Mahsulotning (ishning, xizmatning) ishlab chiqarish tannarxiga uni bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli:

- bevosita moddiy xarajatlar;
- bevosita mehnat xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bilvosita ustama xarajatlar.

Mahsulot tannarxining bevosita va bilvosita xarajatlari tarkibi

Xarajat moddalari	Mahsulot tannarxiga olib borilishi jihatidan	
	bevosita	bilvosita (ustama)
Xomashyo va asosiy materiallar (qayta kirim qilingan chiqillardan tashqari)	+	
Sotib olingan butlovchi qismlar va yarim fabrikatlar	+	
Ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar		+
Texnologik maqsadlar uchun ishlatilgan yoqilg'i energiya	+	
Ishlab chiqarishga tegishli mehnatga haq to'lash xarajatlari	+	
Ishlab chiqarishga tegishli ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	+	
Moddiy qiymatliklar kamomadi va mahsulotlarning buzilishidan ko'rilgan zararlar	+	
Asosiy vositalar amortizatsiyasi		+
Ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar		+

Mahsulot tannarxi bir turdagi mahsulotni bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini shu mahsulot miqdoriga bo'lish orqali topiladi:

$$MT = MX + IX + ST + A + BIX \text{ IM}$$

Bu yerda:

MT – mahsulot tannarxi, so'm;

MX – ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari, so'm;

IX – ishlab chiqarish xususiyatidagi mehnatga haq to'lash xarajatlari, so'm;

ST – ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta to'lovlari, so'm;

A – asosiy vositalar amortizatsiyasi, so'm;

BIX – boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, so'm;

M – mahsulot miqdori, sentner, dona, kg, tonna va hokazo.

Baho-tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Bahoning turlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular yagona tizimni tashkil etadi. Mazkur tizimning muhimi elementlari quyidagilardir:

–ulgurji baholar. Ular firmalar o'z mahsulotlarini katta hajmda boshqa firmalarga yoki vositachilarga va ulgurji savdo tashkil otlariga sotayotganligida qo'llaniladi. Ugurji baho korxonalarga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashni, zarur foyda olishni ta'minlanishi zarur;

–chakana baholar. Ulardan tovarlarni bevosita istemolchilarga sotishda foydalaniladi. Bu baholarga davlat savdosi, xususiy shaxsiy mulk egalari do'konlari va bozorda yuzaga kelayotgan baholar kiradi. Chakana baho darajasi aholining real daromadlari bilan belgilanadi;

–xarid baholari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat tomonidan sotib olinishida ishlatiladi;

– dunyo baholari xalqaro savdo munosabatlarida qo'llaniladi.

Baholarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

– ulgurji baholar. Tovarlar ko'tarasiga katta miqdorda sotilganda bu baholardan foydalaniladi. Bunday bahoni asosan ulgurji savdo - sotik olib boriladigan savdo markazlarida uchratish mumkin.

–chakana baholar. Tovarlar bevosita istemolchilarga sotilganda foydalaniladi. Bu baho o'z ichiga tovar ulgurji narxini, chakana savdo tashkilotchilarining xarajati va foydasini oladi.

– nufuzli baholar. Bu baholardan obro'talab istemolchilarga tovarlar sotilganda va xizmatlar ko'rsatilganda foydalaniladi.

–dotatsiyali baholar. Bunda tovarlar davlat byudjeti hisobidan arzonlashtirilgan baholarda olinadi.

–davlat baholari. Bu ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan buyurtma berilganda qo'llaniladi.

– mavsumiy baholar. Bu mavsumiy ishlab chiqariladigan tovarlarga belgilanadi.

–milliy va jahon baholari-alohida tovarning baynalminal xarajatlari.

Bunda jahon bozoridagi talab va taklif nisbati hisobga olinadi.

– standart baholar. Xaridor cho‘ntagidagi pulga qarab, ma’lum davrgacha o‘zgarmaydigan qat’iy standart narxlar qo‘llaniladi.

– preyskurant baholar. Bu baholar sotuvchi uchun mo‘ljal Baho, xaridor uchun bildirishlik yoki ma’lumot baho hisoblanadi.

– ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun muzokaralarga tayyorgarlik ko‘rish mobaynida tadbirkor eng avvalo, o‘zi uchun maqbul bo‘lgan baho ko‘rsatkichlarini aniqlashga xarakat qiladi. Shu maqsadda u bahoni uchga ajratadi. Ya’ni maksimal (eng yuqori), minimal (eng past) va obektiv Baho.

– **maksimal baho** – (sotuvchi nuqtai nazaridan) – bu muzokaralarni shu Bahodan boshlash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichidir.

– **minimal baho** – (qo‘shilishi mumkin bo‘lgan eng past baho) – bu tovar narxining shunday ko‘rsatkichiki, tadbirkor muzokaralar davomida undan tushmaslikka xarakat qiladi.

– **obyektiv baho** – bu, tarkibida o‘rtacha sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan u yoki bu tovarning o‘rtacha bahosidir.

Istemol rayonlariga tayyor mahsulotni yetkazib berish xarajatlari.

a) tayyor mahsulotning umumiy og‘irligi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$O_{r.nij} = N \cdot qk \cdot \beta_{ij} \quad (1)$$

Bu yerda,

$O_{r.nij}$ – j – rayonda istemol qilinadigan mahsulotning umumiy og‘irligi, tonna;

N – mashinasozlik kompleksi ishlab chiqaradigan mahsulotning yillik dasturi, dona;

qk – bir komplekt texnologik jihoznining o‘rtacha og‘irligi, tonna;

β_{ij} – j – rayondagi mahsulotni ishlab chiqarish hajmidan istemol qilish foizi.

b) Tayyor mahsulotni yetkazib berish xarajatlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_{r.nij} = O_{r.nij} \cdot ij \cdot tj \quad (2)$$

Bu yerda,

$S_{r.nij}$ – istemol rayonlariga i -mahsulotni yetkazib berish xarajatlari, so‘m;

$O_{r.nij}$ – j – rayonda istemol qilinadigan i -mahsulotning umumiy og‘irligi, tonna;

t_j – ishlab chiqarish i -rayoni bilan istemol qilish j -rayoni orasidagi masofa, km;

t_j – / tonna.km. yukni tashish uchun temir yo'l tarifi, so'm.

v) istemol rayonlariga tayyor mahsulotni yetkazib berish xarajatlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$D = \sum_{i=1}^n S_{r.nij} = \sum_{i=j}^q O_{r.nij} \cdot P_{ij} \cdot t_j \quad (3)$$

Bu yerda,

D – yukni yetkazib berishning umumiy xarajatlari, sum.

Bir birlik tayyor mahsulot tannarxi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$C_{edi} = \frac{S_i}{N} = \frac{M_i + Q_i + A_i + D_i}{N} \quad (4)$$

Tarmoq kompleksini qurishning eng samarali variantini aniqlash

a) Bir komplekt texnologik jixoz uchun solishtirma kapital xarajatlalar quyidagi formula orqali hisoblaniladi:

$$k_{col} = \frac{(K_{kmi} + K_{ayl})}{N} \quad (5)$$

b) Samaradorlik me'yoriy koeffitsiyent $Ye_n=0,15$.

Qurilish uchun samarali variant quyidagi formula orqali hisoblaniladi:

$$P = C_{edi} + E_n k_{sol \min} \quad (6)$$

Tarmoq kompleksi ishlab chiqaradigan mahsulotlarning variantlar bo'yicha yillik dasturi

Variantlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Yillik dastur, ming komplekt.	50	70	55	75	60	85	90	80	95	100

Variantlar	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
Yillik dastur, ming komplekt.	105	120	115	125	130	145	150	45	105	135

Variantlar	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
Yillik dastur, ming komplekt.	140	40	145	110	73	50	145	68	87	57

Variantlar	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
Yillik dastur, ming komplekt.	35	48	77	86	74	132	58	98	73	63

Variantlar	41	42	43	44	45	46	47	48	49	50
Yillik dastur, ming komplekt.	118	98	57	30	64	38	43	82	80	

Variantlar	51	52	53	54
Yillik dastur, ning komplekt.	53	42	33	54

Variantlar	Qurilish punktlari				
	a	b	d	e	f
1	2,3	2,6	1,3	2,2	2,4
2	2,1	2,8	1,7	2,0	2,5
3	2,3	2,7	1,8	2,0	2,4
4	2,2	3,1	1,5	1,9	2,3
5	2,3	3,2	1,6	1,8	2,2
6	2,5	3,1	1,4	1,7	2,3
7	2,6	3,2	1,5	1,8	2,2
8	2,4	3,0	1,7	2,1	2,4
9	3,0	4,0	2,3	2,8	4,2
10	2,4	3,1	1,5	1,8	2,2
11	2,7	3,5	2,0	2,3	2,7
12	2,9	3,5	1,8	2,3	2,4
13	2,0	3,1	1,5	1,7	2,4
14	2,3	3,2	3,4	2,1	2,5
15	2,2	1,5	3,0	1,8	2,2
16	3,1	1,6	2,3	1,9	2,2
17	1,7	3,2	2,3	2,0	2,4
18	2,5	3,4	2,8	3,2	4,0
19	4,4	5,0	3,5	3,8	4,2
20	2,3	2,9	1,4	2,1	1,7
21	2,8	3,4	1,8	2,3	3,8
22	2,4	3,2	1,9	1,3	2,3
23	2,5	3,2	1,6	1,9	2,4
24	2,0	3,5	1,8	2,3	2,2
25	2,5	2,2	1,8	2,5	3,1
26	1,7	3,3	3,5	2,1	2,5

Variantlar	Qurilish punktlari				
	a	b	d	e	f
27	4,4	5,0	3,5	3,8	2,5
28	2,5	3,0	1,5	1,9	2,3
29	2,4	3,2	1,7	2,0	2,5
30	2,4	3,3	1,7	1,8	1,9
31	2,0	2,2	2,4	2,6	2,8
32	2,0	2,8	1,3	1,6	2,0
33	2,0	2,9	1,5	1,8	2,4
34	3,7	3,5	3,3	3,0	2,8
35	1,8	1,9	2,3	2,7	3
36	1,9	2,1	2,3	2,5	2,7
37	2,4	2,1	1,8	2,3	2,8
38	2,4	2,2	2,0	2,5	3
39	2,5	3,0	1,8	1,9	4,1
40	2,3	3,1	2,1	2,4	3,2
41	1,4	1,8	2,2	2,6	3,6
42	2,8	2,5	1,8	4,2	1,7
43	2,1	2,3	3,5	1,7	1,8
44	2,7	3,4	2,1	2,2	2,5
45	2,4	4,0	2,3	2,8	4,2
46	2,1	2,3	2,4	3,5	2,2
47	2,4	4,0	2,3	2,8	4,2
48	2,4	ZD	1,6	1,2	1,7
49	1,7	3,2	2,2	2,0	2,4
50	2,8	2,4	3,8	3,1	2,2
51	2,8	2,4	3,8	3,1	2,2
52	1,9	ZD	3,8	2,2	2,8

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Mahsulot tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar qaysilar?
2. Xarajatlarni qanday turkumlash mumkin? Xarajatlar turkumlarini aytib bering.
3. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra turlarini ifodalab bering.
4. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning mohiyati.
5. Moddiy xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
6. O'zgaruvchan xarajatlar deb nimaga aytiladi?
7. Tannarxni pasaytirish manbalari va omillari.
8. Mahsulot tannarxini tashkil etuvchi moddiy xarajatlar qaysilar?
9. Mahsulot tannarxini tashkil etuvchi ish haqi xarajatlari qaysilar?
10. Mahsulot tannarxini tashkil etuvchi amortizatsiya xarajatlari nima?
11. Mahsulot tannarxi nima?
12. Mahsulot tannarxi qanday usullar bilan hisoblanadi?

9-mavzu. SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag'ni safarbar etish», «kapital qo'yilmasi» ma'nosini beradi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiya quyidagicha tasniflanadi:

- avaylangan (birlamchi jamg'arilgan) kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obyektlariga joylashtirish;
- investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

– Investitsiya kiritishda, avvalo:

– investitsiya faoliyati subyektlarning mustaqilligi va tashabbuskorligi;

– kiritilayotgan moddiy ne'matlarga investitsiya maqomini berish (fuqaro o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun olgan buyumlari investitsiya bo'la olmaydi);

– qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo'lib hisoblanadi.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra,

ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

Moliyaviy investitsiyalar qimmatbaho qog'ozlar, aksiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag'larini banklarga foiz olish maqsadida depozit hisob raqamlariga quyish bilan ifodalanadi.

Real investitsiyalar pul mablag'larini kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni ifodalaydi. Real investitsiyalar korxona, tarmoq va butun milliy iqtisodiyotining kuch-quvvatini belgilab beradi.

Investitsiya loyihasini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- investitsiyaviy g'oya(fikr)ni shakllantirish;
- g'oyaning dastlabki asoslanishi;
- loyihada ko'zda tutilgan texnik qarorning tahlili;
- sertifikat talablarining bajarilishini tekshirish;
- investitsiya loyihasi bo'yicha davlat boshqaruv idoralari bilan kelishuv yuzaga keltirish;
- axborot memorandumini tayyorlash.

Korxonalarda investitsiyalashning asosiy manbalari va yo'nalishlari

Rejalashtirish va boshqaruv tizimida shuningdek, investitsiya manbalarini aniqlashning ichki va tashqi turlaridan ham foydalaniladi.

Investitsiyalarning ichki manbalari quyidagilar:

- ishlab turgan asosiy kapitalga hisoblanuvchi amortizatsiya ajratmalari natijasida shakllanuvchi, korxonaning o'z moliyaviy vositalari;
- foydaning investitsiya ehtiyojlariga ajratiluvchi qismi;
- sug'urta kompaniyalari va muassasalari tomonidan tabiiy ofat va boshqa hodisalarda to'lanuvchi mablag'lar;

– korxonaning aksiyalar chiqarishi va sotishi natijasida olinuvchi mablag'lar;

– yuqori turuvchi va boshqa organlar tomonidan qaytarib bermaslik asosida ajratiluvchi mablag'lar;

– xayriya va shu kabi boshqa mablag'lar.

Investitsiyalarning tashqi manbalari quyidagilar:

– markaziy va mahalliy byudjetdan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi turli xil fondlar tomonidan ajratiluvchi qaytarib bermaslik asosidagi mablag'lar;

– korxonalar nizom jang'armasida moliyaviy yoki boshqa moddiy va nomoddiy ishtirok shaklida, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va alohida shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalari shaklida kiritiluvchi xorijiy investitsiyalar;

– davlat va turli xil fondlar tomonidan qaytarib berish sharti bilan beriluvchi kreditlar, jumladan imtiyozli kreditlar.

Lizing – moliyaviy-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalarning qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki maxsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijaraga olishini anglatadi. Lizing bitimida ko'rsatilgan tomonlardan tashqari investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda ularni buning uchun zarur bo'lgan mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan tijorat yoki investitsion banklar ham ishtirok etishi mumkin.

Investitsiyalardan (kapital qo'yilmalardan) foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

– yangi qurilish;

– korxonani kengaytirish va qayta tiklash;

– ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish;

– harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish.

Qayta tiklash – bu faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'kotish yo'li bilan almashirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirishni anglatadi.

Yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta tiklashga yo'naltiriluvchi kapital qo'yilmalar asosan quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

- qurilish-montaj ishlari xarajatlari;
- mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar;
- loyiha qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar.

Kapital qo'yilmalarning yuqoridagi turlari investitsiyalarning texnologik tuzilmasini tavsiflaydi. Hozirgi paytda iqtisodiyot rivojlanishiga kiritiluvchi kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida quyidagi tuzilma vujudga keldi:

qurilish-montaj ishlari xarajatlari – 55–60%, mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar – 35–30%, loyiha qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar – 10%.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar ikkita vazifani hal qilishlari lozim:

– kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati va daromadlilik nuqtai nazaridan, eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;

– mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi:

1) **Sof diskontlangan daromad (SDD)** – butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig'indisining boshlang'ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$SDD = \sum_{t=1}^T (N_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu yerda:

N_t – hisob-kitoblarning t - qadamida erishiluvchi natijalar;

X_t – xuddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

T – hisob-kitoblarning vaqt muddati;

E – diskont normasi.

Xarajatlar va ularning natijalari miqdorini keltirish ularni diskontlash koeffitsiyenti (d_t) ga ko'paytirish asosida amalga oshirilib, bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$d_i = \frac{1}{(1 + E)}$$

Bu yerda:

t – natijalarni olish (xarajatlarni amalga oshirish) davridan taqqoslash davrigacha bo'lgan muddat bo'lib, yillarda o'lchanadi.

Diskont normasi (E) – boshqa investorlar o'z mablag'larini xuddi shu turdagi loyihalarni amalga oshirish uchun kiritishga rozi bo'luvchi, kapitalning daromadlilik ko'effitsiyenti (daromad miqdorining kapital qo'yilmalarga nisbati).

Agar diskont normasi vaqt davomida o'zgaradigan bo'lsa, diskont ko'effitsiyenti (d_i) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$d_i = \frac{1}{\prod_{k=1}^t (1 + E_k)}$$

Bu yerda:

E_k – k – yildagi diskont normasi;

t – hisobga olinuvchi vaqt muddati, yil.

Investitsion loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda mahsulot va iste'mol qilinuvchi resurslarning bazis, bashorat qilinuvchi, jahon va hisobiy baholaridan foydalaniladi.

2) Investitsiyalarning daromadlilik indeksi (ID) – keltirilgan samaraning investitsiyalar miqdoriga (K) nisbati bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ID = \frac{1}{K} \sum_{i=0}^T (H_i - X_i) \frac{1}{(1 + E)}$$

Agar daromadlilik indeksi birga teng yoki undan katta bolsa, investitsion loyiha samarali, aks holda esa samarasiz hisoblanadi.

3) Ichki daromadlilik normasi (IDN) – keltirilgan samara miqdori keltirilgan investitsiya miqdoriga teng bo'lgan holdagi diskont normasi (E_{ich}), ya'ni $E_{ich}(IDN)$ quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$\sum_{i=0}^T (H_i - X_i) \frac{1}{(1 + E_{ich})} = \sum_{i=0}^T \frac{K_i}{(1 + E_{ich})}$$

Ushbu formula asosida aniqlangan daromadlilik normasi miqdori investorming kapitalga talab qiluvchi daromad miqdori bilan taqqoslanadi. Agar IDN talab qilinuvchi daromad normasiga teng yoki undan katta bo'lsa, u holda loyiha samarali hisoblanadi.

4) Investitsiyalarning qoplanish muddati (T_i) – investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo'lgan minimal vaqt muddati. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_i = \frac{I_s}{P_u}$$

Bu yerda:

I_s – sof investitsiyalar;

P_u – loyiha keltiruvchi o'rtacha yillik pul mablag'lari oqimi, so'm.

Shu bilan birga koplanish muddati loyihaning daromadliligi ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Shu sababli amaliyotda investitsiyalar birlamchi kapital (qo'yilma)ga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichi orqali ko'rib chiqiladi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D_u = \frac{M_u}{K} \cdot 100$$

Bu yerda:

D_u – investitsiyalar daromadi % da;

M_u – soliqlar to'langandan so'ng qolgan foyda, so'm;

K – investitsiyalar (boshlang'ich).

U yoki bu investitsion loyihani tanlash to'g'risida qaror qabul qilishda korxonalar quyidagi savollarga javob berishi lozim:

– ishlab chiqarishdagi bugungi holat qancha davom etishi mumkin va bozorda mahsulotga (ish, xizmatga) bo'lgan talab qanday;

– kapital kiritish uchun imkoniyatlar qanday;

– raqobatchilik faoliyati qanday;

– qanday muvaffaqiyat omillari mavjud;

– yangi bozorga kirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashning ikkinchi holatida, ya'ni mablag'larni mavjud ishlab chiqarishga kiritishda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

a) investitsiyalarning har bir so'miga to'g'ri keluvchi qo'shimcha mahsulot quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E = \frac{(YAM_1 - YAM_0)}{I_s}$$

Bu yerda:

E – investitsiyalar samaradorligi;

YAM_0 , YAM_1 – yalpi mahsulot, mos ravishda birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

I_k – qo'shimcha investitsiyalar miqdori.

b) investitsiyalarning har bir so'miga tannarxning pasayishi:

$$E = \frac{Q(TN_0 - TN_1)}{I_k}$$

Bu yerda:

TN_0, TN_1 – mahsulot birligi tannarxi, mos ravishda, birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

Q – qo'shimcha investitsiyalar kiritilgandan keyingi yillik mahsulot hajmi, natural o'lchov birl.

d) investitsiyalarning har bir so'miga mahsulot ishlab chiqarishdagi mehnat xarajatlarini qisqartirish:

$$E = \frac{Q(M_0 - M_1)}{I_k}$$

Bu yerda:

M_0, M_1 – mahsulot birligiga ishlab chiqarishda sarflanuvchi mehnat xarajatlari, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng

e) investitsiyalarning har bir so'miga foydani oshirish:

$$\mathfrak{E} = \frac{Q(F_1 - F_0)}{I_k}$$

Bu yerda:

F_0, F_1 – mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi foyda, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng.

f) investitsiyalarning qoplanish muddati.

Investitsiyalar samaradorligini keltirilgan formulalar asosida (boshqaruv darajasini inobatga olgan holda) aniqlash ishlab chiqarishni rivojlantirishga qancha miqdorda investitsiya kiritilgan va uning natijasi qanday degan savolga javob beradi, ya'ni u investitsiyalarning mutloq (absolyut) samaradorligini tavsiflaydi.

Amaliyotda ko'pincha investitsion qarorlarning turli xil variantlari ko'rib chiqilib, ulardan eng maqbulini tanlab olishga harakat qilinadi. Bu maqsadda kapital qo'yilmalarning solishtirma iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari qo'llanib, ular quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\longrightarrow E_n = TN \cdot k \cdot E_n \cdot K \quad \min$$

Bu yerda:

TN – mahsulot tannarxi;

K – kapital qo'yilmalar;

E_n – kapital qo'yilmalarning samaradorlik normasi.

Agar investitsion qarorlarning bir nechta variantlari ko'rib chiqiladigan bo'lsa, keltirilgan xarajatlar eng minimal bo'lgan variant tanlab olinadi.

Iqtisodiy samaradorlikni baholash jarayonida kiritiluvchi investitsiyalarning qo'planish muddatini aniqlashning o'ziga xos o'rni bo'lib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_{ok} = K / (F_{r1} - F_{r0})$$

Bu yerda:

K – asosiy ishlab chiqarish fondlariga kiritiluvchi kapital qo'yilmalar hajmi;

F_{r1} – rejalashtirilayotgan davrning so'nggi yilidagi foyda;

F_{r0} – bazis yildagi foyda (rejadan oldingi davrning so'nggi yili).

Kapital qo'yilmalarning samaradorlik koeffitsiyenti qoplanish muddatiga teskari bo'lgan kattalikdir. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$E = (F_{r1} - F_{r0}) / K$$

Vaqt omili, ayniqsa, investor (buyurtmachi) nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslarning haqiqiy samaradorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qurilish, qayta tiklash va kengaytirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish ishlari qanchalik tez bajarilsa, investor va pudratchi uchun shunchalik foydali bo'ladi. Qurilgan obyektni muddatidan avval foydalanishga topshirishdan olinuvchi qo'shimcha foyda (E_{kf}) orqali iqtisodiy samara quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E_{kf} = E_n F (T_{sh} - T_a)$$

Bu yerda:

E_n – samaradorlikning normativ koeffitsiyenti;

F – muddatidan avval foydalanishga topshiriluvchi asosiy fondlar qiymati;

T_{sh} – obyektni foydalanishga topshirishning shartnomadagi muddati;

T_a – obyektni foydalanishga topshirishning amaldagi muddati.

Obyektlarni foydalanishga topshirishning shartnomadagi va amaldagi muddatlari o'rtasidagi farq mazkur formulada ($T_{sh} - T_a$) yil ulushida aks ettirilishi lozim (vaqt ko'rsatkichi). Agar $T_{sh} < T_a$ bo'lsa, ya'ni obyektni foydalanishga topshirish muddati o'tib ketadigan bo'lsa, investor kutilayotgan foydani olishdan mahrum bo'ladi va boshqa

chiqimlarga duch kelib, bu narsa hisobiy samaraning salbiy bo'lishiga olib keladi. Shu sababli qurilish yoki korxonani qayta tiklash va kengaytirish ishlari, obyektlarning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik tez amalga oshirilsa, investitsiyalar samaradorligi mos ravishda shunchalik yuqori bo'ladi.

Misol. Mini-zavod qurilishining smetaga ko'ra qiymati 14,5 mln so'mni tashkil etadi. Qurilishning normativ muddati - 2,5 yil. Amalda zavodni 2 yilda qurib bitkazish mo'ljallanmoqda. Zavodning asosiy fondlari qiymati oshishiga olib kelmaydigan xarajalar qiymati 450 ming so'mga teng. Samaradorlikning normativ koeflitsiyenti - 0,2. Zavodni muddatidan oldin qurib bitkazishning iqtisodiy samarasi quyidagicha:

$$E_d = 0,2 (14,5 - 0,45) \cdot (2,5 - 2) \text{ k } 1,4 \text{ mln.so'm.}$$

Innovatsiya so'zining ma'nosi ingliz tilidagi **innovation** so'zidan olingan bo'lib, yangilik va yangilik kiritish deganini bildiradi. Bu yangilik zahirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim. Yangilikni bozorga kiritish jarayonini tijoratlashish jarayoni deb atash lozim.

Investitsiya keng ma'noda yangi texnologiyalar, turli mahsulotlar va xizmatlar, tashkiliy texnik va ijtimoiy iqtisodiy qarorlar shaklida ishlatilishi tushuniladi. Yangilikning tuzilishi, yaratilishi va tarqalishi jarayoni innovatsiyaning xayotiy tsikli deyiladi.

Yangiliklar bozori (novatsiyalar). Bozorni asosiy mahsuloti bo'lib, intellektual faoliyatning ilmiy va ilmiy texnikaviy, natijaviy produkti hisoblanadi. Unga avtorlik va shunga o'xshash huquqlar (bu huquqlar xalqaro, respublika, korporativ va boshqa qonuniy, me'yoriy aktlar ta'sir doirasida bo'ladi) taalluqlidir.

Innovatsiya nazariyasining rivojlanishiga asos solgan olim avstriyalik iqtisodchi Y.A.Shumpeter hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra aynan ushbu olim birinchi bor innovatsiya tushunchasini ilmiy asoslab bergan. Y.A.Shumpeter ilgari surgan g'oyaga ko'ra, joriy etilgan har qanday yangi texnik qaror, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi bozorlarning tarkib topishi, xomashyolar manbai innovatsiya hisoblanadi.

Y.A. Shumpeter birinchilardan bo'lib, iqtisodiy fanga ishlab chiqarish omillari sifatida "yangi kombinatsiya" tushunchasini kiritdi va uning tavsifnomasini berdi. Unga quyidagilar kiradi:

– istemolchilarga ma'lum bo'lmagan moddiy ne'matni yaratish yoki yangi u yoki bu ne'matni ishlab chiqish;

– tegishli tarmoqqa yangi hali ma'lum bo'lmagan ishlab chiqarish usulini joriy etish (uning asosini ilmiy yangi kashfiyot usulidan foydalanib yaratilgan tovar tashkil etadi);

– bozorning avval mavjudligi va mavjud emasligidan qat'iy nazar tegishli tarmoqda mutlaqo yangi sotish bozorini o'zlashtirish;

– yangi xomashyo yoki yarim fabrikat manbalarini topish (ushbu manba oldin ma'lum bo'lishi yoki uni yaratish imkoni bo'lishidan qat'iy nazar);

– boshqa korxonalarining monopol holatiga qarshi kurashish uchun korxonani tarkibiy qayta tuzish.

Korxonalarning innovatsion yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi lozim:

– innovatsion jarayonlarni boshqarishning yangi usullari va yondashuvlari asosida innovatsiyani joriy etish mexanizmlarini takomillashtirib borish;

– iqtisodiyotning muhim tarmoqlari va korxonalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga qaratilgan loyihalar uchun katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish va yangi mahsulotlarni yaratish;

– innovatsiya davrining barcha bosqichlari bo'yicha ishlab chiqarish – tadbirkorlik faoliyatini jadallashtirish;

– korxonalarning barcha ishlab chiqarish tadbirkorlik faoliyati yo'nalishlarida axborot texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanish.

Innovation so'zi inglizcha bo'lib, yangilikning kiritilishi degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda I.A.Shumpeter tomonidan berilgan konsepsiyasiga asoslanadi:

– innovatsiya – uning tadbirkorlik faoliyatida ilk bor qo'llanilish;

– diffuziya – innovatsiyaning keng tarqalishi.

Xalqaro amaliyotda innovatsiya:

– birinchidan ilmiy-texnik natijasi;

– ikkinchidan yangi usullar, tashkiliy-boshqaruv shakllari, texnologiya, texnikani yaratish va uni joriy etish;

– uchinchidan, ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlarini tashkil etish tushuniladi.

Texnik-texnologik innovatsiya – iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun xizmat qiladi:

– ishlab chiqarish samaradorligini oshirish (ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish hisobiga);

–tijorat nuqtai nazaridan an'anaviy texnologiya asosida olish mumkin bo'lmagan yangi mahsulotlarni o'zlashtirish imkoniyati tufayli;

–tijorat nuqtai nazaridan istiqbolda an'anaviy texnologiyalar asosida o'zlashtirish imkonini bo'lmagan uglevodorod zahiralarni aniqlash imkoniyatini mavjudligi.

Innovatsiya uchta asosiy funktsiyasini bajaradi: qayta ishlab chiqarish, investitsiya, rag'batlantirish.

Bu uch komponent innovatsiya faoliyatining asosini tashkil etadi.



9.1-rasm. Innovatsiya faoliyati sohalari

Innovatsiya deganda keng ma'noda yangiliklarning rentabellik (foydalilik) darajasini oshirish uchun yangi texnologiyani qo'llash, yangi mahsulot ishlab chiqish yoki xizmat ko'rsatish, tashkiliy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni ishlab chiqish, tijorat, boshqarish va boshqa sohalarda qo'llanishini tushunamiz.

Korxonaning innovatsiya salohiyati – moliyaviy, kadrlar, axborotlar, moddiy-texnik resurslar, tegishli xizmat ko'rsatuvchi intratuzilmalar majmuini tashkil etadi.

Innovatsiyalarni rag'batlantirishda davlatning roli

Ilmiy va innovatsiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- ilmiy va ilmiy-texnik ijodkorlik;
- intellektual mulkni huquqiy himoya qilish;
- ilmiy, ilmiy-texnik va ta'limning integratsiyasi;
- ilmiy va texnika sohasidagi raqobatni qo'llab-quvvatlash;
- ilmiy rivojning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha resurslarni konsentratsiyalash;

– ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsiya faoliyatining tadbirlar faolligini moddiy rag'batlantirish;

– xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish.

Davlat organlarining funktsiyalari. Davlat organlarining innovatsion sohadagi asosiy funktsiyalari quyidagilar hisoblanadi:

– tadqiqot va ishlab chiqarishga mablag'larni yo'naltirish;

– innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish;

– innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish va mazkur sohada raqbatni kuchaytirish;

– innovatsion xavf-xatarni sug'urta qilish;

– zahiralarni o'zlashtirish va mahsulotlarni ishlab chiqish bo'yicha majburiyatlarni bajarilmaganligi uchun davlat sanksiyalarini joriy etish;

– innovatsion jarayonlarni boshqarishning huquqiy asosini yaratish, xususan mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilish;

– innovatsion faoliyatni kadrlar bilan ta'minlash;

– innovatsion jarayonning institutsional ta'minoti;

– innovatsiyaning ijtimoiy va ekologik yo'nalishi;

– innovatsion faoliyatning ijtimoiy statusini oshirish;

– innovatsion jarayonlarni mintaqaviy tartibga solish;

– innovatsion jarayonlarning xalqaro yo'nalishlarini tartibga solish.

Davlatning ta'sir etish usullari. Davlatning korxonalar innovatsion faoliyatiga ta'siri ikkita, ya'ni ma'muriy va iqtisodiy (bevosita va bilvosita) usullari orqali amalga oshiriladi. Ma'muriy usul-ma'lum faoliyat turini cheklash yoki uni rivojlantirishga qaratilgan qonuniy asosga tayangan bo'ladi. Bu standartlash va patent siyosatini huquqiy me'yorlashdir.

Bevosita iqtisodiy usullar. Ularga quyidagilar kiradi: moliyalashtirishga yo'naltirilgan investitsiya (maqsadli, predmetli mo'ljalga, muammo yechimini topishga yo'naltirilgan); lizing; fond operatsiyalari; rejalashtirish va dasturlash; davlat tadbirkorligi.

Bilvosita iqtisodiy usullar. Davlatning innovatsion siyosatidagi iqtisodiy usullari asosan bilvosita iqtisodiy tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Bunga innovatsion resurslarni olish imkoniyatiga ega bo'lish va ularning tarkibi va bahosi, innovatsion xavf-xatarni yumshatish oqibatlari kiradi. Eng ko'proq qo'llaniladigan usullar kredit va soliq siyosati hisoblanadi. Kredit siyosati yangiliklarni moliyalashtirishga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslar hajmini tartibga soladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Innovatsiya so'zining ma'nosi.
2. Korxonalarning innovatsion yo'nalishlarini sanang.
3. Innovatsiyalarni rag'batlantirishda davlatning roli.
4. Investitsiyalarning qanday turlari mavjud?
5. Xorijiy investitsiyalarga qanday omillar ta'sir etadi?
6. Investitsiyalarning ichki manbalari nima?
7. Investitsiyalarning tashqi manbalari nima?
8. Investitsiyalardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari nimalar?
9. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar qanday vazifani hal qilishlari lozim?
10. Investitsion loyihalarning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari nima?

10-mavzu. SANOAT KORXONALARINING DAROMADI VA SAMARADORLIGI

Samarali ishlash degani, mo'ljallangan foydani olish, ishlab chiqarish quvvatlari va ish kuchidan yaxshiroq foydalanish, noishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mehnat samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilashdir.

Samara – ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmatning foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish kabi ijobiy natijalardir. Natural shaklda ishlab chiqarish samarasi, pul shaklida iqtisodiy samarani ifodalanadi.

Samaradorlik – bu, foydalilik, natijalilikdir. Ma'lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish va ma'lum miqdorda xarajat qilish kerak. Korxona o'zining xo'jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Samaradorlikning iqtisodiy va ijtimoiy turlari mavjud.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini ko'rsatadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish-boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va hokazolarning natijasi.

Iqtisodiy samara – material, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash tufayli erishilgan miqdor.

Ijtimoiy samaradorlik – ishlab chiqarish samaradorligining mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni ifodalaydi.

Iqtisodiy samaradorlik ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi, chunki iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordamlashadi. Samaradorlik tufayli korxona quyidagilarga ega bo'ladi:

- o'zining iqtisodiy barqarorligini va raqobatbardoshligini ta'minlaydi;

- o'z imidjini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi;

- xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi.

- Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

- bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta'minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;

- istemolchilar talabini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarib sotish va foyda olish;

- aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zahiralari yaratish.

Xo'jalik samaradorligini baholash, korxonada foydalaniladigan resurs turlari bo'yicha amalga oshirilishi va miqdor jihatidan o'lchanishi mumkin. Masalan: ish kuchidan foydalanish samaradorligini mehnat unumdorligi va mahsulotning mehnat sig'imi ko'rsatkichlari yordamida baholash mumkin.

$$M_u = \frac{Q}{I_s} \quad (1)$$

Bu yerda:

M_u – mehnat unumdorligi;

Q – mahsulot hajmi qiymat ko'rinishida;

I_s – ishchilar soni.

Mahsulotning mehnat sig'imi – mehnat unumdorligiga teskari kattalik bo'lib, sarflangan mehnatmiqdorining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati bilan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi – insonning muayyan vaqt ichida ozmi-ko'pmi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir.

$$T = \frac{I}{Q} \quad (2)$$

Mehnat quollaridan foydalanish samaradorligi mahsulotning fond sig'imi va fond qaytimi ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Fond qaytimi korxona asosiy fondlarining bir birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatadi. U mahsulot sotishdan tushgan bir yillik tushumni asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

$$f_q = \frac{Q}{F} \quad (3)$$

Bu yerda:

Q – mahsulot hajmi, qiymat pul ko'rinishida;

F – asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

Fond sig'imi bir birlik yangi asosiy fondlarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan kapital qo'yilmalarni anglatadi.

$$f_s = \frac{F}{Q} \quad (4)$$

Fond qaytimi qanchalik yuqori va fond sig'imi qanchalik past bo'lsa, mehnat quollaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Fond qaytimini ko'paytirishning muhim zahirasi, asbob-uskunalaridan unumli foydalanish, texnologiyalarni takomillashtirish va xodimlar malakasini oshirishdir.

Mehnat quollaridan foydalanish samaradorligi, mahsulotlarning material sig'imi yordamida sarflangan xomashyo, material, yoqilg'i, energiya va mehnat predmetlarining umumiy qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

$$m = \frac{MX}{Q} \quad (5)$$

Bu yerda:

M – mahsulotlarning material sig'imi;

MX – moddiy xarajatlar miqdori, so'm;

Q – mahsulot hajmi, so'm.

Samaradorlikni oshirish omillari quyidagilar: mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, fond sig'imini kamaytirish va fond qaytimini oshirish, tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va vaqtni tejash. Bularni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish samaradorligini

oshirishning barcha omillarini ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha guruhlash kerak. Bu yo'nalishlarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish strukturasi yaxshilash;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik-iqtisodiy darajasini ko'tarish;
- ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, kombinatlashtirish va xududiy joylashtirish darajasini oshirish;
- inson omilini kuchaytirish asosida mehnatkashlarning ijodiy faolligini va tashabbusini oshirishni yo'lga bo'yish;
- xomashyo va materiallarning zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil etish.

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda (YaF) – bu, sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

$$YaF = SST - MT \quad (6)$$

Bu yerda:

YaF – yalpi foyda;

SST – sotishdan tushgan sof tushum;

MT – mahsulotning tannarxi.

Sof foyda (SF) – bu soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida koladi, soliqlar to'langunga kadar olingan foydadan minus daromad soliqlari va boshqa soliq va to'lovlar ayirmasi sifatida aniqlanadi.

$$SF = STF - DS - BS \quad (7)$$

Bu yerda:

SF – sof foyda;

DS – daromaddan to'lanadigan soliq;

BS – boshqa soliq va to'lovlar.

Foyda olishning asosiy manbalari:

– korxonani mahsulotning u yoki bu turini ishlab chiqarishdagi monopoliya xolati yoki mahsulotning nodirligi hisobiga shakllanadi;

– ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq, bozor konyunkturasini bilish hamda ishlab chiqarishning rivojlanishini, doimiy ravishda o'zgarib turuvchi bozor konyunkturasiga moslashtirish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Foyda miqdori korxonaning mahsulot

ishlab chiqarish bo'yicha yo'nalishini to'g'ri tanlash, mahsulotlarni sotish va xizmat ko'rsatish uchun raqobatbardosh sharoitlarni yaratish, ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bilan bog'liq.

– korxonaning innovatsion faoliyatidan kelib chiqib, texnologiyalarni takomillatirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash, raqobatbardoshligini ta'minlash, sotish hajmi va foyda miqdorini oshirishni anglatadi.

Foydani taqsimlash deganda uning bir qismini byudjetga jo'natish tushuniladi.

Foydani taqsimlash tamoyillari quyidagilardan iborat:

– korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati natijasida olingan foydasi davlat va korxona o'rtasida xo'jalik subyekti sifatida taqsimlanadi;

– foydaning davlatga to'lanuvchi bir qismi soliq va yig'imlar ko'rinishida byudjetga kelib tushadi. Soliqlar tarkibi va foizi, ularni hisoblash tartibi va byudjetga to'lanuvchi boshqa to'lovlar qonunchilik tomonidan belgilanadi;

– soliqlar to'langandan so'ng korxona tasarrufida koluvchi foyda miqdori, uning ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijalarini yaxshilashdan manfaatdorligini kamaytirmasligi lozim.

Foydani oshirishning asosiy yo'llari:

– ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini, sifatini oshirish;

– ortiqcha asbob-uskunalar va boshqa mulkni sotib yuborish yoki ijaraga berish;

– moddiy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va maydonlari, ish kuchi va ish vaqtidan unumliroq foydalanish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish;

– ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;

– mahsulot bozorini kengaytirish va h.k.

Rentabellik – xo'jalik faoliyatining samaradorlik darajasini bildiruvchi Ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u ma'lum vakt (yil, oy, kvartal) davomida ishlab chiqarish faoliyatining foydaliligi (yoki zararliligini) ko'rsatadi.

Rentabellik nazariyasida uning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

– sotish rentabelligi;

- asosiy faoliyat rentabelligi;
- xususiy kapital rentabelligi;
- asosiy kapital (fondlar) rentabelligi;
- permanent kapital rentabelligi;
- aylanma kapital rentabelligi;
- karzga olingan kapital rentabelligi;
- real asosiy kapital rentabelligi;
- investirlangan kapital samaradorligi.

1. Sotish rentabelligi deganda, xar bir sotilgan mahsulot summasiga qancha xarajat qilinganlik darajasi tushuniladi.

Demak, bu ko'rsatkich sotilgan mahsulot qiymati bilan ana shu mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarni taqqoslash asosida yuzaga keladi. Bunday koeffitsiyent baholash siyosatidagi o'zgarishlarni va sotilgan mahsulot tannarxini nazorat qilish bo'yicha korxonaning qobiliyatini tavsiflaydi.

Sotish rentabelligini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin

$$R_s = \frac{\text{sotilgan mahsulot tan narxi}}{\text{haqiqiy sotilgan mahsulot}} \quad (8)$$

2. **Asosiy faoliyat rentabelligi** – ishlab chiqarishning foydaliligi, natijaliligidir. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish samaradorligini tavsiflaydi va quyidagicha ifodalanadi:

$$R_{af} = \frac{\text{mahsulot sotishdan olingan foyda}}{\text{mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari}} \quad (9)$$

3. **Xususiy kapitalning rentabelligi** – korxona (firma), tarmoq xususiy kapitalining foydaliligi va natijaliligidir. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi

$$R_{xk} = \frac{\text{sof foyda}}{\text{xususiy xarajatlarning o'rtacha qiymati}} \quad (10)$$

Bunday koeffitsiyent xususiy kapitaldan foydalanish darajasini, ya'ni korxona tomonidan xususiy kapitalning o'rtacha qiymatiga qancha sof foyda olinganligini ko'rsatadi

4. **Asosiy kapital (fondlar) rentabelligi** – asosiy fondlar va boshqa oborotdan tashqari aktivlarning foydaliligi. U quyidagicha aniqlanadi.

$$R_{ak} = \frac{\text{sof foyda}}{\text{ko'p muddatli aktivlar qiymati}} \quad (11)$$

5. **Permanent kapital rentabelligi** – permanent kapitalning foydaliligi, natijaliligidir. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R_p = \frac{\text{sof}}{\text{permanent kapitalning o'rtacha qiymati}} \frac{\text{foyda}}{} \quad (12)$$

6. Aylanma kapitalning rentabelligi – aylanma kapitalning foydaliligi, natijaliligi. U har bir so'm li aylanma kapitaldan qancha foyda olish mumkinligini ko'rsatadi. Uni quyidagi formula asosida aniqlash mumkin

$$R_a = \frac{\text{sof}}{\text{aylanma kapitalning o'rtacha qiymati}} \frac{\text{foyda}}{} \quad (13)$$

7. Qarzga olingan kapitalning rentabelligi – qarzga olingan kapitalning foydaliligi, unumliligi. U quyidagicha aniqlanadi

$$R_k = \frac{\text{sof}}{\text{qarzga olingan kapitalning o'rtacha qiymati}} \frac{\text{foyda}}{} \quad (14)$$

Bu koeffitsiyent har bir so'mli qarzga olingan kapital qancha foyda keltirganligini ifodalaydi.

8. Real asosiy kapitalning rentabelligi uning foydaliligini ifodalaydi va har bir so'm li real asosiy kapital qancha so'm foyda keltirganligini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$R_{\text{as}} = \frac{\text{sof}}{\text{real asosiy kapital}} \frac{\text{foyda}}{} \quad (15)$$

9. Investirlangan kapital rentabelligi – investitsiya mablag'larining natijaliligi, foydaliligi. Bu ko'rsatkich investitsiya tufayli olingan mablag'larning qanchalik samara berishini ifodalaydi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R_{\text{ik}} = \frac{\text{soliqsiz foyda} + \text{to'langan fozlar summasi}}{\text{xususiy kapital} + \text{uzoq muddatli qarz kapital}} \quad (16)$$

Rentabellik darajasi ko'rsatkichining yuqori bo'lishi korxona (firma) ixtiyoridagi asosiy va aylanma fondlardan oqilona foydalanilayotganini va korxona (firma)ning ma'lum miqdorda foyda (daromad) olayotganligini ko'rsatadi.

Rentabellik darajasini ko'tarish uchun sanoatning barcha tarmoqlari va korxonalari sotilgan mahsulot hajmini oshirishga, uni ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirishga, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

2-Mustaqil ish

Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash

I. Investitsiya hajmini aniqlash

- Bino-inshootlar, dastgohlarning ijara qiymati investitsiya hajmi
 - Material ishlab chiqarish zahirasi qiymati investitsiya hajmi
 - Tez yemiriladigan va arzon buyumlarning ijara qiymati investitsiya hajmi
 - Nazorat-o'lchov asboblarning ijara qiymati investitsiya hajmi
 - Loyihani ishlab chiqarishga sarflangan investitsiya hajmi qiymati

II. Yillik daromad, iqtisodiy samaradorlikni aniqlang

III. Xarajatlarni qoplash muddatini aniqlang

1. Loyihani texnik-iqtisodiy asoslash

- Loyihaning maqsadi, vazifalari, ahamiyati, hozirgi talablarga javob bera olishi

- Loyihaning iqtisodiy samaradorligi, qo'llanish sferalari

2. Investitsiya hajmini aniqlashish bo'yicha sarflanadigan xarajatlarni quyidagi jadvallarda keltiramiz.

Material ishlab chiqarish zahiralarini sotib olish investitsiya hajmi

№	Materiallar nomi	Soni	Donasining bahosi	QQS (HJC)20%	Umumiy qiymati
1	Motor 3Kvt	1	200000	40000	240000
2	Kabel	4 m	20000	1600	9600
3	Ampermetor	1	5000	1000	6000
4	Voltmetor	1	5000	1000	6000
5	Boshqaruvpulti	1	100000	20000	120000
6	Foxagenerator	1	20000	4000	24000
7	Stend	1	20000	4000	24000
	Jami	10	352000	71600	429600

Arzon baholi inventarlar o'lchov nazorat asboblari sotib olish investitsiya hajmi

№	Materiallar nomi	Soni	Donasining bahosi	QQS (HJC)20%	Umumiy qiymati QQS bilan
1	Kusachka	1	4000	800	4800
2	Ombur	1	4000	800	4800
3	Otiverka	1	4000	800	4800
4	Testor	1	10000	2000	12000
5	Kalitlar to'plami	1	20000	4000	24000
	Jami	5	42000	8400	50400

Amortizatsiya ajratmasi $A\Phi$ 20% tashkil qiladi.

$$A_{OTY}=20\% \times O\Phi / 12$$

$$A_{OTY}=0.2 \times 50400 / 12 A_{OTY} \text{ 840}$$

Joriy tamirlash va texnik xizmat uchun harajatlar $A\Phi$ qiymatining 12%.

$$P_T=12\% \cdot O\Phi / 12$$

$$P_T=0.12 \cdot 50400 / 12 P=504$$

№	Bajarilgan ishlar nomi	Lavozimi	Kunlar soni	Bir kunlik ish haqi	Bajarilgan ishning qiymati
1	Loyiha mavzusini shakllantirish va uni tasdiqlash	CHC	1	13800	13800
2	FA tanlash va tanishish	MHC	2	7200	14400
3	Tadqiqot obyekti tahlili	MHC	1	7200	7200
4	Informatsion ta'lim bilan tanishish	MHC	1	7200	7200
5	Ishning dolzarbligini asoslash	MHC	1	7200	7200
6	Loyihaning texnologik jarayonlarini o'rganish	MHC	1	7200	7200
7	Butlanuvchi elementlar bazasini tanlash	MHC	1	7200	7200
8	Materiallar va butlovchi qismlarga buyurtma	MHC	1	7200	7200
9	Materiallar va butlovchi qismlarni olish va tekshirish	MHC CHC	1 1	7200 13800	7200 13800
10	Yig'ish usullarini ishlab chiqish	MHC	1	7200	7200
11	Tajriba o'tkazish	MHC	1	7200	7200
12	Tajriba natijalarini tahlil qilish	MHC CHC	2 1	7200 13800	14400 13800
13	Mustahkamligini hisoblash	MHC CHC	1 1	7200 13800	7200 13800
14	Samarani ko'rsatish	MHC CHC	1 1	7200 13800	7200 13800
15	BJD Mehnatni muhofaza qilish	MHC CHC	1 1	7200 13800	7200 13800
16	Taqriz berish	CHC	1	7200 13800	7200 13800
17	Ishni shakllantirish va himoya	MHC	1	7200	7200
	Jami		24		219000

Asosiy ish haqi – barchasi ishchilarning ish haqi va 40% miqdori va mukofot pulining yig'indisi sifatida aniqlanadi.

$$Z_{oc}=COT \cdot 0,4 + COT$$

$$3_{\text{och}}=21900 \cdot 1,43_{\text{och}}=306600$$

Qo'shimcha ish haqi – asosiy ish haqining 10% hisobida olinadi.

$$3_{\text{d}}=K_{\text{d}} \cdot 3_{\text{oc}}$$

$$3_{\text{d}}=0,1 \cdot 3066003_{\text{d}}=30660$$

Mehnatga haq to'lash fondi asosiy va qo'shimcha ish haqlarining yig'indisi sifatida aniqlanadi.

$$\Phi OT=3_{\text{oc}}+3_{\text{d}}$$

$$\Phi OT=306600+30660\Phi OT=337260$$

Ijtimoiy ehtiyojlarga harajatlar ΦOT dan 27% miqdorida hisoblanadi.

$$O_{\text{fcc}}=0,27 \cdot \Phi OT$$

$$O_{\text{fcc}}=0,27 \cdot 337260O_{\text{fcc}}=84315$$

Transport harajatlari asosiy ish haqidan 20%

$$P_{\text{tp}}=0,2 \cdot 3_{\text{oc}}$$

$$P_{\text{tp}}=0,2 \cdot 306600P_{\text{tp}}=61320$$

Elektr energiyasiga bo'lgan harajatlar quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$W=N \cdot T \cdot S$$

N – o'rnatilgan quvvat, 3 kVt

T – ishlatilgan vaqt, 10 soat

S – 1 kVt/soat elektrenergiani narhi, 194,8

$$W=3 \cdot 10 \cdot 194,8W=5844$$

Investitsiya hajmi quyidagi formuladan aniqlanadi

$$K=MIT3+\Phi OT+A_{\text{of}}+\sum P$$

bunda $\sum P=W+P_{\text{tp}}+O_{\text{fcc}}+P_{\text{r}}$

$$\sum P=5844+61320+84315+504\sum P=151983$$

$$K=429600+337260+840+151983 \quad K=919683$$

O'rganilgan ishning harajat smetasi

№	Harajatlarning nomi	Qiymati
1	Bajarilgan ishning qiymati	1146659.48
2	Ishlab chiqarish harajatlari	882045.75
3	Ishlab chiqarish tannarxi	848319.75
4	Davr harajatlari	33726
5	Material harajatlari	435444
6	Xom-ashyo	429600
7	Elektro energiya	58444
8	ΦOT	337260
9	Ijtimoiy sug'urta	84315
10	Amortizatsiya	840
11	Boshqa harajatlari	21120.75
12	Asosiy ish haqi	306600

Bajarilgan ishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati	Izoh
1	Bajarilgan ishning qiymati	so'm	1146659.48	Tablitsa
2	Ishlab chiqarish harajatlari	so'm	882045.75	Tablitsa
3	Investitsiya	so'm	919683	Formula
4	Iqtisodiy samara	so'm	264613.73	Formula
5	Qoplanish muddati	oy	3.47	Formula
6	Rentabellik	%	28.7722	Formula

Iqtisodiy samarani quyidagi formuladan aniqlaymiz.

$$\mathfrak{Q} = (C1 - C2) \cdot Q$$

C1 va C2 – avvalgi va keyingi tannarx, C1=C2 1,3

Q – ishlab chiqarish hajmi

$$\mathfrak{Q} = (1146659.48 - 882045.75) \cdot 1.3 = 264613.73$$

Rentabellikni aniqlaymiz

$$R = (\mathfrak{Q} / 100\%) / K$$

$$R = (264613.73 \times 100\%) / 919683 \quad R = 28.7722$$

10. Qoplanish muddatini aniqlaymiz

11.

$$T_{ok} = K / \mathfrak{Q}$$

$$T_{ok} = 919683 / 264613.73 \quad T_{ok} = 3.47$$

Q – iqtisodiy samara

K – kapital

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Samarali ishlash deb nimaga aytiladi?
2. Samaradorlikning qanday turlari mavjud?
3. Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikning qay biri birlamchi?
4. Samarali ishlash korxonaga nima beradi?
5. Samaradorlikni oshirish qanday omillarga bog'liq?
6. Samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari?
7. Fond qaytimi va fond sig'imi nima?
8. Foyda, foydani shakllantirish manbalari.
9. Foydani taqsimlash va uni ko'paytirish yo'llari.
10. Rentabellikning iqtisodiy mohiyati va uni hisoblash usuli.
11. Samaradorlikni oshiruvchi omillarni sanab chiqing.

II-mavzu. SANOAT MENEJMENTINING TASHKILY TUZILMASI

Menejmentning tarkibiy tuzilishi deganda boshqaruv bo'g'inlari va bosqichlari miqdori va tarkibi tushuniladi.

Boshqaruv bo'g'inlari – bu bitta yoki birqancha vazifalarni bajaruvchi mustaqil tarkibiy unsurlardir. Tuzilma elementlari, ularning bo'linmalari va boshqaruv apparatida ishlovchilardir.

Boshqaruv bosqichlari – bu boshqarish biror darajasidagi ma'lum bo'g'inlar yig'indisidir. Shu belgisiga ko'ra boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari ko'p bosqichli (ko'p bo'g'inli), uch, ikki bosqichli (bo'g'inli) bo'ladi.


Umumdavlat boshqaruvi tashkilotlarining asosiy vazifalari: FTTning asosiy yo'nalishlarini belgilash, tabiiy muhitni muhofaza qilish, pul va kredit tizimiga rahbarlik qilish, soliq va daromadlarni belgilash, hisob va statistikani tashkil etish, narx, tariflar belgilash, milliy iqtisodiyot tarmoqlariga rahbarlik qilish kiradi.

Tashkiliy tuzilmalar turlari


Tashkiliy tuzilmalar juda turli-tuman, lekin ular umumiy izchil bog'liqlikka ega va qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Boshqarishning tashkiliy tuzilmasining asosiy turi chiziqli va funksional turlaridir. Ular birikishi asosida turli xil chiziqli-funksional tuzilmalar tarkib topadi.


a) Chiziqli




d) Funktsional



b) Chiziqli shtabl



i) Chiziqli funktsional



11.1- rasm. Boshqarishning tashkiliy tuzilmasining asosiy turlari

Shartli belgilar: R – rahbar, B – boshliq, U – usta, F – funksional rahbar, Sh – shtab, 1,1; 1,2; 1,3 – funksional bo‘limlar.

Chiziqli tuzilma (a) – uning quyi boshqaruv bo‘g‘inlari yuqori bosqichdagi rahbarga bevosita bo‘ysunishi bilan tavsiflanadi. Chiziqli tuzilmada har bir xodim bitta rahbarga bo‘ysunadi va yuqori tizim bilan faqat u orqali bog‘langan bo‘ladi.

Chiziqli-shtabli (b) – tuzilmada chiziqli tuzilma asos qilib olinadi, lekin boshqaruvning quyi bo‘g‘inga ega har bir bo‘g‘inida ayrim muhim muammolar bo‘yicha shtablar tuziladi.

Funksional tuzilma (d) – boshqaruv vazifalarining funksional bo‘g‘inlar va rahbarlar o‘rtasida taqsimlanishiga asoslanadi. U boshqaruv murakkablashuvi va ixtisoslashuv rivojlanishi bilan bog‘liq holda

vujudga kelgan. Funktsional bo'g'inlar soni ortishi bilan har bir bo'g'in mustaqil ravishda hal etuvchi masalalar doirasi torayib boradi.

Chiziqli-funksional (e) – strukturada, funksional zvenolar quyidagicha turgan bo'linmalarga o'zlarini buyruq bera oladilar, lekin ular kompetensiyasiga taalluqli bo'lgan aniq belgilangan savollar bo'yicha. Masalan, rejalashtirish - iqtisodiy bo'limi seh boshlig'iga rejalashtirishni rivojlantirish savollari bo'yicha buyruq berishi mumkin, zavodning bosh buxgalteri esa sehda hisob va hisobotni yaxshilash bo'yicha va h.k.

Tashkiliy tuzilmalarni loyihalashtirish

Menjmentning tashkiliy strukturalarini tashkil qilish ishlab chiqarishni tashkil qilish va tipiga eng yaxshi mos keluvchi boshqaruv apparatini yaratishdan va bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning har bir zvenosining ishlab chiqarish-texnik, xo'jalik ijtimoiy va moliyaviy faoliyatini boshqarish bo'yicha hamma funktsiyalarni bajarilishining zaruriyatidan kelib chiqadi.

Tashkiliy strukturani loyihalashtirishning mustaqil metodi bo'lib tashkiliy-iqtisodiy modelashtirish hisoblanadi. Uning asosida ijro etuvchilarning vakolatlari va ma'suliyatining taqsimotining grafik, matematik, maketli-devoriy tasviri yotadi. Boshqaruv tashkiliy strukturasi shakllantirishda boshqaruv pog'onalari va zvenolari soni, chiziqli va funksional boshqaruvning markazlashuvi darajasi, boshqaruv bo'limi va funktsiyalari tarkibi, bitta rahbarga to'g'ri keladigan bo'ysunuvchilar sonini asoslash zarur. Har qanday tashkiliy strukturaning sifati uni shakllantirishda quyidagilarga qanchalik amal qilingani bilan aniqlanadi:

- sistemali yondashuv, ya'ni boshqaruv obyekti va organiga ta'sir qiluvchi iloji boricha hamma faktorlarni hisobga olish;

- boshqaruv markazlashuvi va birlamchi zvenolar mustaqilligining optimal birligi; oliy rahbarlar to'g'ridan-to'g'ri ijro etuvchiga axborotni borishi va vaqtning maksimal qisqarishi;

- loyihalashtirilayotgan strukturada har bir tarkibiy qismning funktsiyasi vazifasi va huquqini to'g'ri aniqlash;

- boshqaruv sistemasidagi o'zgarishlarga javob qaytarishning imkoniyati;

- har bir aniq holat bo'yicha qaysi bo'linmada axborot ko'p bo'lsa shu savolni yechish bo'yicha bo'linmaga vakolat berish.

Boshqaruv apparati strukturasiga asosiy talab uning operativligida-dir. Apparat strukturasida shunchalik darajada egiluvchan va oddiy bo'lishi kerakki, boshqaruv sistemasida qaror qabul qilish va uni amalga oshirish kerak.

Operativlik bilan faoliyat yurgizishning ishonchligiga bog'liqdir. Bu degani boshqaruv apparati axborot uzatishning to'g'riligiga kafolat berish uzatilayotgan ma'lumotlarning buzilishiga yo'l qo'ymasligi kerak, boshqaruv sistemasida aloqaning uzluksizligini ta'minlash kerak.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Boshqarishning tashkiliy qurilmalari qanday bozor talablariga javob berishi kerak?
2. Boshqaruv bo'g'ini va zvenosi o'rtasida qanday farq bor?
3. Hududiy va tarmoq boshqarish organlari o'rtasida qanday farq bor?
4. Chiziqli tuzilma va chiziqli-funksional tuzilmalar qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?
5. Korxona boshqaruvi qanday maqsadni bo'zlaydi?

12 - mavzu. SANOAT KORXONALARI BOSHQARUV USULLARI

Menejment (*ingl. management—to manage-boshqarish*) – bu inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'atida berilgan tarifga binoan u:

- boshqaruv hokimiyati va san'ati;
- resurslarni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik va ma'muriy ko'nikmalar.

Menejment – bu boshqaruv, ya'ni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni ko'paytirish jarayonidir. **Boshqaruv** – bu o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir.

Menejment obyekti bu:

- bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq, voqelik, moddiy dunyo, mavjudot;
- kishi faoliyati, diqqat - e'tibori qaratilgan hodisa, narsa, shaxs;

– xo‘jalik yoki mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lgan korxona, qurilish, ayrim uchastka.

Obyekt tushunchasi mikro voqelikdan (kishi va uning faoliyatidan) tortib, to makro voqelik (moddiy dunyo, jamiyat) darajasigacha bo‘lishi mumkin.

Boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning rahbarlari menejmentning subyektii, ya’ni boshqaruv organlari yoki menejerlar boshqaruvchilar bo‘lib hisoblanadi.

Menejer – bu maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini puxta egallagan malakali, ishlab chiqarishni boshqaruvchi mutaxassisdir.

Menejerlar boshqaruv pog‘onasiga binoan uch toifaga bo‘linadi:

- top menejer
- yuqori pog‘ona menejerlari;
- o‘rta pog‘ona menejerlari;
- quyi pog‘ona menejerlari.

Yuqori pog‘ona menejerlari firma istiqbolini belgilash, uning kelajagi uchun ahamiyatli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Firma rejasini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi.

O‘rta pog‘ona menejerlari firma faoliyatining ayrim tomonlarini, ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, narx belgilash, moliya faoliyati, yangi tovarlarni o‘zlashtirish, texnologiyani qo‘llash, mehnatni tashkil etish kabi boshqarish bilan shug‘ullanadi.

Quyi pog‘ona menejerlari quyi bo‘g‘inda, sex, bo‘lim, brigada doirasida ishni tashkil etish, kundalik, haftalik, oylik ish topshiriqlarining bajarilishini boshqarib boradi.

Qonun – bu davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo‘lgan, ijtimoiy huquqiy norma va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida. Masalan, Konstitutsiya O‘zbekistonning asosiy qonunidir. To‘qqiz yillik majburiy ta’lim haqida qonun va h.k.

Qonun – bu bajarilishi shart majburiy bo‘lgan norma, qoida tusiga kirgan talab, topshiriq va shu kabilar, ya’ni jamiyatda ijtimoiy guruh va shu kabilarda qabul qilingan odat tusiga kirgan qoida, rasm, odat.

Tamoyil - mayl, moyillik, tendensiya.

Prinsip – so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, asos, dastlabki, ya’ni xatti - harakat yoki faoliyatning asosiy qoidasi rahbar g‘oya ma’nolarini bildiradi. Prinsiplarni menejment fani va amaliyotining poydevori deyish mumkin.

Maqsad – bu muddao, murod, ya'ni u yoki bu niyatga erishmoq uchun ko'zda tutilgan mushtarak orzu. Aynan, shu maqsad kishi faoliyatini, o'z orzularini ushalishiga yo'naltiradi. Oldimizda turgan maqsadimiz:

- bo'lajak harakatlarimizni oldindan aniqlab beradi;
- faoliyatimizning ustuvor yo'nalishini belgilaydi;
- faoliyatimizni aniq sohaga ishga yo'naltiradi ;
- u yoki bu faoliyatimizning zarurlik darajasini belgilab beradi;
- pirovard natijamizning baholash me'yorini belgilaydi va h.k.

Funktsiya – bu lotincha so'z bo'lib, biror kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi, vazifasi degan ma'nolarni bildiradi.

Vazifa – bu amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim bo'lgan masala, erishilishi lozim bo'lgan, ko'zda tutilgan maqsad.

Boshqaruv usullari

Usul – bu tadqiqot qilish yoki ta'sir ko'rsatish usulidir. Boshqaruv obyektini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan usullar:

- tizimli yondashuv;
- kompleks yondashuv;
- tarkibiy yondashuv;
- integratsion yondashuv;
- modellashtirish;
- iqtisodiy-matematik yondashuv;
- kuzatish;
- eksperiment;
- sotsiologik kuzatuv.

Boshqaruv usullari – bu xodimlarga va umuman ishlab chiqarish jamoalariga ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, bu usullar qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Boshqaruv usullari:

- tashkiliy-ma'muriy;
- iqtisodiy;
- sotsial-ruhiy.

Tashkiliy-ma'muriy usullar boshqarish usullari tizimida alohida o'rin tutadi. Bu usullarga:

- boshqarish apparatining muayyan strukturasi tuzish;
- har bir boshqaruv bo'g'inining funksiyalarini belgilash;
- kadrlarni to'g'ri tanlash;

– buyruqlar, farmoyishlar va qo‘llanmalar chiqarish, ularning bajarilishini nazorat qilish;

– topshiriqlar va deriktiv ko‘rsatmalarni bajarmayotgan bo‘linma va shaxslarga nisbatan majburiy choralarni qo‘llash kiradi.

Tashkiliy usullar boshqarish tizimida ichki ongli aloqalarning tarkib topishiga yordam beradi. Boshqarish funksiyalari bajarilishining:

- tashkiliy barqarorligini;
- intizomlilikini;
- muvofiqliligini;
- uzluksizligini ta’minlaydi.

Ma’muriy usullardan:

- iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish;
- atrof - muxitni muxofaza qilish;
- xavfli texnologiyalardan foydalanish, zararli ishlab chiqarish chiqitlarini chiqarib tashlashni tahqiqlash;
- odamlar sog‘lig‘iga zararli mahsulotlarni reklama qilishni taqiqlash kabi sohalarida faol foydalaniladi.

Boshqarishning tashkiliy - ma’muriy usullari ikki shaklda:

- tashkiliy ta’sir ko‘rsatish usullari;
- farmoyish berish usullari shaklida namoyon bo‘ladi.
- tashkiliy ta’sir ko‘rsatish turli tashkiliy choralarni, ya’ni:
- ishlab chiqarish va boshqarishning tashkiliy strukturalarini belgilash;

- ichki tartib-qoidalarini o‘rnatish;
- boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimlar o‘rtasida optimallik va oqilona nisbatni o‘rnatish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Boshqaruvning iqtisodiy usullari jumlasiga:

- kredit va foiz stavkalari;
- soliq va soliq yuki;
- boj to‘lovlari;
- subsidiya va sanksiya;
- litsenziya;
- transfert to‘lovlari;
- narx-navo va h.k kiradi.

Subsidiya – bu davlat tomonidan aniq maqsad yo‘lida ishlatish uchun qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘i.

Subsidiyalar:

- iqtisodiyotni diversifikatsiyalash;

- eksport - importni muvozanatlashtirib turish;
- innovatsiya;
- ayrim hududlarga yordam berish;
- konversiya (harbiy ishlab chiqarishdan xalqqa kerakli tovar ishlab chiqarishga o'tish) maqsadida ajratiladi.

Subsidiya:

- jahon bozorida milliy maanfatni himoya qilish;
- dunyo bozorida narx pasaygan sharoitda tovar eksportini to'xtatib turgan firmalarga madad berish;
- zarur ish bilan shug'ullanuvchi, lekin yangi, hali moliyaviy zaif firmalarni qo'llab-quvvatlash;
- davlat dasturlari va tavsiyalariga binoan ish yuritayotgan firmalarni siylash uchun beriladi.

Sanatsiya – iqtisodiyot uchun ahamiyati katta korxonalarni tang xolatidan chiqarib, ularning normal ishlab turishini ta'minlash hamda korxonalarni ommaviy bankrot bo'lishiga yo'l bermasdan, raqobatchi korxonalar sonini kerakli me'yorda saqlab turish maqsadida amalga oshiriladi.

Sanatsiyalash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- korxona qarzini kechib yuborish yoki uni o'zgaralar hisobidan to'lash;
 - qarzni to'lash muddatini kechiktirish;
 - qarz uchun berilgan foizni kamaytirish yoki umuman foiz olmaslik;
 - korxonaga soliqdan yengillik berish;
 - soliqni kreditga aylantirish;
 - korxonaga buyurtma berib, uning haqini oldindan to'lash;
 - subsidiya ajratish;
 - korxonaga eksport yuzasidan imtiyozlar berish.
- Davlatning sanatsiyadagi ishtiroki ikki shartni hisobga oladi.
- korxonaning milliy va hududiy iqtisodiyot uchun ahamiyati katta bo'lishi kerak;
 - korxonaning tang ahvolga tushib qolishiga uning o'ziga bog'liq bo'lmagan boshqa obyektiv sabablar bo'lishi lozim.

Transfert to'lovlar – bu o'tkazma to'lovlar, davlat byudjeti vositalarini qayta taqsimlash shakllaridan biri.

Bu to'lovlar:

- xususiy tadbirkorlarga subsidiyalar berish;

- davlat qarzları bo'yicha foiz to'lovlari;
- ijtimoiy ehtiyojlarga davlat tomonidan to'lanadigan pul mablag'ları ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan transfert to'lovlar kam ta'minlangan aholi guruhlari, nogironlarga, qariyalar va birovning boquvidagi kishilarga hamda ishsizlarga nafaqa to'lash ko'rinishida bo'ladi.

Sotsial-ruxiy usullarning asosiy maqsadi jamoalarda sog'lon ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishdir. Bu usul ijtimoiy-ma'naviy vaziyatga ta'sir etish yo'li bilan kishilarning fe'l-atvori, ruhiyatini hisobga olit ularning ijtimoiy talablarini qondirish orqali boshqarishni bildiradi.

Sotsial tadqiqotlar xilma-xil axborotlar olish imkonini beradi:

- jamoa a'zolarining mehnatga va rahbarlarga munosabati;
- boshqarish usullarining bir-biri bilan o'zaro munosabati;
- jamoaning ehtiyojlari va qiziqishlari;
- xodimlar shaxsiyati;
- xodimlar qo'nimsizligi sabablari;
- xodimlarning ishlab chiqarishdagi faolligi;
- jamoa a'zolarining ma'naviy va jismoniy ravnaqi;
- ehtiyojlarning qondirilish darajasi va h.k.

Menejmentda uchta asosiy uslub, ya'ni avtoritar (yoki avtokrat), demokratik (yoki kollegial), liberal uslublari ajratib ko'rsatiladi.

Avtoritar rahbar o'z qo'l ostidagilarni majburlash, taqdirlash yoki an'analarni ro'kach qilish yo'li bilan o'z irodasiga bo'ysundiradi. Duglas Mark Gregor (boshchilik sohasida mashhur amerikalik olim) «X» nazariyasi deb atagan avtokrat faoliyati ijrochilar qobiliyatini hisobga olmaydi. Mark Gregor uning usullarini «U» nazariyasi deb atovchi demokratik rahbar, o'z qo'l ostidagilar qaror qabul qilishda qatnashuvga qo'l qo'yadi, ularga ishonitirish yo'li bilan ta'sir ko'rsatadi.

Menejmentning **avtoritar uslubida** xodimlar faqat ularga buyurilgan vazifani bajarishlari lozim, bunda ular faqat eng kam zarur axborotga ega bo'lishlari kerak. Rahbarlikning avtoritar usuli armiya va flotda qo'llaniladi. U rasmiy tizim, nizomda ko'rsatilgan harbiylar huquq va burchlariga tayanadi. Avtoritar uslubning afzal tomoni bo'ysunuvchilarga ta'sir etishning markazlashgan bo'lishidir.

Rahbarlik qilishning **demokratik uslubi** qarorlar qabul qilish va yechishda jamoa a'zolarini keng jalb etish bilan ajralib turadi. Bunda

muhokama qilishning muvofiqlashtirish va nazorat qilishning jamoa shakllaridan ko'proq foydalaniladi, rahbar o'z vakolatining bir qismini qo'l ostidagilarga topshiradi.

Rahbarlikning **liberal uslubi** rahbarning jamoa faoliyatiga minimal aralashuvi bilan xarakterlanadi. Rahbar bunday holda mehnat jamoalari o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi, xodimlarni ish uchun zarur axborot bilan ta'minlaydi. Liberal uslub maqsad aniq va xodimlar ishi individual xususiyatga ega bo'lgan holdagina qo'llanilishi mumkin.

Amalda aniq bir uslub sof holda qo'llanilmaydi, ko'p hollarda bir qancha uslublar kombinatsiyasidan foydalaniladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Menejment tushunchasi, uning obyekti va subyekti.
2. Menejerlar boshqaruv pog'onasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Boshqaruv usullari nima?
4. Tashkiliy-ma'muriy usul nima?
5. Ma'muriy usul nima?
6. Boshqaruvning iqtisodiy usuli nima?
7. Boshqaruvning ruhiy usuli nima?
8. Subsidiya geb nimaga aytiladi?
9. Sanatsiya nima?
10. Sanatsiyaga qo'yiladigan shartlar qanday?

13-mavzu. BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Boshqaruv qarori keng ma'noda jamiyatdagi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning real qondirilish imkoniyatlari bilan bir nuqtada kesishuvi, milliy iqtisodiyotdagi bir nuqtada kesishuvi. **Boshqaruv qarori** – korxona oldida turgan maqsadlar va missiyasini amalga oshirish demakdir. Aynan shu jarayonda yuzlab, minglab insonlar o'z ehtiyojlarini qondiradi, mavqeiga ega bo'ladi, har tomonlama o'sadi va umuman jamiyat o'sadi.

Boshqaruv faoliyatining samaradorligi nuqtai nazaridan qarorlar quyidagi turlarga bo'linadi: strategik va operativ.

Strategik qaror – bu korxonaning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan maqsad va missiyalarning shakllanishi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bu qarorlar korxonaning faoliyatidagi yangicha yondashuvlar, keskin burilishlarni silliq o'tishini ta'minlaydi. Strategik qarorlar korxona, hudud, soha darajasida qarorlar jamiyatdagi yangi manbalar hisobiga butun iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechishga yordam beradi.

Operativ qarorlar bu mohiyati bo'yicha xo'jalik boshqaruv qarorlaridir. Ular boshqariladigan obyektни uzluksiz ishlash jarayonini qo'llab-quvvatlashi uchun joriy shaxsiy muammolar bo'yicha qabul qilinadi.

Mehnat turi bo'yicha qarorlar standart va nostandart qarorlarga bo'linadi. Standart, ba'zan dasturiy qarorlar – bu qarorlarning o'zini ishlab chiqish va uni qabul qilish jarayonidagi qarorlardir. Dasturlash va uni qabul qilish jarayonidagi qarorlardir. Dasturlash mumkin **nostandart qarorlar** – bu eng murakkab, asosiy qarorlar. Hal qilinadigan muammoga ijodiy yondashish uchun kengligi bilan ajralib turadi. Ijodiy qarorlar har doim jadallik va yangilikda namoyon bo'ladi.

Bozor munosabatlari mezonida boshqaruv qarori menejmentning bosh omili hisoblanadi, tarmoq taraqqiyotining butun iqtisodiy va ijtimoiy muammolari kesishadigan va bir joyda to'planadi. Boshqaruv qarorlarining samarasiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

- rahbariyatning yoki guruhning shaxsiy sifatleri;
- qarorni ishlab chiqishdagi sharoitning axborot ta'minoti;
- tashkiliy xarakter omillari (qarorni ishlab chiqishda mutaxassislarni taklif qilish, usullar tizimi va qabul qilingan qarorni bajaruvchilarga yetkazish shakli, nazorat tizimi va h.k.);
- texnik omillar (EHM texnik vositalaridan foydalanish va h.k.);
- qarorni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishdagi vaqtinchalik omillar.

Menejment amaliyotida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llashning ko'plab shakl va metodlari yig'ilgan. Savollarining murakkabligi va mazmuniga qarab, boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilishdadan oldin rahbar quyidagilarni aniqlab olish shart:

- harakat maqsadi va unga erishish yo'llari;
- muammoning muhim taraflarini;
- kerakli moddiy, pulli va mehnat resurslarini;
- bajaruvchilarning vazifalarini;
- vazifa bajarilishini tashkil etish tartibini.

Har bir murakab qarorlarni qabul qilish jarayoni o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- maqsadning aniqlanishi, muammoni tushunish va kerakli axborotni yig'ish;

- yig'ilgan axborotni klassifikatsiya qilish, tahlil qilish va baholash, ya'ni axborotni qayta ishlash;

- qarorlarning turli variantlarini ishlab chiqish;

- variantlarni tahlil qilish, muhokama qilish va baholash;

- oxirgi va optimal variantni qabul qilish;

- har bir qarorni kerakli shaklda hujjatlashtirish;

- qarorlarni muxrlab qo'yish;

- qarorning bajaruvchiga qo'yilishi;

- qabul qilingan qarorlar bajarilishini tashkil qilish;

- qaror bajarilishining nazorati va hisobi.

Boshqaruv qarorlarining asosi deb optimal variantga eng yaqin bo'lgan, eng zo'r variant qabul qilinadi. Bu variant mehnatni, moliyaviy-texnik resurslarni va vaqtni eng kam sarf qilingan holda, korxonadagi mavjud holat haqidagi mantiqiy axborotlarni yig'ib, tahlil qilish orqali kelib chiqadi.

Optimal qarorni yoki unga yaqin qarorni tanlashda kerakli usul va uslubni qo'llash darkor.

Qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiq holda bajarilishi uchun ishlab chiqarish jarayonida maxsus maqsadga yo'naltirilgan dasturlar, tarmoqli grafiklarni, matritsali boshqaruv tizimini ishlab chiqarish zarur. Bu marosimlarning 3 ta guruhga ajratish mumkin:

- qarorlarni o'z vaqtida bajaruvchilarga yetkazib berish;

- kadrlar va resurslar optimal joylashtirish operativ zahiralarni shakllantirish;

- qarorlarning bajarilishini nazorat qilish.

Birinchi guruh marosim. Qarorlarni o'z vaqtida bajaruvchilarga yetkazib berish. Bu yerda uni o'z holiga tashlash mumkin emas. Qarorlarni bajaruvchilarga bir oy-ikki oyda yetib borishini kuzatish mumkin. Bu holda u o'z faolligini va mazmunini yo'qotadi. Chunki u kech yetib boradi.

Bajaruvchilarning fikrlarini keng tarqalgan shakllaridan biri ularni qaror qabul qilishga jalb qilish. Shu asosda ishlab chiqarishning ishtirokchilari qaror konsepsiyasi va masalalar yechimlari bilan

tanishadilar. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonini chetdagilarga qaraganda yaxshiroq bilishadi.

Ikkinchi guruh marosimi – bu kadrlar va resurslar manyovri shuningdek operativ rezervlar. Har bir yechim moddiy ta'minotga muhtoj bo'lib, odamlarning qayta oriyentatsiyasi va ularning qayta tayyorlashga va almashtirishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ishlab chiqarishdagi yirik dasturlarning realizatsiyasi va ishlab chiqarishni qayta qurish ishlarining uslub va formalarini keskin o'zgarishiga olib keladi. Bu kadrlar strukturasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchi marosimlar guruhi – bu nazorat, ya'ni chuqur malakali tahlil. Tizimli nazoratsiz yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. Boshqaruvning yuqori darajasida, bunday nazoratni tashkilot aniq maqsadga va kerakli mehanizmga erishish uchun talab qiladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Boshqaruv qarorlari qanday ko'rinishlarga bo'linadi?
2. Tezkor va strategik qarorlar nima bilan farqlanadi?
3. Boshqaruv qarorlari samaradorligiga qanday omillar ta'sir etadi?
4. Boshqaruv qarorlariga qanday talab qo'yiladi?
5. Boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligi deganda nimani tushunasiz?
6. Qarorni bajarishning yakunlovchi bosqichi deganda nimani tushunasiz?
7. Qarorning bajarilishini nazorat qilishdan qanday foydalaniladi?

14-mavzu. SANOAT KORXONALARIDA XODIMLARNI BOSHQARISH

Xodimlarni boshqarishni o'qitishdan asosiy *maqsad* – talabalarda inson resurslarni boshqarish bo'yicha nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay oladigan darajadagi malaka va ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir. U talabalarda ishlab chiqarishning maqsadiga erishishini ta'minlovchi inson resurslarni boshqarishning nazariy va amaliy kasbiy bilimlarini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda xodimlarni boshqarishning quyidagi asosiy *vazifalari* mavjud:

– xodimlarni boshqarish asoslarini o'rganish;

– korxonalarda xodimlarni boshqarish strategiyasi, taktikasining mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini o‘rganish;

– yuqori malakali kadrlarni shakllantirish, inson resurslarni boshqarishning mezonlari, o‘lchovlari va ko‘rsatkichlari bo‘yicha bilimga ega bo‘lish;

– xodimlarni professional tanlash, o‘qitish, malakasini oshirish va lavozimlarga biriktirish masalalarini o‘rganish;

– inson resurslarni ishga qabul qilish, bo‘shatish hamda inson resurslarni boshqarishning huquqiy-normativ asoslari bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

– xodimlarni boshqarish bo‘yicha ish yuritish asoslarini, zaruriy hujjatlarni to‘g‘ri va tez rasmiylashtirish;

– inson resurslarni boshqarish jarayonining samaradorlik darajasini aniqlash va uni oshirish yo‘llarini belgilash;

– boshqaruv inson resurslari mehnatini tashkil etish.

Olimlarning fikricha, kadrlarning ishlab chiqarishdagi roli to‘g‘risidagi 4 konsepsiya almashgan:

1. Mehnat resurslaridan foydalanish. Ushbu konsepsiya XIX asrning oxirlarida XX asrning 60 - yillarida o‘z aksini topgan. Ushbu konsepsiyada ishlab chiqarishda inson emas, uning funksiyasi, ish vaqti sarfi va ish haqi bilan o‘lchanadigan mehnat ko‘rib chiqilar edi;

2. Inson resurslarni boshqarish. Bu konsepsiya 1930 yillarda rivojlangan. Ushbu konsepsiyaning ilmiy asosi bo‘lib byurokratik tashkilotlar nazariyasi hisoblanadi. Bunda inson rasmiy roli mansab orqali ko‘rib chiqilib, boshqarish ma‘muriy mexanizmlar (tamoyillar, usullar, vakolatlar, funksiyalar) orqali amalga oshiriladi;

3. Xodimlarni boshqarish. Inson mansab sifatida emas (struktura elementi sifatida emas) to‘ldirilmaydigan resurs – uchta asosiy komponentdan (mehnat funksiyasi, ijtimoiy munosabatlar, ishchining ahvoli) iborat tashkilotning ijtimoiy elementi sifatida ko‘riladi. Ushbu konsepsiyaning asoschisi bo‘lib Yaponiyaning yetakchi olimlari hisoblanadi;

4. Insonni boshqarish. Bu konsepsiyaga muvofiq inson tashkilotning asosiy subyekti va boshqaruvning alohida obyekti bo‘lib resurs sifatida qaralishi mumkin emas. Insonning istaklari va qobiliyatidan kelib chiqqan holda tashkilotning strategiya va tarkibi tuzilishi kerak. Ushbu konsepsiya asoschilari yaponiyaning yetakchi olimlari hisoblanadi.

Inson resurslarini boshqarish tizimi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Resurslarni rejalashtirish:** inson resurslariga kelgusi ehtiyojlarni qondirish rejasini ishlab chiqish;

2. **Inson resurslarni to'plash:** barcha lavozimlar bo'yicha potensial nomzodlar rezervini tashkil etish;

3. **Tanlash:** ish joylariga nomzodlarni baholash va rezervdan eng yaxshilarini tanlash;

4. **Ish haqi va imtiyozlarni aniqlash:** xizmatchilarni jalb qilish, yollash va saqlab qolish maqsadida ish haqi va imtiyozlar strukturasi ishlab chiqish;

5. **Kasbga yo'naltirish va moslashuv:** yollangan ishchilarni tashkilot va uning bo'linmalari bilan tanishtirish, ishchida undan nima kutilayotganligi haqida tushuncha hosil qilish va qanday mehnat yaxshi baholanishini tushuntirish;

6. **O'qitish:** ishni samarali bajarish uchun kerakli mehnat ko'nikmalarini o'rgatish uchun dasturlar ishlab chiqish;

7. **Mehnat faoliyatini baholash:** mehnat faoliyatini baholash metodikasini ishlab chiqish va uni xodimga yetkazish;

8. **O'stirish, pasaytirish, o'tkazish, bo'shatish:** xodimlarni lavozimlarga yoki boshqa ish uchastkalariga o'tkazish metodlarini ishlab chiqish;

9. **Rahbar kadrlarni tayyorlash, xizmat ko'rsatishlarini boshqarish:** rahbar xodimlarni mehnat samaradorligini ko'tarishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish.

Motivatsiya (motiv – sabab) nazariyasi adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Motivatsiya shaxsiy, guruhlar va jamoa maqsadlariga erishish uchun insonga ko'rsatilgan ta'sirdir.

Mehnat motivatsiyasi menejmentning eng asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. U ishchining yoki ishchilar guruhining ehtiyojlarini qondirish orqali korxona maqsadlariga erishishda, ularning mehnatini rag'batlantirishda namoyon bo'ladi.

Korxona xodimlarini rag'batlantirishning (motivatsiya) asosiy shakllariga quyidagilar kiradi:

1. Ishchi korxona faoliyatiga qo'shayotgan hissa baholanishini xarakterlovchi ish haqi (absolyut miqdori va boshqa xodimlar ish haqiga nisbatan taqqoslanishi).

Ish haqi ishchining malakasi va shaxsiy qobiliyati, mehnatda erishgan yutuqlari bilan belgilanib, o'z ichiga turli ustama to'lovlar va mukofotlarni oladi. Shuningdek, ish haqiga korxonaning aksiya

kapitali foydasida ishtirok etish tufayli olinadigan daromad ham qo'shiladi.

2. Korxona ishchilari uchun yaratilgan ichki imtiyozlar tizimi:

- imtiyozli ovqatlanish, korxona ichida o'rnatilgan chanqovbosdi ichimliklar sotish avtomatlari;

- korxona mahsulotlarining o'z xodimlariga imtiyozli narxlarda sotilishi;

- ishga kelish va ketishda yo'l haqining qisman yoki to'liq to'lanishi;

- o'z xodimlariga kam foizli yoki foizsiz sudalar berilishi;

- firma transportidan foydalanish huquqini berish;

- belgilanganidan ortiq darajadagi kasallik varaqalari bo'yicha haq to'lash, korxona hisobiga ishchilarni sug'urta qilish;

- samarali mukofotlash, korxonadagi ish staji uchun qo'shimcha iq to'lash va boshqalar.

3. Nomoddiy (iqtisodiy bo'lmagan) imtiyozlar:

- sirpanuvchi, egiluvchan grafiklar bo'yicha ishlash huquqini rish;

- ishda erishgan muvaffaqiyatlari uchun ishchiga pul to'lanuvchi aytilgan tahtillar, otgullar berish;

- muddatidan oldinroq nafaqaga chiqarish va boshqalar.

4. Mehnat mazmunini boyituvchi, ishchini mustaqil ishlashga va alakasini oshirishga rag'batlantiruvchi, uning mas'uliyat hissini chaytiruvchi tadbirlar.

Ishchilarning korxona boshqaruviga jalb etilishi ham ularning ivqeini ko'taradi, chunki bu bilan ishchilarning korxonadan va ung rahbarlaridan uzoqlasheviga chek qo'yiladi.

5. Maqbul ijtimoiy muhitning yaratilishi: ayrim guruhdagi ishchilar asidagi, ular bilan boshqaruv ma'muriyati xodimlari o'rtasidagi i'muriy, psixologik to'siqlarning olib tashlanishi, jamoa o'rtasida zaro ishonch va bir-birini tushunishning o'sishi; ishlovchilarning i'naviy taqdirlanishi.

6. Xodimlarning mansab pog'onalaridan ko'tarilishi, ularning kela-jini rejalashtirish, o'qitish va malakasini oshirish.

Mazkur tadbirlar mehnat potensialidan unumli foydalanishga va ung bozordagi raqobatga chidamliligini oshirishga imkon yaratadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Xodimlarni boshqarish xususiyatlarini tushuntiring.
2. Xodimlarni boshqarishda qanday bosqichlari mavjud?
3. Xodimlarni boshqarishdagi nechta asosiy ko'rinishlar mavjud?
Aytib bering.

**“Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti”
fanidan test savollari**

1. Quyida sanab o'tilgan strategiyalardan qaysi biri xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan?

- A) Fokuslash strategiyasi
- B) Differensiya strategiyasi
- D) Xarajatlar ustidan nazorat
- E) Amaliy strategiya

2. Ishlab chiqarish siklining davomiyligi – bu...

- A) Mehnat predmeti bevosita tayyorlash jarayonida bo'lishi davri
- B) Bu jarayonda tanaffuslar vaqti
- D) Mahsulotning navbatdagi chiqarilishi orasidagi vaqt oralig'i
- E) Ikki detalga ishlov berish orasidagi vaqt oralig'i

3. Tizimning joriy vaqtda rejalashtirilishi va nazoratiga quyidagi majburiyatlar kiradi...

- A) Ishlab chiqarish menejerlari
- B) Yuqori bo'g'in menejerlari
- D) Quyi bo'g'in menejerlari
- E) O'rta bo'g'in menejerlari

4. Qanday mulk turlarini bilasiz...

- A) Xususiy aralash
- B) Xususiy, jamoa mulki
- D) Xususiy, jamoa, davlat, aralash, qo'shma korxonalar
- E) Qo'shma korxonalarning mulki jamoa mulki

5. Rejalar tizimi rejalashtirish natijasi hisoblanadi – bu ...

- A) Joriy, qisqa muddatli, strategik
- B) Uzoq muddatli, tezkor
- D) Uzoq muddatli, o'rta muddatli, tezkor
- E) Qisqa muddatli, strategik, joriy

6. Biznes - reja bu...

- A) Firmaning keyingi rivojlanish yo'llarini aniqlash
- B) Korxonaning keyingi rivojlanishi uchun mablag'lar
- D) Tuzilmaviy siyosat yo'nalishi
- E) Korxona faoliyatini ijodiy loyihalashtirish, bashoratlash

7. Korxonalar mulk turi bo'yicha farqlanadi...

- A) Xususiy aksionerlik, davlat, ijaraga olish
- B) Xususiy, aksionerlik, qo'shma korxonalar
- D) Xususiy, jamoaviy, davlat, qo'shma korxonalar
- E) Kichik korxonalar, qo'shma korxonalar

8. "Tashkilot" – bu ...

- A) Ko'p tarmoqli korporatsiya
- B) Mustaqil ishlab chiqarish subyekti
- D) Ko'p qirrali tushuncha
- E) Mustaqil xo'jalik subyekting muvaqqat ittifoqi

9. Ishlab chiqarish menejmentining muhim vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- A) Patent himoyasi bilan ta'minlangan mahsulotlar va kashfiyotlarni doimiy yangilash
- B) Yuqori sifatli mahsulot chiqarish
- D) Yuqori sifatli va ishonchli mahsulot ishlab chiqarish, bitimlar bo'yicha majburiyatlarni yaxshi bajarish
- E) Tovarlarini muddatida yetkazib berishga nisbatan bitimlar bo'yicha majburiyatlarni yaxshi bajarish

10. Ishlab chiqarish menejmenti hisob fani sifatida kursning asosiy tamoyillari, shakl va usullariga asoslanadi:

- A) "Menejment sotsiologiyasi va psixologiyasi"
- B) "Investitsiyalarni boshqarish"
- D) "Risklarni boshqarish"
- E) "Menejment asoslari"

11. "Ishlab chiqarish menejmenti" kursining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- A) Ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmini ko'rib chiqish
- B) Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati va uning joriy vazifalari yechimi
- D) Bozor sharoitlarida uning joriy va strategik vazifalari yechimi
- E) Korxonalar faoliyati va ularning strategik vazifalari yechimi

12. Xo'jalik yuritish faoliyatining qanday huquqiy shakllari mavjud:

- A) To'liq shirkat, mas'uliyati cheklangan jamiyat
- B) Davlat va mahalliy unitar korxonalar
- D) Iste'mol kooperativlari, muassasalari, birlashmalari
- E) Xo'jalik shirkatlari, ishlab chiqarish kooperativlari, notijorat tashkilotlar

13. Korxona:

- A) Professional mehnat jamoasi, ishlab chiqarish – xo'jalik birligi
- B) Murakkab xo'jalik, xo'jalik majmuasi
- D) Ishlab chiqarish vositalari
- E) Mahsulot ishlab chiqarish va jamiyatga xizmat ko'rsatish

14. Korxonaning ishlab chiqarish – tarkibi sifatidagi belgilari:

- A) Tashkiliy – ma'muriy mustaqillik va qisman xo'jalikka asoslanish

- B) To'liq yoki xususiy xo'jalik asosi va ishlab chiqarish texnikaviy birligi
- D) To'liq asoslanganlik va ishlab chiqarish texnikaviy birligi
- E) Ishlab chiqarish texnikaviy birligi va tashkiliy-ma'muriy mustaqillik va to'liq xo'jalikka asoslanish

15. Bozor iqtisodiyotida quyidagilar asosiy hisoblanadi...

- A) Ishlab chiqaruvchi
- B) Istemolchi
- D) Ishchi, har qanday kishi
- E) Iqtisodiy erkinlik

16. Kelishuv asosida faoliyat yurituvchi kompaniya...

- A) Xolding
- B) Korporatsiya
- D) Moliya – sanoat guruhi
- E) Sindikat, konsorsium

17. Xolding kompaniyasi o'zida nimani namoyon etadi...

- A) Boshqa kompaniyalarning vazifalari nazorati va boshqaruvini amalga oshirish maqsadida ularning aksiyalari nazorat paketiga ega bo'lish
- B) Boshqaruv vazifalarini – birlashtiruvchi tashkilot
- D) Sanoat sohasida tadbirkorlik bilan bog'liq tashkilot
- E) Savdo va transport sohalaridagi tadbirkorlik bilan bog'liq tashkilot

18. Aksionerlik jamiyati o'zida nimani namoyon etadi...

- A) Ilmiy-ijtimoiy yo'nalishlar maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarni birlashtiruvchi jamiyat
- B) Kompaniyaning moliya – xo'jalik faoliyatini tekshiruvchi tashkilot
- D) Chiqarilayotgan aksiyalar asosida yaratilgan jismoniy shaxslarni birlashtiruvchi jamiyat
- E) Mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt

19. Korxonaning xo'jalik mexanizmi bu...

- A) Mehnat jamoasi va asosiy ishlab chiqarish vositalari aro aloqa
- B) Xo'jalik yurituvchi usullari, shakllari va tamoyillari yig'indisi
- D) Mehnat jamoasi va asosiy ishlab chiqarish vositalari aro aloqa
- E) Xo'jalik yurituvchi usullari va tamoyillari yig'indisi

20. Korxona huquq obyekti sifatida tan olinadi

- A) Tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshirish uchun qo'llaniladigan mulk kompleksi
- B) Ko'chmas mulk bilan tan olinadigan mulk kompleksi
- D) Buyum huquqini belgilash, o'zgartirish va tugatish bilan bog'liq butun korxona
- E) Savdo - sotiq, garov, ijara va boshqa bitimlar obyekti

21. Ishlab chiqarish – texnik biligi quyidagilardan iborat:

- A) Butun ishlab chiqarishni tashkil etuvchi majmua
- B) O'zaro ta'sir ostida yakuniy mahsulot (xizmatlarini) tan olinadigan texnologik jarayonlar
- D) Birlikdagi yagona birlikni tashkil etuvchi bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldirib turuvchi majmua
- E) Iste'mol xomashyosi, materiallari, texnologik jarayonlar birligi

22. Tashkiliy – ma'muriy mustaqillikning mohiyati quyidagilardan iborat:

- A) Berilgan vakolati doirasida rahbar mustaqil qaror qabul qiladi
- B) Rahbar amal qilish natijalari va mexanizmlariga taalluqli qarorlarni qabul qiladi va amalga oshiradi
- D) Korxona o'z rahbari nomidan amal qilish natijalariga taalluqli qarorlarni qabul qiladi
- E) Korxona o'z rahbari nomidan korxona faoliyati natijalariga taalluqli qarorlarni qabul qiladi va amalga oshiradi

23. Xo'jalikka asoslangan korxona unga quyidagilar tegishli ekanini anglatadi:

- A) Faoliyatning moliyaviy natijalari – foyda va zararlar
- B) Buxgalteriya hisobi va hisobotning yaxlit tizimi
- D) Moliyaviy natijalarni boshqarish
- E) Asosiy va aylanma kapitalning ma'lum miqdori

24. Korxona faoliyati sohasi va ishlab chiqargan mahsuloti xarakteriga bog'liq holda quyidagilarga bo'linadi:

- A) Sanoat, savdo
- B) Qishloq xo'jaligi, transport
- D) Savdo transporti
- E) Sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi, transport

25. Korxonani ishlab chiqarish jarayonlari turlari bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- A) Ommaviy ishlab chiqarish
- B) Ishlab chiqarishning yagona turi
- D) Seriyali va yagona
- E) Ommaviy, seriyali va yagona

26. Konsorsium o'zida nimani namoyon etadi?

- A) Kapital sig'imli loyihalarning birlashma shakli
- B) O'zining iqtisodiy va yuridik mustaqilligini saqlab qolgan kompaniya
- D) Tijorat raqobatni oshirish uchun yaratilgan kompaniya
- E) Bir necha korxona orasidagi bitim asosida yaratilgan birlashma shakllaridan biri

27. Jamoani boshqarish bu...

- A) Boshqaruvni tashkil etish, rejalashtirish
- B) Iqtisodiy qarorlarni qabul qilish
- D) Ishlab chiqarish jamoasi maqsadlariga erishish
- E) Boshqaruv vazifalarini boshqarish

28. Raqobat ko'rinishlari...

- A) Mukammal, monopolistik, aniq
- B) Aniq, nomukammal, monopolistik
- D) Mukammal, nomukammal, monopolistik
- E) Monopolistik, mukammal

29. Ishlab chiqarish omillari bu...

- A) Ishchi kuchi, uskuna
- B) Xomashyo, materiallar, ishchi kuchi
- D) Iqtisodiy resurslar
- E) Axborot, pul mablag'lari

30. Ishlab chiqarishni samarali boshqarishni baholash...

- A) Muddatlilik, tashkil etilganlik
- B) Dolzarblik, tejamkorlik
- D) Reallikning dolzarbligi, tejamkorlik
- E) Natijaviylik, dolzarblilik, tejamkorlik

31. Korxonaning asosiy tuzilmaviy-tashkiliy birligi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- A) Maydon va ish joyi
- B) Ish joyi
- D) Seh
- E) Ishlab chiqarish jarayoni

32. Boshqaruv jarayoni bu:

- A) Boshqarilayotgan kichik tizimlarning boshqaruvchining o'zaro ta'sir protseduralari va operatsiyalari yig'indisi
- B) Boshqaruvchi kichik tizim
- D) Korxonaning tashkiliy tuzilmasi
- E) Boshqarilishga boshqarilayotgan kichik tizimning ta'siri

33. Ishlab chiqarish jarayoni o'zida quyidagilarni namoyon etadi:

- A) Mahsulot ishlab chiqarishning tabiiy jarayoni
- B) Mahsulot tayyorlashning tabiiy va mehnat jarayonlari kompleksi
- D) Hajm, assortiment, nomenklaturalar
- E) Berilgan sifatda mahsulot tayyorlash

34. Har bir ishlab chiqarish jarayoni quyidagilardan iborat:

- A) Ko'pgina xususiy jarayonlar
- B) Asosiy jarayonlar
- D) Yordamchi va asosiy jarayonlar
- E) Xizmat ko'rsatuvchi va asosiy jarayonlar

35. Ishlab chiqarish jarayonining ratsional tashkil etilishining asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- A) Ixtisos, proporsionallik, parallellik
- B) Aniqligi, ritmiklik, uzluksiz
- D) Proporsionallik, parallellik, ritmiklik
- E) Kichik, o'rta, yirik

36. Korxonani boshqarishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- A) Sehlarning samarali amal qilishi
- B) To'xtashlar va har qanday kamchiliklarni tugatish
- D) Bosqichli ishlab chiqarish – savdo sikllari
- E) Qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish

37. Boshqaruv jarayoni quyidagilardan boshlanadi:

- A) Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish
- B) Kommunikatsion jarayon
- D) Nazorat va hisob
- E) Maqsadlar siyosatini ishlab chiqish

38. Nima ishlab chiqarish menejmentining obyekti hisoblanadi?

- A) Ishlab chiqarishni tashkil etish
- B) Ishlab chiqarish tizimlari
- D) Tashkilot, kompaniya, korxona
- E) Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish tizimlari

39. O'n ikkita unumdorlik jarayonini quyidagi olimlardan qaysi biriga tegishli?

- A) A.K.Gastev (1882-1941)
- B) G.Emerson (1853-1931)
- D) F.Teylor (1856-1915)
- E) G.Gant (1861-1924)

40. Integratsiyalangan ishlab chiqarish korxonasi – bu...

- A) Ishlab chiqarish korxonasining rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilayotganini anglatadi
- B) Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish tizimlarini anglatadi
- D) Ishlab chiqarish vazifalarining anglatadi
- E) Ishlab chiqarish jarayonida barcha xizmatlar ishtirok etishini, ishlab chiqarish korxonasining rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilayotganini anglatadi

41. Ishlab chiqarish menejmentining tarkibiy sikli quyidagilar hisoblanadi...

- A) Tartibga solish, tahlil
- B) Rejalashtirish, tahlil, nazorat
- D) Boshqaruv qarorlari
- E) Axborotlarni yig'ish, saqlash

42. Quyida sanab o'tilgan strategiyalardan qaysi biri xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan?

- A) Fokuslash strategiyasi
- B) Differensiya strategiyasi
- D) Xarajatlar ustidan nazorat
- E) Amaliy strategiya

43. Ishlab chiqarish jarayonini quyidagilar kabi aniqlash mumkin...

- A) Moddiy boyliklarni ishlab Chiqish jarayoni
- B) Ishlab chiqish jarayoni
- D) Mehnat jarayonlari va tabiiy jarayonlar yig'indisi
- E) Ishlab chiqarish munosabatlari va moddiy boyliklarni takror ishlab chiqarish jarayoni

44. Rejalashtirish quyidagilardan iborat...

- A) Rejalar tuzish, maqsadga erishish
- B) Maqsadlar, istaklarni shakllantirish, rejalar tuzish
- D) Qo'yilgan maqsadlarga, istaklarga erishish
- E) Xarajatlar tarkibini tahlilining rejalarini tuzish

45. Ishlab chiqarish tizimining asosiy vazifasi nimadan iborat?

- A) Texnologik jarayonlar
- B) Yordamchi operatsiyalar
- D) Mahsulot chiqarish
- E) Nazorat, sifat

46. Asosiy ishlab chiqarish mahsulotlariga quyidagilar kiradi...

- A) Yordamchi ishlab chiqarish uchun mo'ljallanganlar
- B) Realizatsiya uchun mo'ljallanganlar
- D) Mintaqa uchun texnologik uskuna
- E) Tovar mahsulot uchun mo'ljallanganlar

47. Ishlab chiqarish sikli nimani anglatadi?

- A) Ishlab chiqarish jarayonini
- B) Ishlab chiqarish operatsiyasini
- D) Kalendar vaqtini
- E) Tayyorlash jarayonini

48. Korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalari quyidagilar bilan muvofiglikda harakat qiladi va rivojlanadi

- A) Ishlab chiqarish motivlari bilan
- B) Jamoa faoliyati va uning har bir a'zosi bilan
- D) Jamoa a'zolari faoliyat motivlari bilan
- E) Ma'lum maqsadlarda

49. Vertikal aloqalar bu:

- A) Seh boshliqlari aro aloqa
- B) Brigada boshliqlari aro aloqa
- D) Seh boshliqlari va brigada boshliqlari orasidagi aloqa
- E) Korxona direktori va seh boshlig'i orasidagi aloqa

50. Gorizantal aloqa bu:

- A) Korxona direktori va seh boshlig'i orasidagi aloqa
- B) Korxona direktori va brigada boshliqlari aro aloqa
- D) Seh boshliqlari aro aloqa
- E) Korxona direktori va direktori o'rinbosari orasidagi aloqa

51. Ishlab chiqarish tuzilmasini quyidagilar tashkil etadi:

- A) Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar va xizmatlar
- B) Sehlar va maydonlar
- D) Brigadalar va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar
- E) Korxonaning ishlab chiqaruvchi bo'linmalari

52. Ishlab chiqarish menejmenti tizimi qanday kichik tizimlardan iborat:

- A) Ishlab chiqarishning texnik tayyorgarligi
- B) Texnik xizmat ko'rsatish
- D) Maqsadli, ta'minlovchi, funksional, boshqaruvchi
- E) Iqtisodiy faoliyatini boshqarish

53. Texnik resurslar bu:

- A) Inventar va yordamchi materiallar
- B) Ishlab chiqarish uskunalari
- D) Asosiy va yordamchi materiallar
- E) Asosiy va yordamchi materiallarning ishlab chiqarish uskunalari xususiyatlari

54. Texnologik resurslar bu:

- A) G'oyalar raqobatbardoshligi
- B) Ilmiy g'oyalar
- D) Texnologik jarayonlar
- E) Texnologik jarayonlarning qovushshoqligi, ilmiy g'oyalar

55. Xodimlarga doir resurslar bu:

- A) Maqsadlar o'zgarishiga moslashishi usullari
- B) Ishchilarning demografik tarkibi
- D) Ishchilarning malakali, demografik tarkibi
- E) Malakali ishchilar tarkibi

56. Boshqaruv tizimi tashkiliy tuzilmasining resurslari:

- A) Boshqaruv tizimining tavsifi va qayishqoqligi
- B) Texnologik jarayonlarning qayishqoqligi
- D) Boshqaruv tizimining qayishqoqligi, boshqaruv ta'sirlarining tezligi
- E) Ishlab chiqarish tizimining xususiyatlari

57. Ishlab chiqarish tizimining quyidagi tizimlari kabi namoyon etilishi mumkin...

- A) Sifat – xarajatlar – aylanish
- B) Chiqarish – aylanish
- D) Tahlil – nazorat – chiqarish
- E) Xarajatlar – aylantirish – chiqarish

58. Quyida sanab o'tilganlarning qaysi biri standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot faoliyatlarining asosiy ko'rinishi hisoblanadi?

- A) Eletrotexnikalarning standartlashtirish masalalarini hal etishda xalqaro hamkorlikka bo'maklashish
- B) Xalqaro standartlarni ishlab chiqish
- D) Sifat vazifalarini tuzilmashtirish
- E) Sifatning joriy boshqaruvi

59. Unumdorlikni boshqarishda mehnat unumdorligini o'lchashning qanday usuli qulayroq

- A) Qiymati
- B) Mehnat
- D) Natural
- E) Boshqaruv

60. Ishlab chiqarish menejmentini tashkil etuvchilarning qaysi biriga mehnatni tashkil etishni kiritish mumkin?

- A) Rejalashtirish
- B) Nazorat
- D) Rahbariyat
- E) Mehnat shartlarini belgilash

61. Doimiy bajarilgan ishlar soni va mehnat sig'imi nimani aks ettiradi...

- A) Texnologik jarayonning ilg'orligi

- B) Mehnat sharoiti
- D) Ish joyining tashkiliy darajasi
- E) Ish joyini belgilash

62. Rejali davr boshiga ishlab chiqarish kuchining hisob-kitobida quyidagilar hisobga olinadi...

- A) Barcha mavjud uskunalar
- B) O'rnatilgan uskunalar
- D) Zahiradagi uskunalar
- E) Uskunalarni hisobdan chiqarish

63. Qanday masalani hal etish uchun quvvatni oshirish koeffitsiyent qo'llaniladi?

- A) Ixtisoslashish darajasining hisob-kitobi
- B) Uskunadan foydalanishni baholash
- D) Korxonaning yetakchi sehlari va boshqa bo'g'inlarining o'tkazish qobiliyati hisobini
- E) Uskunani ishga tushirish

64. Qanday korxonalar mahsulotning yangi turini ishlab chiqarishga yaxshi moslashgan?

- A) Kichik
- B) O'rta
- D) Katta
- E) Kichik va o'rta

65. Ishlab chiqarish dasturining kuchlanish koeffitsiyenti nazoratning qanday ko'rsatkichlariga tegishli?

- A) Xususiy
- B) Umumiy
- D) Haqiqiy
- E) Me'yoriy

66. Hech qanday mahsulot yaratilmaydigan mehnat jarayoni bu...

- A) Yordamchi ishlab chiqarish jarayoni
- B) Asosiy ishlab chiqarish jarayoni
- D) Xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish jarayoni
- E) Texnik jarayon

67. Mashinasozlik zavodining mehanik sehini qanday kichik tizimga kiritish mumkin?

- A) Ta'minot
- B) Qayta ishlovchi
- D) Ta'minlovchi
- E) Nazorat kichik tizimi

68. Funksional ko‘rinishdagi boshqaruvning uch o‘lchovli modeli:

- A) Boshqaruvning tayanch jabhalari, boshqaruvning amal qilish turlari, boshqaruv jarayonlari
- B) Boshqaruv jarayonlari
- D) Boshqaruvning amal qilish turlari
- E) Boshqaruvning tayanch jabhalari va amal qilish turlari

69. Ishlab chiqarish dasturining shakllantirish uchun asosi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- A) Bozor konyukturasini va mahsulot savdosini o‘rganish natijalari
- B) Korxonani profillash bilan muvofiqlikda mahsulotlar savdosi
- D) Mahsulot chiqarishning istiqboli, bozor konyukturasini va mahsulot savdosini o‘rganish
- E) Bozor konyukturasini o‘rganish natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan mahsulot chiqarish rejasi

70. Ishlab chiqarish tizimiga samarali amal qilishning asosiy shartlari bu:

- A) Yuqori malakali xodimni jalb qilish
- B) Bitimlar bo‘yicha majburiyatlarning yaxshi bajarilishi
- D) Yuqori bo‘g‘in rahbarlarining unga doimiy e‘tibori va yuqori malakali xodimni jalb qilish
- E) Yuqori bo‘g‘in rahbarlarining unga doimiy e‘tibori

71. Axborot resurslari bu:

- A) Ishlab chiqarish tizimi va tashqi muhim haqidagi axborotning tavsifi
- B) Ishonchlilikni oshirish imkoniyatlari yig‘indisi
- D) Ishonchlilikni oshirish va axborotlarni kengaytirish imkoniyatlari
- E) Texnik tayyorgarlikni boshqarish

72. Moliyaviy resurslar bu:

- A) Likvidlik, kredit, tarmoqlarning mavjudligi
- B) Aktivlarning holati, likvidlik
- D) Aktivlarning holati, likvidlik, kredit tarmoqlarining mavjudligi
- E) Likvidlik

73. Korxona ishlab chiqarish tuzilmalarining qanday turlariga bo‘linadi:

- A) Predmet, yordamchi, aralash
- B) Asosiy, predmet, aralash
- D) Asosiy yordamchi, texnologik
- E) Predmet aralash

74. Korxonalar qanday belgilar bo‘yicha tasniflanadi:

- A) Chiqarilgan mahsulot tavsifi
- B) Asosiy, yordamchi
- D) Kattaligi, chiqarilgan mahsulot tavsifi, turi, ixtisoslashish darajasi
- E) Ixtisoslashish darajasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchilar

75. Korxona bo'linmalariaro qanday aloqalar bo'lishi mumkin:

- A) Ishlab chiqarish
- B) Moliyaviy
- D) Vertikal, gorizontal
- E) Funktsional

76. Ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy usullari bu:

- A) Tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, ma'muriy, balans
- B) Tashkiliy, reglamentlovchi, balans
- D) Matematik, iqtisodiy, balans
- E) Ma'muriy, balans, iqtisodiy

77. Muvaqqat jabhada ishlab chiqarish jarayonlari quyidagilarga bo'lmadi:

- A) Murakkab, qayishqoq
- B) Ishonchli, uzluksiz
- D) Uzlukli, uzluksiz
- E) Qayishqoq, uzlukli

78. Ishlab chiqarishni boshqarish subyekti nimadan iborat:

- A) Korxonaning ichki va tashqi muhiti
- B) Korxonaning tashqi muhiti
- D) Obyektga ta'sir etuvchi boshqaruv organi
- E) Obyekt

79. Rejalashtirish bu:

- A) Korxonaning samarali amal qilinishi
- B) Yagona akt
- D) Qarorlarni qabul qilish jarayoni
- E) Ko'p bo'g'inli jarayon

80. Strategik reja bu:

- A) Keyingi muammolarni bashoratlash
- B) Vazifalar, maqsadlar va strategiyalar shakllangan uzoq muddatli reja
- D) Ishlab chiqarish imkoniyatlarni bashoratlash
- E) Ishlab chiqarishni bashoratlash

81. Ishlab chiqarishni samarali rejasi quyidagilarni anglatadi:

- A) Istiqbolli, samarali, real
- B) Kuchlanish, real, ta'sirlilik
- D) Qulaylik, samaralilik
- E) Real, istiqbolli

82. Ishlab chiqarish rejasining buyurtmalar portfeli quyidagi ma'lumotlar bo'yicha shakllanadi:

- A) Buyurtma olish, shartnomalar tuzish

Marketing tadqiqoti rejasi
Maqsadli dasturlar, yetkazib berish haqida shartnoma
Ishlab chiqarish dasturi

. Ishlab chiqarish rejasi nimani anglatadi?

Korxonaning rivojlanish bashoratlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat
Ishlab chiqarish dasturi
Marketing tadqiqoti
Dispatcherlik, ishning bajarilish muddatini nazorat qilish

. Bajarish muddatlari bo'yicha rejalar bu:

- A) Qisqa muddatli, moddiy, moliyaviy
- B) Strategik, joriy, tezkor, biznes – reja
- D) Joriy, moliyaviy, biznes – reja
- E) Moddiy, biznes – reja, tezkor

85. Belgilangan vazifalar bo'yicha rejalar quyidagicha bo'linadi:

- A) Umumfirmaviy, sh
- B) Uzoq muddatli, tijoriy
- D) Ishlab chiqarish, tijoriy, investitsion
- E) Investitsion, umumfirmaviy

86. Mahsulot ishlab chiqarish rejasini ishlab chiqishda qanday asosiy tamoyillarni hisobga olish lozim

- A) Gorizontal masafani rejalashtirish
- B) "Yuqoridan quyiga" rejalashtirish, samaradorlik
- D) Istiqbollik, samaradorlik, kuchlanish, balanslanganlik
- E) Balanslanganlik, istiqbollik

87. Ishlab chiqarishni tezkor boshqarishning qanday bosqichlarida "Ganti hisob-reja grafigi" qo'llaniladi

- A) Ishlab chiqarishning balanslanganligi, kamchiliklari
- B) Texnologik jarayon nazorati
- D) Ehtimoliy kamchiliklar, ishlarni bajarish muddatlari nazoratini aniqlash
- E) Rejalashtirish, dispatcherlik, ishlarni bajarish muddatlari nazorati

88. Ishlab chiqarish dasturining buyurtmalar portfeli nimaga bog'liq

- A) Konyunkturalar, maqsadli dastur, yetkazib berish to'g'risida shartnomalar
- B) Bozorda mahsulotga talab darajasi
- D) Mahsulotning raqobatbardoshligi
- E) Davlat buyurtmasi, istemolchi buyurtmasi

89. Ishlab chiqarish jarayonining ritmikligi orqali nima tavsiflanadi?

- A) Rejadagi topshiriqlarga muvofiq tarzda mahsulot chiqarish

- B) Ma'lum vaqt oralig'ida mahsulotni to'g'ri chiqarish
- D) Ma'lum vaqt ichida mahsulotni chiqarish
- E) Ma'lum vaqt oralig'ida mahsulotni chiqarish

90. Proporsionallik tamoyili nimani anglatadi?

- A) Ishlab chiqarish jarayonining turli ish o'rinlariga to'g'ri ega bo'lish qobiliyati
- B) Turli ish o'rinlariga noto'g'ri ega bo'lish
- D) Mahsulotni to'g'ri chiqarish
- E) Rejadagi muvofiq mahsulot chiqarish

91. Ishlab chiqarish quvvati qanday turlarga bo'linadi?

- A) Kirish, chiqish, loyihaviylik, o'rtacha yillik
- B) Yil boshi va oxiridagi quvvat
- D) Tugatilgan loyihaviy
- E) Ishlab chiqarish dasturi uchun hisob-kitob

92. Uchta o'zgaruvchi orasida qanday bog'liqlik mavjud

- A) Ishlab chiqarish – xomashyo – talab
- B) Talab – Ishlab chiqarish– xomashyo
- D) Xomashyo –talab – ishlab chiqarish
- E) Ishlab chiqarish–talab– xomashyo

93. Sifat darajasi bo'yicha mahsulot quyidagicha bo'linadi:

- A) Oliy, raqobatbardosh, tushirilgan past
- B) Oliy, raqobatbardosh, past
- D) Nuqsonli, past, tushirilgan
- E) Oliy, tushirilgan, nuqsonli

94. Brak quyidagicha bo'lishi mumkin:

- A) Tuzatiladigan va nuqsonli
- B) Nuqsonli
- D) Tuzatib bo'lmaydigan
- E) Tuzatiladigan va tuzatib bo'lmaydigan

95. Mahsulotlarning raqobatbardoshligi bo'linadi:

- A) Mahsulotning yangiligi va mukammal konstruksiyasiga
- B) Baho sifati darajasi va iste'mol qiymatiga
- D) Mahsulot konstruksiyasining yangiligiga
- E) Mahsulot konstruksiyasining mukammalligiga

96. Mahsulotning hayotiylik darajasi bu:

- A) Ishlab chiqarishning uzluksiz ilmiy-texnik rivojlanishi
- B) Mahsulotning ishlab chiqarilishi, qayta ishlanishi va sotilishi davomidagi vaqt oralig'i
- D) Sifatli mahsulot ishlab chiqarish
- E) Ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish

97. Standart nima?

- A) Me'yoriy – texnik hujjat
- B) Texnik sharoitlarda ko'zda tutilgan hujjat
- D) Texnik – iqtisodiy hujjat
- E) Texnologik jarayon

98. Mahsulot sifati quyidagilarga mo'ljallangan

- A) Ishlab chiqaruvchi
- B) Iste'molchi
- D) Amalga oshirilishi
- E) Ishlab chiqarish

99. Sifat darajasi quyidagi bosqichlarda belgilanadi:

- A) Ishlab chiqarish
- B) Amalga oshirish
- D) Loyihalashtirish, tadqiq etish, ishlab chiqarish, amalga oshirish
- E) Tadqiqot

100. Hech qanday mahsulot yaratilmaydigan mehnat jarayoni bu:

- A) Yordamchi ishlab chiqarish jarayoni
- B) Asosiy ishlab chiqarish jarayoni
- D) Xizmat ko'rsatuvchi jarayon
- E) Texnik jarayon

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati Asosiy adabiyotlar

1. Ortiqov A. Sanoat Iqtisodiyoti Darslik.-T.Sano-Standart, 2014. - 304 b.
2. Maxmudov E.X. "Korxona Iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma - T.: TDIU, 2004. - 208 b.
3. Иванов И.Н., Беляев А.М. и др. Производственный менеджмент. Учебник для бакалавров. под. ред. И.Н. Иванова. - М.: Юрайт, 2013, - 574 с.
4. Зайцев Н.Л. Экономика промышленного предприятия. Учебник. - М.: ИНФРА - М, 2008, - 414 с.
5. Ulashev I.O., Atamurodov Sh.A. Korxona Iqtisodivamenejmenti. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2013.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak Toshkent - «O'zbekiston» - 2017 «O'zbekiston» NMIU, 2017
2. Sh.M.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz «O'zbekiston» NMIU, 2016
3. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 20 aprel-dagi PQ-2909-son Qarori 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini Kompleks rivojlantirish dasturi
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevral-dagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini
6. Ibragimova S.A., Xashimova S.N., Tashxodjaeva M.T. "Iqtisodiyot va menejment" Uslubiy qo'llanma - T.: TashDTU, 2012-151b.
7. Алимходжаев С.Р., Якубова Д.М., Хошимова С.Н. "Экономика горной промышленности" Учебное пособие - Т.:ТашГТУ, 2010-111б

8. Alimxodjaev S.R., Ibragimova S.A. Menegment asoslari. O'quv qo'llanma. T.: ToshDTU, 2007 – 166 b.

9. Экономика предприятия 3-я изд., перераб. И доп. Учебник для вузов/ Под ред. В.Я.Горфинкеля, проф.В.А.Швандара – М.: ЮНИИТИ-ДАНА, 2008-718 с.

10. Грузинов В.П. Экономика предприятия. Учебник. 2-е издание. М.:ЮНИИТИ-ДАНА, 2008 - 295 с.

11. Гаипова М.Т., Ибрагимова С.А., «Экономика отрасли». Методические указания- Т.: ТашГТУ, 2007 – 60 б.

12. Козловский П.Р. и др. Производственный менеджмент. Изд-во МГТУ, 2000.

Elektron resurslar

1. www.ziynet.uz
2. www.leh.uz
3. www.ifmr.uz
4. www.ser.uz
5. www.uza.uz
6. www.ved.ru
7. www.stat.uz
8. www.book.uz.study40.com.ru/book-44408.html
9. www.harvard.edu, www.ca'itul.ru, www.5b.ru
10. www.audit-center.ru
11. www.ortal.tuit.uz, www.ll.fj.uz, hit'://www.statistics/uz

	Kirish	3
1-mavzu	“Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti” fanining mazmuni va vazifasi.....	6
2-mavzu	Korxona-mustaqil xo‘jalik faoliyatini yurituvchi bozor subyekti sifatida.....	10
3-mavzu	Sanoat korxonalarining asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari.....	18
4-mavzu	Sanoat korxonalarining aylanma mablag‘lari va fondlari.....	62
5-mavzu	Sanoat korxonalarining mehnat resurslari.....	69
6-mavzu	Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish.....	76
7-mavzu	Sanoat korxonalarida rejalashtirish.....	85
8-mavzu	Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi va narxi.....	92
9-mavzu	Sanoat korxonalarining investitsion va innovatsion faoliyati.....	101
10-mavzu	Sanoat korxonalarining daromadi va samaradorligi.....	113
11-mavzu	Sanoat menejmentining tashkiliy tuzilmasi.....	124
12-mavzu	Sanoat korxonalari menejmentning boshqaruv usullari.....	127
13-mavzu	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	133
14-mavzu	Sanoat korxonalarida xodimlarni boshqarish.....	136

Qaydlar uchun

*Tuzuvchilar: Umarova D., Taraxtieva G.K., G'ulomova N.X.,
Ibragimova K.S.*

SANOAT IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI

*fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun
uslubiy qo'llanma*

Muharrir: Miryusupova Z.M.

Bosishga ruhsat etildi 01.11.2018 y. Bichimi 60x84 1/16.
Shartli bosma tabog'i 10. Nusxasi 50 dona. Buyurtma № 1.

TDU bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh, Talabalar ko'chasi 54.